

O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi

**Muqimiy nomidagi Qo'qon Davlat
pedagogika instituti**

Geografiya kafedrasi

Geografiya o'qitish metodikasidan

Uslubiy qo'llanma



Qo'qon -2008 y.

Taqrizchilar: Geografiya fanlari nomzodi, dosent I.Abdug'aniev

Geografiya fanlari nomzodi, dosent YU.Sultonov

Tuzuvchi: Geografiya kafedrası o'qituvchisi H.Nazarov, R.Mamajonova

Geografiya ta'limi metodikasining shakllanishi, rivojlanishi. Geografiya ta'limi metodikasining maqsadi va vazifalari.

Reja:

1. Geografiya o'qitish metodikasining vujudga kelishi.

2. Rivojlanishi.

3. Mustaqillik davrigacha.

4. Mustaqillik davrlarida.

5. Maqsadi va vazifalari.

Metodika so'zi yunoncha bo'lib, bilim berish yo'llarining ma'lum sistemasini anglatadi. Geografiya o'qitish metodikasi alohida o'quv predmetidir.

Geografiya ta'limi metodikasi — geografiya ta'limi prosesini tadqiq qiladigan, uning qonuniyatlarini aniqlaydigan fandir. Geografiya ta'limi metodikasi — geografiya o'qitishning maqsad-vazifalarini ko'rsatib beradi, maktab geografiya kurslarining mazmuni va uning ta'limtarbiyaviy ahamiyatini aniqlaydi, bilimlarning ongli va mustahkam o'zlashtirilishini ta'minlaydigan metod, usul va prinsiplarni asoslab beradi, boshqacha aytganda, ta'limtarbiya masalalarini hal etish yo'llarini ko'rsatib beradi.

Geografiya ta'limi metodikasi geografiya fanlari umumiy er bilimi, kartografiya, geologiya, iqlimshunoslik, tuprok geografiyasi, o'simliklar geografiyasi, hayvonlar geografiyasi, materiklar tabiiy geografiyasi, O'zbekiston tabiiy geografiyasi, O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi va chet mamlakatlar iqtisodiy geografiyasi) metodologiyasi va mazmuni bilan bevosita bogliq u pedagogika va psixologiya fanlari erishgan yutuqlarga tayanadi.

Geografiya ta'limi metodikasi pedagogika fanlarni qatoriga kiradi. Bizda geografiya ta'limi metodikasi markistik metodologiyaning asosiy qoidalariga suyanib. aniqlangan geografik faktlar, tushuncha va qonuniyatlarga, shuningdek didaktika prinsiplariga tayangan holda o'z vazifalarini belgilaydi, o'z metod va usullarini yaratadi hamda shular yordamida hayot taqozo qilgan turli problemalarni hal etadi.

O'quvchilarga ta'lim tarbiya berish qonuniyatlarini tadqiq qilar ekan, metodika fani geografiya o'qitish tajribasini boyitadi va ta'lim tarbiya ishlarining sifatini yaxshilashda geografiya o'qituvchilariga bevosita amaliy yordam beradi.

Geografiya ta'limi metodikasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat har bir maktab geografiya kursining maqsadi, mazmuni va ahamiyatini belgilash, ular mazmunini takomillashtirish o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda geografiya fanidagi asosiy g'oya, fakt, tushuncha va qonuniyatlarini ajratib olish, o'quvchilarning bilimlarni ongli o'zlashtirishlariga imkon beradigan ta'lim yo'llarini anqlash; geografik ma'lumotlar asosida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va ularni vatan parvarlik ruhida tarbiyalash yo'llarini ko'rsatib berish; o'qituvchilarga amaliy ko'nikma va malakalarni singdirish imkoniyatlarini aniqlash ta'lim jarayonida o'quvchilar faoliyatini oshiradigan va mustaqilligini ta'minlaydigan samarali metod va usullarni aniqlash; geografiya fanining umumiy va politexnika ta'limi sistemasidagi, o'quvchilarni mehnatga o'rgatish va ularga axloq tarbiyasi hamda estetik tarbiya berishdagi, o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishdagi mohiyatini va vazifalarini ochib berish; geografiya kurslariga mos keladigan va o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan, ilmiy jihatdan asoslangan bilimlar va amalda tekshirib ko'rilgan ta'limtarbiya metodlari bilan o'qituvchilarni qurollantirish; ta'limni tashkil etish turlarini ishlab chiqishi; darslik va boshqa o'quv qo'llanmalariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish; kurslar bo'yicha o'quvchilarning yoshiga mos keladigan o'quv qurollarini va ulardan foydalanish metodikasini ishlab chiqish; o'quvchilarni o'lkashunoslik va sinfdan tashqi ishlarining mazmuni, turlari va metodikasi bilan tanishtirish.

Tayanch iboralar:

Geografiya ta'limi metodikasi asosan;

1) Geografiya ta'limining umumiy metodikasi.

2) Xususiy metodikadan iborat ikki qismga bo'linadi.

Umumiy metodika maktab geografiyasiga oid barcha umumiy masalalar — maktab geografiyasi metodikasining taraqqiyoti, kurslarning mazmuni, bilimlarni shakllantirish va mashg'ulotlarni tashkil etishning asosiy yo'llari va boshqalar kiradi. Xususiy metodika maktab geografiyasining ayrim kurslari — tabiatshunoslik kursi, tabiiy geografiya boshlang'ich kursi, materiklar geografiyasi, O'zbekistonning tabiiy geografiyasi, O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi va chet mamlakatlar iqtisodiy geografiyasi kurslarining ahamiyati, mazmuni, metodikasi va o'qitishni tashkil etish xususiyatlarini o'rganadi.

Geografiya metodikasida ilgari surilgan tartibqoidalarni ilmiy jihatdan asoslash uchun tadqiqotlar olib boriladi. Metodikaga oid tadqiqotning maqsadi maktab geografiyasi mazmunini ishlab chiqish, ta'lim va tarbiyaning tashkil etishdagi mavjud metod va shakllarni takomillashtirish va yangilarini izlashdan iboratdir. Har bir tema mazmuniga mos keladigan ko'rsatmali qurollarni tayyorlashga ham anchagina e'tibor beriladi.

Metodik tadqiqotda kuzatish, maktab hujjatlarini o'rganish, o'qituvchi va boshqalar bilan olib boriladigan suhbatlar va nihoyat, pedagogik eksperiment metodlaridan foydalaniladi.

Kuzatish. Kuzatish asosiy va ko'p qo'llaniladigan tadqiqot metodlaridan biri bo'lib, o'qituvchilarning tajribalarini o'rganishda va xulosa chiqarishda muhim o'rin tutadi, O'quv ishlarining samarasi maxsus tekshirish (masalan, yozma kontrol ishlar) bilan sinab borilsa, ayniqsa, yaxshi natijalarga erishish mumkin. Ilmiy kuzatish biron maqsadga qaratilgan bo'lishi lozim. Kuzatish uchun avvalo kuzatiladigan proses (masalan, dars) haqida etarli tasavvurga ega bo'lish kerak. Kuzatish dastursida: kuzatish olib boriladigan sinf va tema, kuzatishni yozib borish usullari, darsda ko'rib chiqiladigan masalalar, o'qituvchi yoki ayrim o'quvchilar bilan o'tkaziladigan suhbat savollari, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini sinab ko'rish uchun savollar, yozma kontrol ish o'tkazish uchun savollar, olingan ma'lumotlarni ishlab chiqish usullari va boshqalar ko'rsatiladi.

Ilmiy kuzatish aniq va haqiqiy bo'lishi shart. Kuzatuvchining asosiy vazifasi biron ish turi (masalan, darsning turli qismlarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini hisobga olishning turlari va usullari)ni to'liq va har tomonlama aniqlovchi faktlar to'plashdan iborat.

Kuzatishni to'g'ri o'tkazish uchun uni yozib borish ham muhim ahamiyatga ega. Dars, ekskursiya, joydagi mashg'ulot, shuningdek, o'qituvchilar va o'quvchilar bilan o'tkaziladigan suhbatlarni yozib borishdan tashqari, stenografiya va magnitofon usullaridan ham foydalanish mumkin. Bu kuzatishning ob'ektivligini ta'minlaydi.

Geografiya o'qitishning eng samarali metod va usullarini aniqlashda o'qituvchilarning tajribalarini o'rganish katta ahamiyatga ega. Maktablarimizda g'ayratli, tashabbuskor o'qituvchilar oz emas, ular eng yaxshi metod va usullarni axtaradilar, ijodiy izlanadilar. Bunday o'qituvchilar o'quvchilarning fan asoslarini puxta o'zlashtirishlariga imkon beradigan eng yaxshi usullarni qo'llaydilar. Ularning tajribalari umumlashtiriladi, ilmiy jixatdan asoslanadi va ommalashtiriladi.

Jamiyat maktabi uchun yaroqli va qimmatli ba'zi o'qitish usullari bilan bir qatorda eski davr geografiya o'qituvchilarining tajribasi ham o'rganiladi. Ilg'or, tajribali geografiya o'qituvchilari ham ko'p qiziqarli usullardan foydalanganlar, qo'llanmalar, kartalar yaratganlar. Ularning ish tajribasini o'rganish geografiya ta'limining rivojlanishida katta yordam berishi mumkin. Utmishda muvaffaqiyatli foydalanilgan ba'zi progressiv o'qitish usullarini qayta «kashf» qilishga ancha vaqt va mehnat sarf qilamiz.

Geografiya o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi.

Reja:

1.Tabiiy fanlar.

2.Iqtisodiy fanlar.

3.Gumonitar fanlar.

Maktablardagi tajribalarni o'rganishda hujjatlar katta ahamiyat kasb etadi. SHuning uchun pedagogik kuzatish maktab hujjatlarini o'rganish bilan birga olib borilishi zarur. Maktab hujjatlari quyidagilardan iborat: sinf jurnali, o'qituvchining o'quv plani va hisoboti, o'quvchilarning geografiya daftari, to'ldirilgan kontur kartalar, ayrim geografik ob'ektlarning tasviri, obhavo kalendari, fenologik kuzatuv natijalari, turli amaliy ish va yozma kontrol ishlarning natijalari, o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar ishlagan o'quv qurollari. O'quvchilarning mustaqil ishlarini o'rganishda bu hujjatlarning mohiyati ayniqsa katta. Maktab hujjatlarining to'g'ri rasmiylashtirilishi va yaxshi saqlanishi o'qituvchilar tajribasini umumlashtirish va taxlil qilishda, shuningdek, o'quvtarbiya ishlarini takomillashtirishdagi muhim vositalardan biridir.

Tayanch iboralar:

Tabiiy fanlarga umumiy er bilimi, geologiya, materiklar va okeanlar geografiyasi, landshaftlar geografiyasi, umumiy tabiiy geografiya va boshqalar.

Iqtisodiy fanlarga O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi, chet mamlakatlar iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi, mintaqaviy iqtisodiyot va boshqalar.

Gumonitar fanlarga falsafa, ijtimoiy ekologiya, pedagogika-psixologiya va boshqalar.

O'quvchilar bilan olib boriladigan suhbatlar. Bu metod yangi dastur, darslik, o'quv qo'llanmalari tajribada sinab ko'rilayotganda ayniqsa katta ahamiyatga ega. Uqituvchi o'zining pedagogik faoliyati davomida ko'plab faktik material to'playdi. Bu material suhbat davomida to'plana boradi. Suhbatning samarali bo'lishi o'ylab tuzilgan savollar sistemasiga bog'liq. Uqituvchining savollarga bergan javobi tadqiqotchi tomonidan yozib boriladi.

Ko'pchilik geografiya o'qituvchilarining fikr mulohazalariga ehtiyoj tug'lsa, savoljavob anketa formasida to'planadi.

O'quvchilarning geografik adabiyotlarga bo'lgan qiziqishini aniqlashda kutubxonachi, etakchi, shuningdek, ota-onalar bilan o'tkaziladigan suhbatlar ham manba bo'lib xizmat qiladi.

Eksperimentlar o'tkazish geografiya ta'limi metodikasining eng asosin tadqiqot metodidir. Eksperimentlar maktablarda munozarali masalalarni hal etish hamda geografiya ta'limining samarali metod va usullari haqida xolis xulosa chiqarish maqsadida o'tkaziladi. Pedagogik eksperiment tadqiqotchi ilgari surgan gipoteza va ilmiy farazning to'g'rinoto'g'riligini aniqlash maqsadida o'tkaziladigan ta'limiy tajribadir. Eksperiment ta'lim turlarini turli sharoitda batafsil o'rganish, eng aniq va zarur faktlarni yig'ish va dalillarga asoslangan ilmiy xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi,

Geografiya metodikasidagi eksperiment ikki xil bo'lishi mumkin: oddiy (tabiiy) va laboratoriya eksperimenti. Oddiy (tabiiy) eksperiment butun sinf bilan, oldindan ishlab chiqilgan ilmiy ko'rsatmalar asosida o'tkaziladi. Ilmiy ko'rsatmalar, odatda, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar doirasini belgilashdan, bu bilim va ko'nikmalarining puxtaroq o'zlashtirilishini ta'minlovchi ta'lim metodlari va shakllarini aniqlash kabi masalalardan iborat.

Eksperiment o'tkazish uchun ikkita sinf: eksperimental (eksperiment o'tkaziladigan) va kontrol sinf olinadi. Bu sinflar o'quvchilar soni, ularning tayyorgarliklari va bilim darajasi jixatidan bir xil bo'lgani ma'qul.

Eksperimental sinfdagi mashg'ulotlar tadqiqotchi tomonidan ishlangan metodika asosida olib boriladi. Qontrol sinfdagi mashg'ulotlar esa odatdagicha o'tkaziladi. Eksperiment tugagach, har ikkala sinfdagi bir xil kontrol ish olinib, natijasi takkoslanadi. Natija ishonchli bo'lishi uchun metodik eksperiment bir necha marta o'tkaziladi. Oddiy (tabiiy) eksperiment laboratoriya tarzidagi eksperiment bilan birga qo'shib olib borilsa, yanada aniq va mukammal natija beradi.

Laboratoriya eksperimenti o'quv ish usullari (turli asboblardan foydalanish, kartani o'qish usullari)ning o'zlashtirish xususiyatlarini o'rganishda, shuningdek, yangi ko'rsatmali o'quv qo'llanmalarini sinab ko'rishda tatbiq etilishi mumkin.

Laboratoriya eksperimenti bir yoki bir necha o'quvchi bilan o'tkaziladi. Har ikkala xolda ham saviyasi va o'zlashtirishi turlicha bo'lgan o'quvchilar ajratib olinadi. Eksperimentning har ikkala turida ham o'quvchilar psixologiyasini yaxshi bilish talab etiladi.

Geografiya o'qitishning barcha tadqiqot metodlari yordamida to'plangan materiallar har

tomonlama chuqur tahlil qilinadi va muayyan bir tartibga solinadi, keyin esa tegishli xulosalar chiqariladi. Eksperiment natijalari geografiya ta'limi metodikasi fanining ilmiy salmog'ini va ayrim geografiya o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirishda katta ahamiyatga ega. Eksperiment natijasida vujudga kelgan xulosalar geografiya ta'limi metodikasining takomillashuviga imkon beradi.

Uqituvchi bo'lishni istagan har bir kishi o'qitish, ya'ni ta'lim berish faoliyati juda murakkab va mas'uliyatli kasb ekanligini anglab olishi zarur. Uqituvchilik kasbi jiddiy tayyorgarlik ko'rishni talab etadi. Uqituvchi zimmasiga xayot xattiyojlariga to'la javob beradigan va o'z zamoniga munosib kishilarni tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifa yuklatilgan.

Metodika o'qituvchiga o'z ishinin mohiyatini tushunib olishga, uning murakkabligini payqashga va bu ish uchun jamiyat oldidagi mas'uliyatni sezishga yordam beradi. Metodikadan yaxshi xabardor o'qituvchi o'z ishiga tanqidni qaray oladi, erishgan yutuqlarini xisobga olib, undan xulosa chiqarib boradi, tajriba to'playdi va ayni vaqtda, o'z ishidagi kamchiliklarni payqab olib, uni tugatib boradi. Uqituvchi talabga javob beradigan darajada ta'lim-tarbiya berishi uchun avvalo metodologiya bilan qurollangan bo'lishi lozim.

Geografiya o'qituvchisi o'z fanini sevishi va puxta bilishi, tabiat va jamiyat qonuniyatlarini o'quvchilar ongiga singdira borishiga erishmog'i lozim. O'quvchilar o'z fanini yaxshi bilgan, darsni yuksak mahorat bilan o'tadigan tadbirkor o'qituvchilarga ixlos qo'yadilar. Ush fanini, ishini yaxshi bilmagan, kasbini sevmagan o'qituvchi hech qachon o'quvchilar e'tiborini qozona olmaydi.

Geografiya o'qituvchisi bolalar psixologiyasini hisobga olib bilishi, pedagogika qonuniyatlarini tushunib etishi, ta'lim tarbiyaning samarali metod va usullaridan foydalana olishi lozim. O'quvchilar turli amaliy ko'nikmalar olishi kerak. Uquvchilarga plan olish, kuzatish, turli sxema va chizmalar chiza olish, turli xil o'quv qurollarini yasay olish va ulardan foydalanish kabi ko'nikmalarni singdira borish talab etiladi.

Uqituvchi ta'lim prosessida: darsda o'rganiladigan bilimlardan ko'zda tutilgan maqsadni o'quvchilarga ko'rsatib borishi, o'quvchilar faoliyatini oshirishga, ularni mustaqillikka o'rgatishga mos keladigan o'qitish usullarini tatbiq etishi, nihoyat, o'quvchilarni ongli intizomga o'rgata borishi lozim. Har qanday kasb kabi, o'qituvchilik kasbi ham qunt bilan ishlashni talab etadi.

Geografiya o'qituvchisi bilimni tinmay oshirishi, pedagogik mahoratini orttira borishi, ta'limni hozirgi zamon va xayot bilan bog'lab olib borishi lozim. Geografiya o'qituvchisidan o'z ilmiy va pedagogik saviyasini tinmay oshirish, chunonchi, geografiya, pedagogika, psixologiya va metodikaga oid yangiliklardan, «Maktabda geografiya», «Xalk ta'limi», shuningdek, «Fan va turmush», tegishli maqolalardan muntazam ravishda xabardor bo'lib borish talab etiladi.

Uqituvchi o'z fani va kasbiga astoydil ixlos qo'yishi, o'quvchilarini sevishi kerak. SHundagina u xaqiqiy o'qituvchi, o'z kasbini egallagan mohir pedagog bo'la oladi. Uqituvchi darsining samarali va qiziqarli bo'lishida nutq madaniyatining roli katta ekanligini aslo unutmasligi kerak.

Uqituvchi mehnatining asosiy samarasi — o'z mahoratini muntazam takomillashtirishga asoslangan ijodiy faoliyatidir. Fan asoslarini, maktab psixologiyasini va ta'lim metodlarini puxta egallagan o'qituvchigina o'z mahoratini oshirib bora oladi.

Uqituvchi vaktini ayamay, mo'ntazam ravishda ijodiy izlanishi, nimanidir topishi, to'plashi, umumlashtirishi, o'quvchilarga qandaydir yangilik berishi, talab etilgan zarur bilimni me'yorida o'rgatishi lozim.

Geografiya o'qituvchisi zinxor andaza bilan, bir qolipda ishlamasligi, muayyan ish usullariga qul bo'lib qolmasligi kerak. Hatto bir mavzunin o'zini ham har yili bir xil metod va usul bilan o'quvchiga o'rgatish maqsadga muvofiq emas. U har qancha mukammal ko'rinsada, tayyor xulosaga taqlid kilaverish yaxshi natija bermaydi. Uqituvchi o'zining har bir tadbirini pedagogika va metodikaning prinsipial qoidalari bilan asoslashi lozim. Uqituvchining ish sharoiti (xar bir sinf o'quvchilari xar xil, ularning xususiyatlari bir-iridan keskin farq qiladi) ham bir xil andaza bilan ishlashga imkon bermaydi.

Geografiya o'qituvchilari o'zlari ishlayotgan maktablarida ajoyib geografiya kabineti vujudga kelishini, zarur qo'llanmalar bilan ta'minlanishini qo'l qovushtirib kutmasligi kerak. Mehnatni

to'g'ri, ilmiy asosda tashkil etishning asosiy vazifalaridan biri mavjud vositalardan unumli foydalanib, yuqori samaraga erishishdan iboratdir.

O'quv jarayonining tashkil etishni takomillashtirish qimmatli vaqtdan unumli foydalanishdir. Mehnatning to'g'ri tashkil etilmasligi (darsga kechikib kirish, o'quvchilarning darsga sust tayyorlanib kelishi, davomatni aiiqlash, kartaning o'z vaqtida osilmasligi, o'quvchi bilimini yukori ko'tarishga intilish) natijasida ba'zan bir necha minut vaqt bekorga sarf bo'lish hollariga yo'l qo'ymaslik kerak.

Xullas, geografiya ta'limi saviyasining yuqori bo'lishi ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning ta'limtarbiyadagi mahoratiga bog'liqdir.

Har bir o'qituvchi o'qituvchilik maxoratini chukur egallab olishi o'zining siyosiy va ilmiy bilimlari zapasini sistemali ravishda to'ldira borishi, fan, texnika va madaniyat sohasidagi yangi muvaffaqiyatlarning hammasidan xabardor bo'lib turishi lozim.

Turkiston Rossiyaga qo'shib olingandan keyin o'zbek maktablarida geografiya ta'limi. Rus tuzumi maktablari.

Reja:

1.Turkistonda geografiya ta'limining rivojlanishi.

2.Rus tuzumi maktablari.

O'tmishda O'zbekiston territoriyasida Muxammad Xorazmiy, Axmad Farg'oniy, Abu Rayxon Beruniy, Ulug'bek va Zahiriddin Bobur kabi olimlar jaxon geografiya faniga ulkan xissa qo'shganlar, yashab ijod etganlar. Birok avlodlarimiz qoldirgan ajoyib geografik meros, yaqin-yaqin vaqtlargacha tarixning qora pardalari ostida qolib keldi. Mustaqillikdan so'ng olimlarning geografiya tarixi borasidagi tadqiqotlari tufayli O'rta Osiyolik ko'plab geograf va sayyohlarning ilmiy va pedagogik qarashlariga oid ma'lumotlar to'plana boshladi.

Bid'at, xurofot keyingi asrlarda O'zbekiston territoriyasida fan va ilmning o'sishiga to'liqlik qilib kelgan. XVIII va XIX asrlarda maktablarda geografiya deyarli o'qitilmadi, XIX asrning 50 yillarida maktablar soni juda kamayib ketdi.

XIX asrning 60 yillaridan boshlab Turkiston, jumladan, xozirgi O'zbekiston territoriyasi Rossiyaga qo'shib olindi.

O'zbekiston territoriyasidagi maktablar eski usul musulmon maktablari bo'lib, ularda geografiya o'qitilmagan, madrasalarda esa geografiya qadimgi arab afsonalari asosida elementar holda o'qitilgan. Turkiston Rossiyaga qo'shib olingandan keyin o'zbek xalqining madaniy hayotida, jumladan, maktab va maorif sohasida xam jonlanish ro'y bera boshladi. O'rta osiyolik peshqadam kishilar Rossiyaga borib, uning fani va madaniyati bilan tanishdilar va bu erdagiga nisbatan ilg'or fan va madaniyatni Turkistonda ham targ'ib qila boshladilar. Bu davrda ya'ni XIX asrning 60yillarida Rossiyaning progressiv pedagoglari maktab ta'limi yo'lida jiddiy izlana boshlagan edilar. Xuddi shu yillarda mashhur rus ma'rifatparvari K D. Ushinskiy ajoyib pedagogik g'oyalarni ilgari suradi. Jumladan, geografiya ta'limining mohiyatini asoslab beradi. U geografiya maktabdagi asosiy o'quv predmetlaridan biri bo'lishi kerak, degan fikrni olg'a suradi.K. D. Ushinskiy geografiyani o'rganishni o'z joyini, o'lkasini o'rganishdan boshlashni tavsiya etgan. Geografiyani o'qitish o'z joyini o'rganishdan boshlab, o'quvchilar bilimi yanada jonliroq va yaxshiroq o'zlashtiriladi.

K. D. Ushinskiyning metodika sohasidagi fikrlari ta'sirida Rossiyada vatanni o'rganish prinsipiga asoslangan dastlabki geografiya darsligi vujudga keldi.

Ana shu ilg'or metodik qarashlar Rossiyaning chekka o'lklariga, jumladan, Turkistonga ham etib keldi.

1866 yilda Toshkentda boshlang'ich ma'lumot beruvchi birinchi rus maktabi ochilgan. 1877 yili Toshkentda hozirgi O'zbekiston territoriyasidagi birinchi gimnaziya tashkil qilinadi. 1879 yilda Turkiston o'qituvchilari seminariyasi ochiladi. Rus maktablari Rossiya Maorif ministrligi tomonidan tasdiqlangan o'quv plani va dasturlari asosida ish olib borgan.

XIX asrning 80 yillarida maxalliy aholi bolalarini o'qitish uchun maxsus rustuzem maktablari

ochila boshladi. Bu maktablarni ochishdan asosiy maqsad tub joy aholi orasidan rus tilini biluvchi kichik amaldor va tarjimonlar, mustamlakachilik siyosatining vositachilarini etishtirish, keyinchalik esa mahalliy aholini ruslashtirish bo'lsada, rustuzem maktablari ma'lum darajada ijobiy rol o'ynadi. O'zbekiston territoriyasida birinchi rustuzem maktabi 1884 yilda Toshkentda, keyinchalik, 1891 yili Xivada, 1894 yili Buxoroda ham ochildi; shundan so'ng bu maktablarga qiziqish orta boradi.

Keyinchalik rustuzem maktablarining mahalliy aholi o'rtasida mavqeini oshirish maqsadida ularda o'zbekcha o'qitiladigan sinflar ham tashkil etildi. Bu maktablarda arifmetika bilan geografiya xam o'qitilgan. Biroq o'zbek tilida o'qitiladigan sinflardagi ta'lim ishlari ruscha o'qitiladigan sinflardagiga qaraganda birmuncha past saviyada olib borilgan. Darslar rus tilida olib boriladigan maktablarda parta, sinf taxtasi, geografik kartalar bo'lsa, o'zbekcha o'qitiladigan sinflarda bular bo'lmagan. Hatto ularning ma'lum dastursi ham yo'q edi.

CHor hukumati o'z farmon va buyruqlarini mahalliy xalqqa etkazish maqsadida 1970 yildan boshlab o'zbek tilida «Turkiston viloyati» gazetasini nashr eta boshladi. CHor hukumati ko'zlagan maqsaddan qat'iy nazar, gazetaning chiqa boshlashi Turkiston o'lkasining madaniy hayotida katta voqea bo'ldi. Bu gazeta geografiya o'qitishni yo'lga qo'yilishida va geografik bilimlarning tarqalishida yangi davrni boshlab berdi.

Gazeta saxifalarida geografiya va astronomiyaga oid makolalar ham bosilib turgan. Bu esa o'sha davrdagi ilg'or kishilarning dunyoqarashlariga katta ta'sir ko'rsatdi.

Gazetalarda bosilgan maqolalar dastlabki geografiya darsligining vujudga kelishiga asos soldi.

XIX asrning 90yillariga kelib rustuzem maktablarining o'zbek sinflarida boshqa fanlar qatori, geografiyadan ham o'zbek tilida o'quv qo'llanmasi nashr etilgan. «Er xususida ilmdan olingan so'zlar» degan kitob o'zbek tilidagi birinchi geografiya qo'llanmasidir. Bu kitobdagi materiallar nemis professori A.Geyki makolalari asosida yozilgan bo'lib, avval «Turkiston viloyati» gazetasining 1889 yildagi sonlarida bosilgan. Kitobning ikkinchi nashri 1901 yilda chop etilgan.

Kitobning mundarijasi mana bunday:

Erning hay'ati (shakli).

Kun va kecha xususida.

Havoning ajzosi (tarkibi).

Havo isigan va sovigan vaktida nima bo'ladi?

Bug' qandog' havoga qo'shilib va ne tariqa ondin ajraydir?

Bu kitob afsona va uydirmalardan xoli bo'lib, unda erning shakli, suvning bug'lanishi, shamol va yog'inlarning hosil bo'lishi kabi tushunchalar ilmiy asosda berilgan. Bilimlar mahalliy misollar asosida bayon etilgan. Usha davrdagi kitoblar materialni yodlatib bilim berishga mo'ljallangan bo'lsa, mazkur kitobdagi geografik bilimlar hikoya tarzida bayon etilgan, bu esa o'quvchilarning tushunishi uchun qulaylik tug'dirgan.

Kitob ma'lum bir dastur asosida yoki biron sinfga mo'ljallao chiqarilgan emas. Lekin undan 34 sinf o'quvchilari foydalangan.

Geografiya ta'limi 1905 yildan so'ng rustuzem maktablarining ruscha sinflari ta'sirida rivojlana bordi. Ba'zi rustuzem maktablarining o'zbekcha sinflarida ham geografia o'qitila boshlandi.

Turkiston general gubernatoriining 1910 yil 20 dekabrda «Rustuzem maktablarining mahalliy sinflari uchun aniqroq dastur ishlab. chiqish va unga umumiy ta'lim dastursi tusini berish kerak» degan taklifiga ko'ra Samarqand shahri va uning atrofida rustuzem maktablarining mahalliy xalqlar tilida o'qitiladigan sinflariga shariat, ona tili, tarix, geografiya va arifmetikadan dastur tuzib chiqish uchun komissiya tuzildi. SHu taklif asosida tuzilgan mahalliy sinf dars jadvali bo'yicha 3 bo'lim (sinf) va 4bo'lim (sinf) uchun haftasiga 4 soat geografiya kiritilgan, ayni vaqtda ona tili va arifmetika uchun 3 soat, tarixga 2 soat ajratilgan. Geografiyaga boshqa predmetlarga qaraganda ko'p soat ajratilgashshgi unga etarli e'tibor berila boshlaganligidan va geografiya eng asosiy predmetlardan hisoblanganligidan darak berar edi.

Maktablarda geografiya o'qitishni yaxshiroq yo'lga qo'yish uchun o'zbek sinflari

o'qituvchilariga rustuzem maktabidagi rus o'qituvchilarning ish tajribasi katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Umuman, Turkistondagi rustuzem maktablari hozirgi O'zbekiston territoriyasidagi maktabmaorif ishlarida progressiv rol o'ynadi; bu maktablarda geografiya boshqa fanlar qatorida o'qitila boshladi.

«YAngi usul» maktablarida geografiya ta'limi

Turkiston Rossiya ekonomikasiga va bu ekonomika orqali jahon bozoriga tortilishi munosabati bilan mahalliy savdo burjuaziyasining o'sib borayotgan sinfiy ehtiyoj va manfaatlari eski usul maktablarining zamon talablariga javob bera olmay qolganligini ko'rsatdi, eski maktablarning ta'limtarbiya ishlariga isloh kiritishga ehtiyoj tug'ildi. SHu tariqa «YAngi usul» maktablari paydo bo'ldi.

Hozirgi O'zbekiston territoriyasida yangi usul maktablari asrimizning boshlarida vujudga kela boshladi. 1900 yilda Toshkentdagi «Gospital» bozori yonida birinchi — «yangi usul» maktabi ochildi (bu maktab 1907 yilda SHayxontovurga ko'chib keldi). YAngi usul maktablarida boylarning ham, kambag'allarning ham bolalari o'qishi mumkin bo'lsada, undan birinchi navbatda, milliy burjuaziya manfaatdor edi. Rossiyada 1905 yil revolyusiyasidan keyin mayda milliy burjuaznya harakatining o'sishi natijasida yangi usul maktablarning soni tez ko'paya bordi. YAngi usul maktablarini chor hukumati xam, mahalliy ruhoniylar xam yoqtirmas edi. Ular yangi usul maktab «islom diniga putur etkazadi», maktab o'qituvchi va o'quvchilari «kofir» degan tashviqot yuritdilar.

CHor amaldorlari avvallari «yangi usul» maktablarining ochilishiga ruxsat bermagan bo'lsalar ham, bu maktablarda bolalar o'qiyvergach, yangi usul maktablarini zo'rlik. bilan yopish emas, balki qonunga bo'ysundirish yo'liga o'tdilar. 1912 yildan boshlab ba'zi «yangi usul» maktablariga ruxsat berishga majbur bo'ldilar.

«YAngi usul» maktablari tashkiliy jihatdan eski maktablarga nisbatan birmuncha durust bo'lgan, ularda bolalar sinflarga bo'lib o'qitilgan, partada o'tirgan, mashg'ulotlar dars jadvali asosida olib borilgan, dars sistemasi joriy qilingan. YAngi usul maktablarida din, ona tili, hisob, geografiya, tarix va axloq kabi predmetlar o'qitilgan.

«YAngi usul» maktablarida o'quvchilarga bilim asoslarini bera oladigan va aniq ma'lumotlarga asoslangan geografiya qo'llanmasiga ehtiyoj vujudga keldi. Nixoyat, 1905 yilda Samarqanddagi «YAngi usul» maktablari uchun geografiya darsligi va o'zbek tilida birinchi geografik karta «Turkiston va unga yondoshgan mamlakatlarning kartasi» ham nashr etildi. O'zbek tilida geografiya darsligi va kartasining vujudga kelishi geografik bilimlarning tarqalishiga va yoshlarning geografiya faniga bo'lgan qiziqishini ortishiga sabab bo'ldi.

Fotix Karimning geografiya kitobi .Mustaqillik yillarida geografiya o'qitish metodikasi.

Reja:

1.Jug'rofiy riyoziy kitobi.

2.Mustaqillik yillarida geografiya o'qitish metodikasining yutuqlari.

Fotix Karimning geografiya kitobi 1909 yili Orenburgda bosilib chiqdi. Bu kitob Toshkentdagi «yangi usul» maktablarining birida qo'llanib kelingan.

Bu qisqacha geografiya kitobi (risola), rus darsliklari namunasida yozilgan. Dastlab geografiya, karta, atlas, dengiz, okean, tog', vodi, daryo, ko'l va boshqalar haqida, so'ngra dunyoning besh qit'asi va undagi davlatlar haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

Fotih Qarimning qisqacha geografiya risolasi kamchiliklardan xoli bo'lmasada (masalan, o'lkashunoslikka e'tibor berilmagan), har holda keyingi geografiya darsliklarining takomillashuviga va geografiyaning yanada kengroq o'qitila boshlanishiga ta'sir ko'rsatdi.

XX asrning 10 yillaridan boshlab Rossiyada geografiya o'qitish ancha yaxshilandi. Geografiya o'qituvchilarining D. N. Anuchin rahbarligida o'tgan birinchi Butunrossiya s'ezdi (1915 y.) Rossiya maktablarida geografiyaning rivojlanishida katta voqea bo'ldi. S'ezdda barcha sinflarda

geografiya darslari soatlarining ko'paytirilishi lozimligi, shuningdek, geografiya o'qitishda ekskursiya, kuzatish va amaliy ishlarning ahamiyati ta'kidlangan. SHundan keyin geografiya maktab ta'limidagi eng asosiy o'quv predmetlaridan, deb tan olindi va maktablarda yangi dastur joriy qilindi.

Tayanch ibora:

I sinfdan VIII sinfgacha haftasiga 2 soat (maktabdagi haftalik geografiya darsi 16 soatni tashkil etadi) geografiya o'qitish mo'ljallandi. Vatan geografiyasiga ko'proq vaqt ajratish nazarda tutildi.

M. T. YArashevskayaning «Rasmli boshlanma geografiya» (1911 y.); E. Lesgaft, G. Ivanovlarning hamma sinflar uchun yozilgan geografiya kitoblari, shuningdek, A. Kruber, S. Grigor'ev, A. Barkov va S. CHEfranovning «Boshlanma geografiya» darsliklari nashr etildi. Mazkur darsliklarda geografiya fani erishgan yutuqlardan foydalanilgan, geografik nomlar birmuncha qisqartirilgan, tabiat va aholining hayotidan yorqin tasvirlar berilgan.

Rossiyada geografiyaga bo'lgan e'tiborning ortishi Turkiston maktablarida geografiya o'qitish ishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. YAngi original geografiya darsliklari vujudga kela boshladi.

Geografiya darsliklari o'qituvchilar o'rtasida muxokama kilinar va ularning mulohazalari asosida takomillashtirilar edi. Eng yaxshi geografiya darsliklari dastur tarzida qabul qilinib, ko'pchilik maktablarda o'qitila boshlandi.

Darsliklarni nashr etishda Abdulla Avloniy rahbarligidagi «Maktab» bosmaxonasining ham xizmati katta bo'lgan.

Usha davrdagi muhim risola (kitobcha) lardan «Er yuzi», «Jurrofiyai ijmolii» (umumiy geografiya) va «Jug'rofiyai riyoziy» (matematik geografiya) kitoblari bo'lgan. Quyida shu kitobchalar haqida qisqacha ma'lumot beramiz.

«Er yuzi». Bu geografiya qo'llanmasining ikkinchi nashri 1915 yilda bosilib chiqqan. «YOr yuzi»ning birinchi nashri Turkiston geografiya o'qituvchilari o'rtasida muhokamaga qo'yilgan va o'qituvchilariing fikr hamda mulohazalarini e'tiborga olib tuzatilgan. «Er yuzi» kitobi dastur sifatida qabul qilingan.

Bu kitob xam rus geografiya kitoblari namunasida yozilgan bo'lib, u umumiy tabiiy geografiyani, qit'alar va eng muhim mamlakatlar geografiyasini va Rossiya haqidagi geografik ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Umuman «Er yuzi» revolyusiyagacha maktablar uchun nashr etilgan geografiya kitoblari ichida eng mukammalidir. Bu kitob ayrim maktablarda, hatto 1928 yilgacha qo'llanib kelinganligi fikrimizning dalili bo'la oladi.

«Jugrofiy ijmolii» nomli kitobcha geografiya darsligi talabiga javob bera oladigan darajada emas edi. Bu kitob juda qisqa bo'lib, unda asosan materik, mamlakatlar va daryolar sanab o'tilgan, geografik tushunchalar juda kam va qisqa bayon etilgan.

1914 yilda nashr etilgan «Jug'rofiyai riyoziy» (Muhammad Amin Karimiy risolasi) boshlang'ich maktablarining 4 va 5 sinf o'quvchilari uchun mo'ljallab chiqarilgan.

Kitob 17 dars, ya'ni 17 mavzudan iborat bo'lgan. Bu risolada erning shakli, uz o'qi va Quyosh atrofidagi harakati, Oy va uning tabiati, Quyosh va Oy tutilishlari xaqida, yulduzlar haqida ilmiy ma'lumotlar berilgan. «Jug'rofiyai riyoziy» o'sha davrdagi matematik geografiyaga bo'lgan ehtiyojni ma'lum darajada qondirgan. Bu kitobni yozishda rus tilida nashr kilingan adabiyotlardan foydalanilganv shubxasiz. Usha davrda bunday darslikning vujudga kelishi, birinchidan, o'zbek xalqining geografik bilimlarga bo'lgan ehtiyoji kun sayin ortib borayotganligidan, ikkinchidan, o'zbeklardan geograf mutaxassislar etishib chiqqa boshlaganligidan darak berar edi.

O'rta osiyolik olim ma'rifatparvarlar fanning, jumladan, geografiya fanining rivojlanishiga munosib hissa qo'shdilar. Geografiyaga qiziqish orta bordi: o'zbek tilida globus ishlandi, o'zbekcha kartalar yaratildi, tabiatni o'rganish va undan oqilona foydalaiishga qaratilgan fikrlar paydo bo'ldi. Usha davrdagi ilg'or fikr namoyandalaridan Axmad Donish, Furqat, Hoji YUsuf Hay'atliy, Hamza Hakimzoda Niyoziy va Abdulla Avloniylarni faxr bilan tilga olamiz.

Axmad Donish (Ahmad Nosir o'g'li, 1827—1897 yy.) XIX asrning ikkinchi yarmidagi keng bilimli ma'rifatparvarlardan biri va o'z davridagi ilg'or g'oyalarning targ'ibotchisidir. U ajoyib

shoir, filosof, etuk astronom va geograf edi.

Axmad Donish o'z zamonasida boshqa bilimlar qatori, geografik bilimlar ham, ommani nodonlikdan xalos etishda va kishilar ilmiy dunyoqarashining shakllanishi hamda yuksalishida katta rol o'ynalajagini ta'kidlagan va buning uchun jon kuydirganlardan biri edi.

Donish jaholatga tushib qolmaslik uchun dunyoviy bilimlarni egallashga quyidagicha da'vat qildi:

«Biz dunyoni gullatib yashnashi uchun, dengizlar kezib o'rganish uchun, er osti boyliklarini izlab topish uchun, Erning hamma qit'olari va aholisini bilish uchun tug'ilganmiz» (Navodirul voqoe, 77 a, 82 betlar.)

Ahmad Donish geliosentrik nazariya bilan tanish bo'lgan, evropaliklarning dunyo aylana sayohatlaridan, shimoliy va janubiy o'lkalarda olib borilayotgan tadqiqot ishlaridan xabardor edi.

A. Donishning Buxorodagi suv ta'minotini yaxshilash to'g'risidagi fikrlari ayniqsa qimmatlidir. U o'z g'oyasini amalga oshirishni so'rab Buxoro amiriga murojaat qiladi.

Ulkamizdagi dastlabki ma'rifatparvarlardan biri, geografik bilimlarni tarqalishiga ma'lum darajada hissa qo'shgan Ahmad Donishning orzuistaklari sovet davridagina amalga oshdi. Maktab geografiya ta'limiga munosib hissa qo'shganlardan biri o'zbek sovet adabiyotining asoschisi, mohir pedagog va san'atkor Hamza Hakimzoda Niyoziydir.

H. H. Niyoziyning ijodiy merosidagi xalq maorifi va tarbiya haqidagi fikrlar muhim ahamiyatga ega. Asrimizning o'ninchi yillarida O'zbekiston territoriyasida maktablarning deyarli hammasi sinfiy xarakterda bo'lganligi uchun Hamza o'zbek bolalarining taqdiri va ularga qaysi yo'l bilan yordam berish haqida o'ylar edi.

Hamzaning pedagogik faoliyati 1910 yillardan boshlanadi. U 1911 yili Qo'qonning Hojibek guzarida kambag'al bolalari uchun maktab ochadi. Qisqa vaqt ichida Hamza maktabining shuhrati ortadi. Hamza maktabining shuxrat qozonish sabablaridan, uning maktabidagi o'qishyozish, geografiyaning o'qitilishi, umuman, dars berishda o'qitishning yangicha usullaridan foydalanishi edi. Hamzaning 1914 yilda ochgan ikkinchi maktabida ham geografiya o'qitiladi. Hamzaning maktabi o'z oldiga qo'ygan maqsadi, mashg'ulotlarning sinf dars sistemasi asosida o'z ona tilida bo'lishi va unda dunyoviy fanlar (tabiiyot, geografiya, tarix)ning o'qitilishi bilan eski maktablardan butunlay farq qilar edi.

1915 yilda H. H. Niyoziy Marg'ilon shahriga borib, u erda ham kambag'al bolalar maktabini ochishga kirishadi. Birok; bu erda maktab ochish uchun Farg'ona gubernatori ruxsat bermaydi. Keyinchalik esa unga geografiya, tarix va tabiiyot fanlariki o'qitmaslik sharti bilan maktab ochishga ruxsat bergan. SHunda Hamza: «Javob beribdilar bo'пти, tabiiyot, jugrofiya va tarixsiz maktab maktab bo'ladimi», degan edi.

Bu so'zlardan maktabda geografiya o'qitilishiga juda katta e'tibor berganligi ko'rinib turibdi. Hamza ochgan maktablarning hammasida geografiya o'qitilgan. Bu davrda Rossiyada xam geografiyani o'qitish yaxshilana boshlagan edi. Bu hol O'zbekiston territoriyasidagi maktablarda geografiya o'qitilishiga, jumladan, Hamza maktablarida o'qitilayotgan geografiyaning mazmuniga ma'lum darajada ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Hamza maktablarida o'qitiladigan geografiyaning mazmuni Rossiya maktablarida o'qitiladigan geografiya mazmuniga ancha yaqin kelardi, ya'ni dastlab tabiiy geografiyaga oid elementar ma'lumotlar berilib, keyin qit'alar va undagi davlatlar, so'ngra Rossiya va Turkiston geografiyasi o'rgatilar edi.

Hamza geografiya darslarida o'z saxatlari (Afg'oniston, Hindiston, Arabiston va Turkiyada, Rossiyaning ba'zi shaharlarida bo'lgan) taassurotlaridan keng foydalangan. Uning o'quvchilari geografiyadan alohida daftar tutishgan. 20yillarning oxiriga kelib, o'zbek maktablarida dars berish uchun etarli tayyorgarlikka ega bo'lgan dastlabki geografiya o'qituvchilari etishib chiqq boshladi. 1926 yildan boshlab N. Ibodov (hozir iqtisod fanlari kandidati, dosent), G'. Nazarov, 1928 yildan boshlab I. Mirzaboev, A. Axrorov kabilar geografiyadan dars bera boshlaganlar. Bular o'zbek sovet maktab geografiya o'qituvchilari armiyasining bayroqdorlari bo'lganlar.

Geografiya ta'limi ilmiy-tadqiqot usullari.

Reja:

1.Eksperimetn.

2.Ilmiy-tadqiqot.

O'quvchilar bilan olib boriladigan suhbatlar. Bu metod yangi dastur, darslik, o'quv qo'llanmalari tajribada sinab ko'rilayotganda ayniqsa katta ahamiyatga ega. Uqituvchi o'zining pedagogik faoliyati davomida ko'plab faktik material to'playdi. Bu material suhbat davomida to'plana boradi. Suhbatning samarali bo'lishi o'ylab tuzilgan savollar sistemasiga bog'liq. Uqituvchining savollarga bergan javobi tadqiqotchi tomonidan yozib boriladi.

Ko'pchilik geografiya o'qituvchilarining fikr mulohazalariga ehtiyoj tug'lsa, savoljavob anketa formasida to'planadi.

O'quvchilarning geografik adabiyotlarga bo'lgan qiziqishini aniqlashda kutubxonachi, etakchi, shuningdek, ota-onalar bilan o'tkaziladigan suhbatlar ham manba bo'lib xizmat qiladi.

Eksperimentlar o'tkazish geografiya ta'limi metodikasining eng asosin tadqiqot metodidir. Eksperimentlar maktablarda munozarali masalalarni hal etish hamda geografiya ta'limining samarali metod va usullari haqida xolis xulosa chiqarish maqsadida o'tkaziladi. Pedagogik eksperiment tadqiqotchi ilgari surgan gipoteza va ilmiy farazning to'g'rinoto'g'riligini aniqlash maqsadida o'tkaziladigan ta'limiy tajribadir. Eksperiment ta'lim turlarini turli sharoitda batafsil o'rganish, eng aniq va zarur faktlarni yig'ish va dalillarga asoslangan ilmiy xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi,

Geografiya metodikasidagi eksperiment ikki xil bo'lishi mumkin: oddiy (tabiiy) va laboratoriya eksperimenti. Oddiy (tabiiy) eksperiment butun sinf bilan, oldindan ishlab chiqilgan ilmiy ko'rsatmalar asosida o'tkaziladi. Ilmiy ko'rsatmalar, odatda, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar doirasini belgilashdan, bu bilim va ko'nikmalarning puxtaroq o'zlashtirilishini ta'minlovchi ta'lim metodlari va shakllarini aniqlash kabi masalalardan iborat.

Eksperiment o'tkazish uchun ikkita sinf: eksperimental (eksperiment o'tkaziladigan) va kontrol sinf olinadi. Bu sinflar o'quvchilar soni, ularning tayyorgarliklari va bilim darajasi jixatidan bir xil bo'lgani ma'qul.

Eksperimental sinfdagi mashg'ulotlar tadqiqotchi tomonidan ishlangan metodika asosida olib boriladi. Qontrol sinfdagi mashg'ulotlar esa odatdagicha o'tkaziladi. Eksperiment tugagach, har ikkala sinfdagi bir xil kontrol ish olinib, natijasi takkoslanadi. Natija ishonchli bo'lishi uchun metodik eksperiment bir necha marta o'tkaziladi. Oddiy (tabiiy) eksperiment laboratoriya tarzidagi eksperiment bilan birga qo'shib olib borilsa, yanada aniq va mukammal natija beradi.

Laboratoriya eksperimenti o'quv ish usullari (turli asboblardan foydalanish, kartani o'qish usullari)ning o'zlashtirish xususiyatlarini o'rganishda, shuningdek, yangi ko'rsatmali o'quv qo'llanmalarini sinab ko'rishda tatbiq etilishi mumkin.

Laboratoriya eksperimenti bir yoki bir necha o'quvchi bilan o'tkaziladi. Har ikkala xolda ham saviyasi va o'zlashtirishi turlicha bo'lgan o'quvchilar ajratib olinadi. Eksperimentning har ikkala turida ham o'quvchilar psixologiyasini yaxshi bilish talab etiladi.

Geografiya o'qitishning barcha tadqiqot metodlari yordamida to'plangan materiallar har tomonlama chuqur tahlil qilinadi va muayyan bir tartibga solinadi, keyin esa tegishli xulosalar chiqariladi. Eksperiment natijalari geografiya ta'limi metodikasi fanining ilmiy salmog'ini va ayrim geografiya o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirishda katta ahamiyatga ega. Eksperiment natijasida vujudga kelgan xulosalar geografiya ta'limi metodikasining takomillashuviga imkon beradi.

Uqituvchi bo'lishni istagan har bir kishi o'qitish, ya'ni ta'lim berish faoliyati juda murakkab va mas'uliyatli kasb ekanligini anglab olishi zarur. Uqituvchilik kasbi jiddiy tayyorgarlik ko'rishni talab etadi. Uqituvchi zimmasiga xayot zxtiyojlariga to'la javob beradigan va o'z zamoniga munosib kishilarni tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifa yuklatilgan.

Metodika o'qituvchiga o'z ishinin mohiyatini tushunib olishga, uning murakkabligini payqashga va bu ish uchun jamiyat oldidagi mas'uliyatni sezishga yordam beradi. Metodikadan

yaxshi xabardor o'qituvchi o'z ishiga tanqidni qaray oladi, erishgan yutuqlarini xisobga olib, undan xulosa chiqarib boradi, tajriba to'playdi va ayni vaqtda, o'z ishidagi kamchiliklarni payqab olib, uni tugatib boradi. Uqituvchi talabga javob beradigan darajada ta'lim-tarbiya berishi uchun avvalo metodologiya bilan qurollangan bo'lishi lozim.

Geografiya o'qituvchisi o'z fanini sevishi va puxta bilishi, tabiat va jamiyat qonuniyatlarini o'quvchilar ongiga singdira borishiga erishmog'i lozim. O'quvchilar o'z fanini yaxshi bilgan, darsni yuksak mahorat bilan o'tadigan tadbirkor o'qituvchilarga ixlos qo'yadilar. Uz fanini, ishini yaxshi bilmagan, kasbini sevmagan o'qituvchi hech qachon o'quvchilar e'tiborini qozona olmaydi.

Geografiya o'qituvchisi bolalar psixologiyasini hisobga ola bilishi, pedagogika qonuniyatlarini tushunib etishi, ta'lim tarbiyaning samarali metod va usullaridan foydalana olishi lozim. O'quvchilar turli amaliy ko'nikmalar olishi kerak. Uquvchilarga plan olish, kuzatish, turli sxema va chizmalar chiza olish, turli xil o'quv qurollarini yasay olish va ulardan foydalanish kabi ko'nikmalarni singdira borish talab etiladi.

Uqituvchi ta'lim prosessida: darsda o'rganiladigan bilimlardan ko'zda tutilgan maqsadni o'quvchilarga ko'rsatib borishi, o'quvchilar faoliyatini oshirishga, ularni mustaqillikka o'rgatishga mos keladigan o'qitish usullarini tatbiq etishi, nihoyat, o'quvchilarni ongli intizomga o'rgata borishi lozim. Har qanday kasb kabi, o'qituvchilik kasbi ham qunt bilan ishlashni talab etadi.

Geografiya o'qituvchisi bilimini tinmay oshirishi, pedagogik mahoratini orttira borishi, ta'limni hozirgi zamon va xayot bilan bog'lab olib borishi lozim. Geografiya o'qituvchisidan o'z ilmiy va pedagogik saviyasini tinmay oshirish, chunonchi, geografiya, pedagogika, psixologiya va metodikaga oid yangiliklardan, «Maktabda geografiya», «Xalk ta'limi», shuningdek, «Fan va turmush», tegishli maqolalardan muntazam ravishda xabardor bo'lib borish talab etiladi.

Uqituvchi o'z fani va kasbiga astoydil ixlos qo'yishi, o'quvchilarini sevishi kerak. SHundagina u xaqiqiy o'qituvchi, o'z kasbini egallagan mohir pedagog bo'la oladi. Uqituvchi darsining samarali va qiziqarli bo'lishida nutq madaniyatining roli katta ekanligini aslo unutmasligi kerak.

Uqituvchi mehnatining asosiy samarasi — o'z mahoratini muntazam takomillashtirishga asoslangan ijodiy faoliyatidir. Fan asoslarini, maktab psixologiyasini va ta'lim metodlarini puxta egallagan o'qituvchigina o'z mahoratini oshirib bora oladi.

Uqituvchi vaktini ayamay, mo'ntazam ravishda ijodiy izlanishi, nimanidir topishi, to'plashi, umumlashtirishi, o'quvchilarga qandaydir yangilik berishi, talab etilgan zarur bilimni me'yorida o'rgatishi lozim.

Geografiya o'qituvchisi zinxor andaza bilan, bir qolipda ishlamasligi, muayyan ish usullariga qul bo'lib qolmasligi kerak. Hatto bir mavzuning o'zini ham har yili bir xil metod va usul bilan o'quvchiga o'rgatish maqsadga muvofiq emas. U har qancha mukammal ko'rinsada, tayyor xulosaga taqlid kilaverish yaxshi natija bermaydi. Uqituvchi o'zining har bir tadbirini pedagogika va metodikaning prinsipial qoidalari bilan asoslashi lozim. Uqituvchining ish sharoiti (xar bir sinf o'quvchilari xar xil, ularning xususiyatlari bir-iridan keskin farq qiladi) ham bir xil andaza bilan ishlashga imkon bermaydi.

Geografiya o'qituvchilari o'zlari ishlayotgan maktablarida ajoyib geografiya kabineti vujudga kelishini, zarur qo'llanmalar bilan ta'minlanishini qo'l qovushtirib kutmasligi kerak. Mehnatni to'g'ri, ilmiy asosda tashkil etishning asosiy vazifalaridan biri mavjud vositalardan unumli foydalanib, yuqori samaraga erishishdan iboratdir.

O'quv jarayonining tashkil etishni takomillashtirish qimmatli vaqtdan unumli foydalanishdir. Mehnatning to'g'ri tashkil etilmasligi (darsga kechikib kirish, o'quvchilarning darsga sust tayyorlanib kelishi, davomatni aiiqlash, kartaning o'z vaqtida osilmasligi, o'quvchi bilimini yukori ko'tarishga intilish) natijasida ba'zan bir necha minut vaqt bekorga sarf bo'lish hollariga yo'l qo'ymaslik kerak.

Xullas, geografiya ta'limi saviyasining yuqori bo'lishi ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning ta'limtarbiyadagi mahoratiga bog'liqdir.

Har bir o'qituvchi o'qituvchilik maxoratini chukur egallab olishi o'zining siyosiy va ilmiy bilimlari zapasini sistemali ravishda to'ldira borishi, fan, texnika va madaniyat sohasidagi yangi

muvaffaqiyatlarning hammasidan xabardor bo'lib turishi lozim.

O'zbek maktab geografiyasining qaror topishi va taraqqiyotida O'zbekiston Xalqi 1934 yil 16 mayda chiqqan «Boshlang'ich va o'rta maktabda geografiya o'qitilishi to'g'risida» degan qarori juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu qaror maktab geografiyasida tabiiy geografiyaning huquqlarini tikladi, buning natijasida dasturlarda tabiiy geografiya materiallari hajmi birmuncha kengaydi. Bu qarorda shunday deyilgan: «Boshlang'ich va o'rta maktablarda geografiya o'qitishda anchagina kamchiliklar bor, bulardan eng yiriklari darsning umumiy so'zlar va quruq gaplar bilan olib borilishi, tabiiy geografiyaga oid materiallarning kamligi, kartani yaxshi bilmaslik, geografiya o'qitish va geografiya darsliklarida statistik iqtisodiy materiallar va umumiy sxemalarning xaddan tashqari ko'pligidir, bular natijasida maktabni tamomlagan o'quvchilar ko'pincha elementar geografik bilimlarga ega bo'lolmaydilar».

Qarorda geografiyani qanday o'qitish zarurligi to'g'risida o'rta maktabning har qaysi sinfi uchun ayrimayrim aniq ko'rsatmalar berildi:

«Boshlang'ich maktabda (III va IV sinflarda) geografiya o'qitishda asosiy geografik nomlar (mamlakatlar, daryolar, dengizlar, tog'lar, shaharlar va shu kabilar)ning o'quvchilar yodida mustahkam saqlanib qolishiga va o'quvchilarning geografik kartani dasturda belgilangan hajmda yaxshi bilib olishlariga muvaffaq bo'lsin. O'rta maktab geografiya ta'limiga quyidagi o'zgarishlar kiritilsin: a) V sinf dastursi tabiiy geografiya bilan cheklansin va dasturning belgilangan hajmi saqlansin, lekin dasturning mundariyasi V sinf o'quvchilarining shlariga muvofiq ravishda osonlashtirilsin; b) VI sinf dastursida asosiy diqqat qit'alarining (Evropa, Osiyo, Amerika, Afrika, Avstraliya) tabiiy geografik obzoriga qaratilsin, har bir qit'adagi eng muhim davlatlar to'g'risida qo'shimcha ravishda asosiy ma'lumotlar berilgan. Uqitish materiallari shu sinf o'quvchilarining eshlarga muvofiq ravishda kisqartirilsin va soddalashtirildi. v) VII sinf dastursida O'zbekistonning umumiy tabiiy geografik obzori qoldirilsin va hajmi ancha oshirilsin, dasturning o'qish materiali juda osonlashtirilsin, iqtisodiy va statistika tafsilotlari olib tashlanib, O'zbekistonning respublika, o'lka va oblastlar bo'yicha obzori kiritilsin va shu bilan birga bu obzorlar har bir respublika, o'lka va oblastning geografik (daryolar, ko'llar, dengizlar, iqlim, o'simlik va hayvonot dunyosining, eng yirik shaharlar aholisining, temir yo'llar, tosh yo'llar va boshqalarning) ta'rifi kiritilsin.

1934 yil 16 may qarori ta'limtarbiyada geografiya naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib berdi. Bu qaror asosida o'zbek maktab geografiyasi ham tubdan qayta tashkil etildi. O'zbek maktab geografiyasi ta'limidagi noaniqliklarga barxam berildi.

Bu qarorga asosan o'zbek maktablarida geografiya kurslari III sinfdan IX sinfgacha o'rganiladigan bo'ldi. Geografiyadan haftalik dars 15 soatga etdi. SHu davrgacha geografiyaga bunchalik ko'p soat ajratilmagan edi.

Geografiya kurslari quyidagicha taqsimlangan:

II sinf — umumiy tabiiy geografiyadan boshlang'ich ma'lumotlar — haftada 2 soat.

IV sinf — O'zbekiston geografiyasi (obzor tarzida) — haftada 2 soat.

V sinf — tabiiy geografiya kursi — haftada 2 soat.

VI sinf qit'alar tabiiy geografiyasi va zng muhim davlatlarning tabiiy geografik obzori — haftada 2 soat.

VII sinf — O'zbekiston tabiiy geografiyasi (umumiy tabiiy geografik va rayonlar obzori) — haftada 2 soat.

VIII sinf — O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi — haftada 2 soat.

IX sinf — Jahon mamlakatlari iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi — haftada 2 soat.

Maktab geografiya kurslari asosan 3 davraga to'plandi: Birinchi davra — I-III sinflarda tabiatshunoslik geografiya.

Ikkinchi davra — V, VI va VII sinflardagi tabiiy geografiya.

Uchinchi davra — VIII va IX sinflardagi iqtisodiy geografiya.

Usha davrdagi o'quvchilarning bir qismi umumiy ta'limni etti yillik maktabni bitirish bilan

tugallashlarini nazarda tutib, VI va VII sinflardagi geografiya kurslariga iqtisodiy geografik ma'lumotlar ham kiritilgan edi.

Bu bosqichda maktab tabiiy geografiya ta'limi metodikasining asosiy yo'nalishi quyidagilardan iborat edi; barcha geografiya kursida kartani o'rganishga ko'proq e'tibor berish; geografiya o'qitishda faktik materiallarga asoslanmagan quruq sxemalarga suyanmay, aniq bilimlarga e'tiborni kuchaytirish; ko'rsatmali qo'llanmalardan va ekskursiyalardan ko'proq foydalanish. SHunday qilib, o'zbek maktablarida tabiiy geografiya ta'limi muayyan sistemaga tushdi va takomillashdi, Rosiya dastursi asosida yangi izchil va sistemali dasturlar ishlab chiqildi. 1934 yil 16 may qaroriga asoslangan holda o'zbek maktablarida o'qitiladigan geografiya kurslarining mazmuni quyidagicha bo'ldi:

V sinf faqat tabiiy geografiya kursidan iborat bo'ldi. Bu sinf o'quvchilarining tabiiy geografiya kursida tabiat hodisalarini tasvirlashlariga alohida e'tibor berilgan. Kartani bilish o'z joyining ko'rinishini, uning planini o'rganishdan boshlanishi nazarda tutilgan. Bu kursda o'quvchilar Erning ichki kuchlari (vulkan, zilzila, tog' paydo bo'lish, quruqlikning asriy tebranishlari va tashqi kuchlari), nurash, shamolning ishi, suv va muzlarning ishini, atmosfera temasida «izoterma», «musson», «siklon va antisiklon»larni, shuningdek tuproq, o'simlik va hayvonot zonasini va nihoyat, «aholi»ni ham o'rganishlari kerak edi. Qit'alar obzorp V sinf dastursidan olib tashlandi. VI sinfda faqat qit'alar geografiyasi o'rganiladigan bo'ldi. Dasturga qit'alar va eng muhim davlatlarning tabiiy geografik obzori kiritilgan. Garchi davlatlarning xo'jalik va siyosiy obzori o'rganilsada, kursning asosiy mundarijasi tabiiy geografiya edi. VII sinfda O'zbekistonning tabiiy geografik obzori qoldi, iqtisodiy va statistik ma'lumotlar kamaytirildi. VII sinf dastursi O'zbekistonning umumiy va rayonlar tabiiy geografik obzoridan iborat bo'lib, unda xo'jalikning qisqacha ta'rifi berilgan. Asosiy ma'lumot tabiiy sharoitga berilishi ko'zda tutilgan. O'zbekistonning rayonlar qismini o'rganishda mazkur rayonning tabiiy sharoitini va xo'jaligini, milliy-madaniy qurilishining yutuqlarini o'rganishga e'tibor berilgan.

VIII sinfda O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi o'rganiladigan bo'ldi. Bunda dastlab O'zbekistonning ishlab chiqarish kuchlari va xalq xo'jaligining ahvoli haqida ma'lumot berilib, so'ngra har bir iqtisodiy rayonga batafsil iqtisodiy geografik xarakteristika berish nazarda tutilgan. IX sinfda joxon mamlakatlar iqtisodiy geografiyasi o'rganiladigan bo'ldi. Kurslarning mazmuni maktab geografiasining qat'iy izga, muayyan tartibga tushganligidan dalolat berar edi. Bu sistema hozirgi kungacha o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Ulug' Vatan urushi o'zbek maktab geografiasini oldiga yangi vazifalar qo'ydi. Bu vaqtdagi o'quv-tarbiya ishlarida urush yillarining sharoiti va talabini hisobga olishga to'g'ri keldi.

Urush yillarida tuzilgan dasturda o'quvchilarni vatanparvarligi va fashizmga qarshi nafrat ruhida tarbiyalashga, tabiiy va sosial faktorlar o'rganilayotganda ularning harbiy-mudofaa ahamiyatiga alohida e'tibor berish kerakligi uqtirib o'tilgan.

O'quv qo'llanmalari. VKP (b) Markaziy Komiteti va O'zbekiston Xalqi 1934 yil 16 may qarori asosida vujudga kelgan umumittifoq darsliklarining o'zbekcha tarjimalari 1936 yildan nashr qilina boshlandi. CHunonchi, V sinf uchun A. S. Barkov va A. A. Polovinkinlarning «Tabiiy jug'rofiya», VI sinf uchun G. I. Ivanovning «Dunyo qit'alari jug'rofiyasi», VII sinf uchun N. N. Baranskiyning «O'zbekiston tabiiy jug'rofiyasi» (I qism, umumiy obzor) va S. V. CHefranovning «O'zbekiston tabiiy jug'rofiyasi» (II qism, rayonlar obzori), VIII sinf uchun N. N. Baranskiyning «O'zbekiston iqtisodiy geografiasini» va IX sinf uchun I. A. Vitvernning «Kapitalistik mamlakatlar iqtisodiy geografiasini» darsliklari nashr qilindi.

Bu darsliklar yangi dastur asosida yozildi va ular bir necha yil qaytaqayta nashr qilindi. Ammo RF uchun yozilgan darsliklar aynan tarjima qilinganligi sababli darslikdagi o'lka materiallari O'zbekiston sharoitiga to'g'ri kelmas edi.

1934 yil 16 may qarori ko'rsatmalariga ko'ra 1934 — 41 yillarda maktablar uchun geografiya o'quv kartalari va atlaslar nashr qilina boshlandi. Boshlang'ich va V — VI sinflar uchun geografiya atlaslari nashr etildi. Rus tilida nashr etilgan geografiya o'quv rasmlari o'zbek maktablariga etib keldi. O'zbek tilida geografiyaga doir yangi asarlar, ilmiy-ommabop kitoblar vujudga kela boshladi.

N. P. Arxangel'skiyning «Boshlang'ich maktablarda jug'rofiyadan ko'rsatmali qo'llanmalar»,

F. A. Ushinsovning «Geografiyadan metodik materiallar»i (1939 y.) ham o'z vaqtida ma'lum kimmatga ega bo'ldi.

30 yillarning ikkinchi yarmiga kelib geografik termin va nomlar bilan shug'ullanila boshlandi. 1935 yilda Odam Ibrohimovning «Geografiya atamallari» va 1940 yilda R. G'ofurov va N. G. Maliskiy tahririda, M. X. Bektemirov va S. Saidrasulovlarning «Qisqacha ruscha o'zbekcha geografiya terminlari lug'ati» nashr etildi.

Jurnal maktabda geografiya o'qitish sifatini yuqori ko'tarishda samarali yordam berdi. «Politehnika maktabi va pedagogika» jurnali 1937 yildan so'ng «xalk pedagogikasi» nomi bilan chiqa boshladi.

Kadrlar. geografiya fani va geografiya ta'limining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shganlardan biri N. N. Baranskiy edi.

Markaziy Komiteti va O'zbekiston Xalqning 1934 yil may qarori asosida geografiya ta'limi sistemasining tarkib topishida N. N. Baranskiyning ham munosib hissasi bor edi. U mualliflik qilgan «O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi» darsligi 20 yil mobaynida nashr etib turildi va O'ZBEKISTON Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.

N. N. Baranskiy — «Uqituvchi ta'lim jarayonida — markaziy figura» deb ta'kidlagan. Geografiya ta'limini takomillashtirishda N. N. Baranskiy, birinchi navbatda ko'rsatmalilik masalasini nazarda tutgan.

U kartografiyaning rivojlanishiga xam o'z xissasini qo'shgan. Uning ta'biricha: «Karta — geografiyaning ikkinchi tilidir», «Birgina karta bir necha varaq tekstning o'rniga o'tishi mumkin».

N. N. Baranskiy ittifoq miqyosida geografpedagoglar tayyorlash ishiga ulkan hissa qo'shgan olimdir.

Partiya va hukumatimizning maktabda geografiya o'qitish borasidagi talabi asosida oliy ma'lumotli geografiya o'qituvchilariga bo'lgan ehtiyoj yana oshdi. 30yillarning o'rtalarida Toshkent, Buxoro, Farg'ona, Samarqand shaharlarida pedagogika institutlari ochildi. Ulug' Vatan urushi yillarida Nukus va Urganch shaharlarida pedagogika institutlari ochildi. Qeyinroq Andijon va Qo'qondagi o'qituvchilar instituti pedagogika institutlarga aylantirildi. O'zbekistondagi pedagogika institutlaridan Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika institutining kunduzgi va sirtqi bo'limlari, V. G. Belinskiy nomli Toshkent kechki pedagogika instituti, Farg'ona va Qoraqalpog'iston pedagogika institutlari, shuningdek, Lenin nomli O'rta Osiyo Davlat universiteti va Navoiy nomli O'zbekiston Davlat universitetining geografiya fakultetlari yuqori ixtisosli geografiya o'qituvchilari tayyorlab bera boshladilar.

Umumiy etti yillik majburiy ta'limga o'tish munosabati bilan maktablarning V VII sinflari uchun qisqa muddatda ko'plab o'qituvchi kadrlar tayyorlash zarurati tug'ildi. Respublikamizdagi oliy pedagogika o'quv yurtlari qisqa muddatda o'qituvchilar tayyorlashga ulgurmas edilar. SHuning uchun o'qituvchilar institutlari tashkil etildi. Respublikada birinchi o'qituvchilar instituti 1934 yilda Farg'ona pedagogika instituti qoshida ochildi. 1943 yilga kelib yana 9 ta o'qituvchilar instituti (bitta Qoraqalpog'istonda) ochildi. Uqituvchilar institutlarida geografiya o'qituvchilarini tayyorlovchi fakultet (bo'lim)lar ham bo'lgan. Ular V — VII sinflar uchun geografiya o'qituvchilari tayyorlashda katta xizmat qildilar.

Maktablar talabining tobora o'sib borishi munosabati bilan o'qituvchi kadrlar malakasini planli va sistemali ravishda oshirib borish ehtiyoji vujudga kelganligidan respublikamizda o'qituvchilar malakasini oshirish institutlari barpo etildi. Toshkentdagi Xalq Maorifi rahbar xodimlarining malakasini oshirish markaziy instituti 1938 yilda Respublika o'qituvchilar malakasini oshirish institutiga aylantirildi. Qeyinchalik Toshkent shahrida va oblast markazlarida oblast o'qituvchilar malakasini oshirish institutlari tashkil etildi. Malaka oshirish institutlarining geografiya yoki tarixgeografiya kabinetlari geograflarning malakasini oshirishda muhim rol o'ynadi. Bu davrda geografiya ancha rivojlandi, ko'plab mahalliy kadrlar etishib chikdi.

Geograflardan Abdulla Obizov, M. H. Bektemirov, S. M. Saidrasulov va J Baxtiyorovlarning geografiya o'qituvchilari tayyorlashdagi xizmatini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Partiya va hukumatimizning 30yillarning boshida maktab haqida chiqargan qarorlaridan keyin maktablarda o'z o'lkasi geografiyasini o'rganishga katta e'tibor berila boshlandi.,

A. Obizovning 1934 yilda «O'zbekiston Jumhuriyati jug'rofiyasi» (7sinf uchun) o'qish kitobining nashr etilishi o'zbek maktab geografiyasi tarixida katta voqea bo'ldi.

A. Obizov geografik termin va nomlarning to'g'ri yozilishi va tartibga tushishiga e'tibor bergan. Uz tajribasi va maslahatlari bilan maktab geografiya o'qituvchilariga bevosita metodik yordam berib kelgan.

Geografiya ta'limining hayot bilan bog'lanishi

Ulug' Vatan urushidan so'ng urush oqibatlarini tugatish, xalq xo'jaligini tiklash va yanada rivojlantirish davri boshlangan bir paytda sovet maktabi oldida umumiy, o'rta va politexnika ta'limga o'tish vazifasi turar, bu esa o'quv plani va dasturlarni yangi talablarga muvofiqlashtirishni taqozo qilar edi. Yangi tuzilgan o'quv planining ilgarigidan farki shundaki, unga ishlab chiqarish asoslari va maxsus amaliy mashg'ulot kurslari kiritildi. O'rta maktabda yangi o'quv predmetlari va amaliy mashg'ulotlarning kiritilishi geografiya o'quv materiallarining ham o'zgarishiga olib keldi. 1934 yilda qabul qilingan geografiya dasturlari bir oz qisqartirildi va soddalashtirildi. Qiyin tushunchalar va ortiqcha geografik nomlarni chiqarib tashlash, qit'alar geografiyasi kursidagi va O'zbekiston rayonlarini maydalab o'rganishni kamaytirish hisobiga dasturlar qisqartirildi,

Boshlang'ich maktab geografiya kursidagi muhim o'zgarish III sinf o'quv planidan geografiyani chiqarib tashlash va izohli o'qish darslarida elementar geografik ma'lumotlar berib borishdan iborat bo'ldi.

Bu vaqtda O'zbekiston maktab dasturlarida «O'zbekiston geografiyasi» kursidagi «O'rta Osiyo» temasiga ko'proq soat berildi. Maktab oldiga qo'yilgan yangi vazifalarni hisobga olgan holda, geografiya dastursida quyidagilarga alohida e'tibor berildi.

Barcha sinflarda kartani o'qiy olishga qaratilgan amaliy ishlar.

V — VII sinflarda obhavoni muntazam ravishda kuzatish.

V — VII sinflarda topografiya masalalariga e'tibor kuchaytirilgan, joyda turli xil topografik va o'lchov ishlari o'tkazish nazarda tutilgan.

V — VII sinflarda tabiatga uyushtiriladigan ekskursiya lar shart qilib qo'yilgan.

Uz o'lkasini o'rganishga e'tibor oshirildi. 1950 yilning ikkinchi yarmigacha bo'lgan dasturlarda o'quvchilarning oliy o'quv yurtiga kirishlari uchun zarur bo'lgan umumiy bilimlarni egallashlarigagina ko'proq e'tibor berib kelindi. Bu hol yoshlarni o'kitishda maktabni hayotdan bir oz ajralib qolishiga sabab bo'ladi. Maktabda yoshlarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilishga etarli e'tibor berilmadi.

Qonunda maktabning asosiy vazifasi o'quvchilarni hayotga va foydali mehnatga tayyorlash, umumiy va politexnika ta'limiga e'tiborni oshirish, fan asoslarini yaxshi biladigan, ma'lumotli kishilar etishtirish va yoshlarni kommunizm ruhida tarbiyalash masalalari ko'rsatilgan.

Geografiya o'qitishni turmush bilan bog'lab olib borishda tabiiy sharoitning xalq xo'jaligidagi ahamiyatiga katta e'tibor beriladi. kapitalistik mamlakatlardagi mehnat taqsimoti, O'zbekiston xalq xo'jaligining joylanishi va istiqbollarni o'rgatish ham ta'limni turmush bilan bog'lashning muhim yo'llaridan biridir. Uz o'lkasi geografiyasini o'rganish va o'z joyining kartasini chizish, obhavoni kuzatish, o'z joyidagi suvlar, foydali qazilmalar, o'simlik va hayvonot dunyosini o'rganish ham geografiyani turmush bilan bog'lab o'qitishda katta ahamiyatga ega. Maktab geografiyasining yangi o'quv plani va yangi dastursi yangi vazifalar bilan bog'liq holda ishlab chiqildi. Bunda geografiya kurslari quyidagicha taqsimlangan:

V sinfda — tabiiy geografiya boshlang'ich kursi — haftada 2 soat.

VI sinfda dunyo qit'alari geografiyasi — haftada 2 soat.

VII sinfnng birinchi yarmida — dunyo qit'alari geografiyasi — haftada 2 soat, ikkinchi yarmida — O'zbekiston geografiyasi — haftada 2 soat.

VIII sinfda O'zbekiston geografiyasi — haftada 2,5 soat. Maktabni turmush bilan bog'lash haqidagi qaror asosida taqsimlangan maktab geografiya kurslarida o'quvchilarning mustaqil va amaliy ishlariga ko'proq e'tibor beriladigan bo'ldi. Darsni turmush va ishlab chiqarish bilan bog'lab olib borish geografiya fani asoslarini o'rganishning va

ta'lim metodlarining negizi bo'la bordi.

Ammo bir geografiya kursining ikki sinfga (dunyo qit'alari geografiyasini VI va VII sinflarda, O'zbekiston geografiyasini VII va VIII sinflarda) bo'lib o'qitilishi bilimlarni tugallashda, darslik va atlslardan foydalanishda noqulaylik tug'dirdi. O'zbekiston tabiiy geografiyasi bilan O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi kurslarining ketmaket o'rganilmasligi o'z Vatani haqida bir butun geografik ma'lumot olish imkoniyatini bermasdi. Boshqa o'quv fanlarida ham ma'lum darajada shunga o'xshash holatlar sodir bo'ldi. SHundan keyin Markaziy Qomitet va O'ZBEKISTON sobik Ministrlar Soveti 1964 yilda «Ishlab chiqarish ta'limi joriy qilingan o'rta umumiy ta'lim mehnat politexnika maktablarida o'qish muddatini o'zgartirish to'g'risida» qaror qabul qildilar. Bu qarorga binoan ishlab chiqarish ta'limi joriy qilingan o'rta umumiy ta'lim mehnat politexnika maktablarida sakkiz yillik belgilandi, ya'ni o'rta ta'lim maktablarida o'qish muddati maktab bazasida uch yil o'rniga ikki yillik o'qish muddati yana 10 yil bo'ldi. Bu qarorga asosan 1964—65 o'quv yilidan boshlab maktabda geografiya kurslari yana o'zgardi. VIII sinfda O'zbekiston tabiiy geografiyasi bilan birga O'zbekistonning iqtisodiy geografik obzori o'rganiladigan bo'ldi.

Bu bosqichda o'z o'lkasini o'rganish uchun O'zbekiston geografiyasidan bir oz vaqt ajratiladi. «O'zbekiston geografiyasi» kursida «O'zbekiston» ni o'rganish uchun 1947—48 o'quv yilida ajratilgan soatlar miqdori keyingi o'quv yillarida quyidagicha o'zgarib keldi (2jadval).

O'zbek maktablarida 1950 yilning oxiri va 1960 yilning boshlarida geografiya o'qitishning samarali usullaridan ijodiy foydalana boshlandi. Darslarda o'quvchilarning mustaqil ishi va ularning faoliyatini oshirishga karatilgan, ko'rsatmalilik bilan bog'liq bo'lgan bir qancha tadbirlar amalga oshirila bordi. 1965 yilda O'zbekistonda birinchi marotaba geografiya olimpiadasi o'tkazildi.

Biroq mazkur dasturlarga ko'ra quyi sinflarda o'rganiladigan ma'lumotlar mazmuni yuqori sinflarda qaytariladi, o'quvchilar geografik qonuniyatlar va hodisalarning birbiriga bog'liqligini tugal tushuna olmas edilar. Geografiya fani erishgan yutuqlar va maktab geografiyasi o'rtasidagi uzilish astasekin ortib bordi. O'quvchilarga hozirgi zamon geografiya fanining nazariy asoslarini uqtirish, uning tadqiqot metodlari haqida tushuncha berish zaruriyati tug'ildi.

O'quv qo'llanmalari. O'zbek maktab geografiyasi dastursida o'zgarishlar ro'y berishi munosabati bilan geografiya darsliklari ham o'zgarib bordi.

50 yillarning o'rtalarigacha V — VII sinf uchun quyidagi darsliklar qo'llanilgan: V sinfda A. V. Barkov va A. S. Polovinkin — Tabiiy geografiya.

VI sinfda G. I. Ivanov va A. S. Dobrov — Qit'alar geografiyasi.

VII sinfda S. V. CHEfranov — O'zbekiston geografiyasi.
50yillarning oxiri va 60yillarning boshlarida ta'lim

ni turmush bilan bog'lab olib borish ko'zda tutilgan dasturlar asosida: I. I. Zaslavskiy, T. P. Terexova — Tabiiy geografiya, V sinf uchun; N. N. Schastnev, P. G. Terexova — Dunyo qit'alari geografiyasi — avval VI sinf, keyin VI va VII sinflar uchun; K. F. Stroev — O'zbekiston geografiyasi, avval VII sinf, keyinchalik VII — VIII sinflar uchun darsliklar yaratildi.

Bulardan tashkari, N. Dolimovning «O'zbekiston geografiyasi» qo'llanmasi nashr etildi.

Geodeziya va kartografiya Bosh Boshqarmasi tomonidan nashr etilgan maktab geografiya atlslari:

IV sinflar uchun «Boshlang'ich maktab geografiyasi atlas».

V sinflar uchun «Geografiya atlas».

VI, VII sinflar uchun «Dunyo qit'alari va eng muhim davlatlar atlas».

VII va VIII sinf uchun «O'zbekiston atlas».

Maktabda geografiya o'qitishga doir ayrim metodik qo'llanmalar N. F. Kurazovning «Geografiya o'qitish metodikasi» 1952 yilda, V. P. Budanovning «Tabiiy geografiya o'qitish metodikasi» 1950 yilda, A. V. Darinskiyning «Geografiya o'qitish metodikasi» 1964 yilda o'zbek tiliga tarjima qilindi. Bulardan tashqari, ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalariga asoslangan metodik ko'rsatmalar ham bosilib chiqa boshladi.

1951 yildan boshlab nashr etilgan sobik «Sovet maktabi» jurnali xalq maorifining rivojlanishiga katta yordam berib kelmoqda. Xalq maorifi xodimlari olimlar, ilmiy xodimlar

ta'limtarbiya ishlarini yaxshilash sohasida tegishli maslahatlar berib kelmoqda.

Qadrlar. Maktab geografiyasining taraqqiyoti ko'plab geografiya o'qituvchilari tayyorlash hamda ularning malakasini oshirib borishini taqozo qiladi.

Respublikadagi ko'pgina pedagogika institutlari ham geografiya o'qituvchilari etishtirib bermoqda.

Respublikadagi dastlabki malaka oshirish instituti «Xalk maorifi rahbar xodimlarining malakasini oshirish markaziy instituti»dir. 1938 yildan keyin bu institut «Respublika o'qituvchilar malakasini oshirish instituti»ga aylandi, bu institut huzurida «Geografiya kafedrası» ham bo'lgan; 1965 yildan boshlab bu institut «Uqituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash Markaziy instituti» nomi bilan yuritila boshladi va institutning strukturasi o'zgardi.

Toshkent shahrnda va respublikamizning har bir oblaeti markazida o'qituvchilar malakasini oshirish institutlari tashkil ztildi. Bu institutlar geografiya o'qituvchilari malakasini oshirishda muhim ahamiyatga egadir.

O'zbek maktab geografiyasini takomillashtirishda, o'qituvchi kadrlar etishtirishda, geografiyadan metodik qo'llanmalar yaratishda, geografik termin va nomlarni tartibga tushirishda N. P. Arxangel'skiy, A. Obizov, S. Saidrasulov, 3. M. Akramov, H. Hasaiovlar munosib hissa qo'shdilar.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi, pedagogika fanlari kandidati N. P. Arxangel'skiy 1921—24 yillarda O'rta Osiyo tillarida tuzilgan boshlang'ich maktab darsliklari avtorlariga maslahatlar berib turdi. N. P. Arxangel'skiy O'zbekiston Xalq Maorifi Komissarligining topshirig'iga muvofiq G. I. Ivanovning «Boshlang'ich jug'rofiya» darsligini qayta ishlab chiqdi. U «o'zbek maktablari uchun darslik va o'quv qo'llanmalari tuzishning eng yaxshi yo'li — lokallashtirish», — degan edi. N. P. Arxangel'skiy didaktikaning yaqindan uzoqqa degan prinsipi asosida tabiat zonalarini O'zbekiston joylashgan zonadan o'rgana boshlash tarafdori bo'lib keldi. U geografiya darslarida ko'rgazmalilikka, texnika vositalaridan foydalanish va geografiya daftarlariga katta ahamiyat bergan. Darsda o'tgan temani so'rash uchun vaqtni tejash, yangi materialni o'rganish uchun esa etarli vaqt ajratish tarafdori bo'lib keldi, u — «darsdagi asosiy vazifa o'quvchilarga yangi bilim va ko'nikmalar berishdan iboratdir» — degan edi.

Professor A. I. Solov'yov yuqori malakali kadrlar tayyorlashga katta hissa qo'shdi. H. Hasanov, I. Inog'amov, O. Mo'mi, nov, M. Nabixonov, M. Asomov va X. Ubaydullaev kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlariga u rahnamolik qilgan.

A. I. Solov'yov tadqiqotchining iste'dodini anglab, uni qo'llabquvvatlar va rivojlantira olar edi. Izlanuvchining ilmiy qarashlarini shakllanishiga va imkoniyatlarini ro'yobga chiqishiga yordam bergan.

U haqiqiy mehribon murabbiy, sobik sovet maktab geografiyasining takomillashuviga munosib hissa qo'shgan etakchi olim edi.

Umuman olganda, maktab geografiyasining xozirgi bosqichida, geografiya ta'limining nazariy va amaliy masalalari bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar safi tobora kengayib bormoqda. Maktab geografiya o'qituvchilari ham olimlar bilan bir qatorda ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullana boshladilar.

Geografiya ta'limiga doir tadqiqotlarni jadal davom ettirish, erishilgan yutuqlarni keng ommalashtirish, bo'lajak o'qituvchilar — studentlarni metodik jihatdan yuqori saviyada tayyorlash, metodika kurslarining dasturlarini takomillashtira borish hamisha shu kunning muhim va mas'uliyatli vazpfalaridan hisoblanadi.

Geografiya o'qitishda ta'lim-tarbiyaning birligi.

Reja:

1.Maktab geografiyasining ta'limiy ahamiyati.

2.Maktab geografiyasining tarbiyaviy ahamiyati.

Keng avj oldirilgan hozirgi sharoitda o'z g'oyaviy va ma'naviy fazilatlari, bilim darajasi, mshshatsevarligi bilan kekxa avlod ishini muvaffaqiyatli davom ettiradigan, o'z Vatani va xalqiga

sadoqat bilan xizmat qiladigan kishilarni tarbiyalashda maktab, jumladan, maktab geografiyasi muhim rol o'ynaydi. Geografik bilimlar o'zbek xalqi madaniyatining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Bu bilimlar o'zbek xalqining ilmiy va madaniy darajasini ko'taribgina qolmay, O'zbekiston xalq xo'jaligining rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatib keldi.

Geografiya ta'limi geografik materiallar asosida har tomonlama rivojlangan kishilarni faol quruvchilarini tayyorlashni ko'zda tutadi. Geografiyadan beriladigan bilimlar tarbiya berish bilan birga qo'shib olib boriladi.

Maktab geografiyasining ta'limiy ahamiyati

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga tabiat va jamiyat haqida bilim beriladi; bilim ob'ektiv dunyoning rivojlanish qonuniyatlarini tushunib olishga imkon beradi. Olingan bilimlar asosida o'quvchilarda dialektikmaterialistik dunyoqarash shakllanadi, tafakkur va bilish qobiliyatlari rivojlanadi. Bu ta'lim vazifalarining katta ulushi maktab geografiyasi zimmasiga tushadi.

Maktab geografiyasi o'quvchilarni tabiatning asosiy komponent (tarkibiy qism) lari va tabiat kompleksi bilan tanishtiradi.

Maktabdagi geografiya kurslari o'quvchilarga sayyoramizning er yuzasi va uning shakllanish tarixi, iklimi, suvlari va er shari tabiat zonalari xamda tabiat resurslari haqida bilim beradi.

O'quvchilar maktab geografiyasini o'rganar ekanlar, o'zlari xali bilib ulgurmagan hodisalar bilan tanishadilar va ularning mohiyatini tushunib etadilar. Fanni o'rganish o'quvchilarni hayotni anglab olishlariga imkon beradi, tabiat qonuniyatlarini bilib olishga havas uyg'otadi. Maktab geografiyasining ta'limiy vazifasi umumiy ta'limning tarkibiy qismi bo'lgan geografiya fani asoslarini o'quvchilar puxta egallab olishlarini ta'minlashdan, o'quvchilarni hayotda zarur bo'lgan va bevosita tatbiq eta oladigan zarur ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iboratdir. Geografiya ta'limi o'quvchilarga quyidagilarni singdirishni taqozo etadi.

Birinchidan, o'rganiladigai geografik ob'ekt puxta o'zlashtirilishi kerak, buning uchun o'quvchilar «Qaerda?», «Nima?», «Asli o'zi qanday?», «Qartada qanday berilgan?» degan savollarga aniq javob bera olsinlar. Binobarin, maktabda o'rganiladigan barcha geografiya kurslarida karta bilan muntazam ravishda mashq qilib borish kerak bo'ladi.

Ikkinchidan, dasturda ko'rsatilgan geografik ob'ektlarni mumkin kadar bevosita kuzatish, kuzatish imkoniyati bo'lmagan taqdirda uning joylanish xususiyatini kartadan aniqqlash lozim. Joyda kuzatish ishlarini olib borish katta ahamiyatga ega. Kuzatish aniq tasavvur, ongli tushunchalarni shakllantirishga imkon beradi. Kuzatish imkoniyati bo'lmagan geografik ob'ektlar haqida aniq tasavvurga ega bo'lish uchun kartani qunt bilan o'rganish, uni maktab yaqinidagi o'xshash ob'ektlar bilan taqqoslash, turli rasmlar bilan ishlash lozim bo'ladi.

Uchinchidan, o'quvchilarni geografik hodisalarni kuzatish bilan ular qaysi sabablarga ko'ra birbiriga bog'liqligi va birbirini taqozo etishini aniqlab, «Qanday qilib?», «Nima uchun shu erda joylashgan?» degan savolga javob bera olishga o'rgatish kerak.

Maktab geografiya ta'limining eng asosiy va muqim joyi o'quvchilar geografik ob'ektlar o'rtasidagi aloqa va bog'liqlik qonuniyatlarini aniqlay olishlaridadir. Geografiya o'qitishning bunday qo'yilishi o'quvchilarni geografik mazmundagi faktlar ustida o'ylashga va geografik muhokamaga o'rgatadi. Bevosita kuzatish va kartalarni birbiriga solishtirish bilan «Qanday qilib?» va «Nima uchun?» degan savollarga javob berish mumkin.

To'rtinchidan, o'quvchilar kishilarning geografik ob'ekt va hodisalarni o'rganish natijasida ulardan xo'jalik faoliyatida, xususan, tabiat boyliklaridan xalqning moddiy farovonligini oshirish maqsadida foydalanishini va tabiatga planli ta'sir ko'rsatishni aniqlaydilar.

Maktab geografiyasi yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish bilan birga, o'quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi va ularning tafakkurlarining rivojlanishiga yordam beradi.

Geografiyani o'rganish geografik qonuniyatlarni ochib berish bilan qo'shib olib borilishi lozim. Geografik qobiqni va er sharidagi ayrim territorialarning geografik sharoitini o'rganish bilan o'quvchilar gidrosfera, atmosfera va litosferaning birbiriga aloqador ekanligi va birbiriga ta'sir ko'rsatishini bilib oladilar. SHuningdek, o'quvchilar geografik qobiqning muttasil harakatda, o'zgarishda ekanligini ham tushunib oladilar.

Geografiya kurslari tabiat bilan jamiyatning birbiriga ta'sir etish sharoitlarini: a) tabiiy sharoitni xalq xo'jaligining rivojlanishiga ta'siri; b) inson xo'jalik faoliyatining tabiatga ta'siri nuqtai nazaridan o'rganadi. Geografiya o'quv fanidan insonning tabiiy sharoitdan foydalanishi, ayni vaqtda tabiatga ta'sir ko'rsatishini, insonning tabiatga salbiy va ijobiy ta'sirlarini yoritib berish talab etiladi. O'zbekistonda tabiiy boyliklarni muhofaza qilishning mohiyatini ochib berish zarur.

Geografiya kurslarida geografik fakt va hodisalar bilan bevosita tanishish uchun kuzatish talab etiladi. Kuzatish tufayli o'quvchilar tabiatdagi turli xil proseslarni, insonning xo'jalik faoliyatini o'rganadilar, geografik hodisalar o'rtasidagi sababoqibatlarini bilib oladilar.

O'quvchilar dars prosesida umumiy va xususiy tushunchalarni o'rganish bilan ayrim hodisalarni tahlil qiladilar, ularni taqqoslab muhim belgilarini aniqlaydilar va xulosalar chiqaradilar. Turli mazmundagi kartalar bilan mustaqil ish olib borilganda esa o'quvchilar o'z fikrlarini isbot qilishga, to'g'ri xulosa chiqarishga o'rganadilar.

Geografiya ta'limida ilmiy dunyoqarash ma'naviy ahloqiy mehnat va estetik tarbiya

Geografik ma'lumotlar, yangi tushuncha va ifodalarni o'rganish bilan o'quvchilarning so'z boyligi ortib boradi, geografik ob'ekt va hodisalarni tasvirlashga o'rgana borib, ularning nutqi rivojlanadi. O'quvchilar geografik nomlar Osiyo xalqlari haqida gapirilganda ular o'rtasidagi hamkorlik, birodarlik, mehmondo'stlik, muhtojlarga yordam berish, tarbiyachilarning izzatini joyiga qo'yish kabi qadimiy an'analarni bolalar ongiga sindirish lozim. Bu an'analarning ko'pchiligi axloq tarbiyasiga mos kelganligi uchun xam katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Maktab geografiyasi o'quvchilarga estetik tarbiya berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Geografiya ta'limi o'quvchida tabiat manzarasiga va kishilar faoliyatiga chuqur hissiylik bilan karashga undaydi. Geografiya kurslarida tabiat manzaralari va unda sodir bo'ladigan hodisalarni hamda inson faoliyatini o'rganish bilan ularda estetik hissiylik tarbiyalanadi. O'quvchilarga estetik tarbiya berishda tabiatga ekskursiya uyushtirish, turistik yurishlar tashkil etish yaxshi yordam beradi. O'quvchilar tabiat manzaralaridan bahramand bo'ladilar, zavqlanadilar. Binobarin, tabiatdan bahramand bo'lgan kishi uni muhofaza qilishga intiladi.

Bulardan tashqari, badiiy adabiyotlardan, sovet, xususan, o'zbek yozuvchilari (Hamid Olimjon, Uyg'uk, Oybek, Mirtemir, Erkin Voxidov, Abdulla Oripov) asarlaridan foydalanish, parchalar o'qib berish, rassomlarning manzarali suratlaridan foydalanish — estetik tarbiyaning ajoyib vositalaridan hisoblanadi. Darsda turli fotosuratlardan, rangli suratlardan, deyafilem va kinofilmalardan foydalanish xam mazkur tarbiya vositalaridan biridir.

Geografiya ta'limi estetik did bilan berilishi lozim. Devoriy karta va suratlarining to'g'ri ilinishi, sinf doskasidagi tartibli chizma, chiroyli yozuv va saranjomlik bilan to'ldirilgan kontur karta o'quvchilarni saranjomlikka, didli bo'lishga o'rgatadi.

Maktab geografiya ta'limi ta'rifi

Geografiya ta'limining asosiy vazifasi geografiya fani asoslaridan puxta bilim berish, geografiyaning mazmunini tashkil etuvchi tasavvur va tushunchalar sistemasi bilan qurollantirish va hayot uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikma hamda malakalar berishdan iborat. Maktab geografiyasi asosan ilmiy faktlarni yoritadi, o'rganiladigan hodisalarning sabablarini tushuntiradi.

Maktab geografiya kursiga kiritiladigan materiallarni to'g'ri tanlash uchun quyidagilarga e'tibor berish lozim: geografiya fanlarining qanday g'oyalarni maktab geografiyasi kursiga kiritishni aniqlash; geografiya talab etgan g'oyalarni yoritish uchun qanday faktik materiallar kerakligini belgilash; geografiya kurslari mazmunini ishlab chiqish; o'quvchilarning yoshi xususiyatlariga qarab materialni sinflar bo'yicha taqsimlash hozirgi zamon geografiyasi — murakkab, ko'p tarmoqli fan bo'lib, — tadqiqotning xilmaxil metodlari va vositalaridan foydalanadi. Geografiya Er haqida bilim beruvchi fanlar sistemasidan iborat bo'lib, u turli mamlakat va o'lkalarning tabiati, aholisi va xo'jaligi haqidagi bilimlarni o'z ichiga oladi. Geografiya fanlari sistemasi ikki qismga — tabiiy geografiya va iqtisodiy geografiyaga bo'linadi. Maktab tabiiy geografiya kurslariga tabiiy geografiya fanining asoslari kiritiladi.

Tabiiy geografiya, umuman tabiiy fan sifatida tabiatdagi hodisalarni geografik nuqtai nazardan o'rganadi. Tabiiy geografiyaning o'rganish ob'ekti tabiatdir. Tabiiy geografiya o'z

navbatida, umumiy er bilimi va regional tabiiy geografiyaga bo'linadi.

Umumiy er bilimi xususiy tabiiy geografiya fanlari meteorologiya, geomorfologiya, okeanografiya, gidrologiya, iqlimshunoslik, tuproqshunoslik, o'simliklar va hayvonot geografiyasini o'z ichiga oladi. Er bilimi er shari tuzilishi, er yuzasida ro'y beradigan hodisa va prosslarni o'rganadi. Umumiy er bilimi o'z tadqiqotlarida tabiiy fanlar qonuniyatlariga asoslanadi. Regional geografiya (materiklar geografiyasi, O'zbekiston tabiiy geografiyasi kurslari) ma'lum territoriyadagi tabiat hodisalari va ob'ektlari, uning joylanish qonuniyatlarini o'rganadi. Maktab tabiiy geografiyasi materiallari ayrim bosqichlar sinflar bo'yicha birbiriga asoslanib taqsimlanadi.

Tabiiy geografiya kurslari maktab iqtisodiy geografiya kurslari uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy geografiyaning o'rganish ob'ekti jamiyatdir. Jahon hozir ikki socialistik va kapitalistik sistemaga bo'lingan. Ularning har biriga muayyan iqtisodiy xususiyatlar xarakterlidir.. SHuning uchun O'zbekiston ning iqtisodiy geografiyasini o'rgangach boshqa rivojlangan va rivojlanaetgan mamlakatlarning iqtisodiy geografiyasi o'rganiladi.

Maktab geografiyasining hozirgi mazmuni 30yillarda vujudga kelgan edi.

50yillarda maktab geografiyasi kurslarining mazmuniga .amaliy ishlar kiritildi va o'lkani o'rganishga e'tibor oshirildi.

Hozirgi maktab geografiyasi mazmunining vujudga kelishida geografmetodist olimlar A. I. Solov'yon, A. V. Darinskiy, A. E. Bibik va M. Q. Kovalevskayalarning, O'zbekistonda tabiatshunos metodist E. M. Bel'skayaning, respublikamiz geografiyasi kurslarining o'lka materiallari asosida vujudga kelishida profesoarlardan: H. H. Hasanov va 3. M. Akramovlarning hissasi katta.

Maktab geografiyasining hozirgi mazmuni geografiya fanlarining zamon talabiga mos holda ketmaket va bosqichmabosqich holda tuzilgan bo'lib, o'quvchilarning asosiy ilmiy tushunchalar va qonuniyatlar sistemasini o'rganishlariga imkon beradi.

Maktabda geografiya kurslarining bunday tartibi, avvalo, geografik materiallarning o'zlashtirilishini engillashtiradi; qaytariqlarga xotima beradi va materiallarni o'quvchilar tomonidan izchillik bilan o'zlashtirilishiga imkon beradi; yangi materialni ilgari o'rganilgan materiallar asosida o'rganish bilan ularni puxta o'zlashtirishga va mustahkamlashga yordam beradi.

10. Maktab geografiyasida tasavvur

Tasavvur — atrofni o'rab olgan dunyodagi predmet va hodisalarning xuddi shu onda idrok qilinmaydigan hissiy va ko'z oldiga keltirilgan obrazidir.

Maktab geografiyasi kursida o'quvchilar oladigan tasavvurni ikki tipga bo'lish mumkin: 1) predmet va hodisalar to'g'risidagi umumiy tasavvurlar, 2) xususiy geografik tasavvurlar.

Umumiy tasavvurlar o'xshash predmetlar va hodisalar gruppasiga kiradi va ko'p jihatdan. umumlashtirilgan bo'ladi, masalan, umuman tepaliklar va daryolar, zilzila va

Maktab gebografiyasi kursida o'quvchilar egallaydigan tushunchalar ham, tasavvurlar kabi, ikki asosiy tipga—u m umiy tushunchalar va xususiy tushunchalarga bo'linadi. Umumiy tushunchalar bir xil nom bilan ataladigan turdosh predmetlar va hodisalarning butun bir sinfini o'z ichig' olady. Maktab geografiyasida bunday tushunchalarni shartli ravishda umumiy fan tushunchalari va umumiy geografik tushunchalarga bo'lish mumkin.

Umumiy fan tushunchalariga geografiya uchun spesifik bo'lmagan tushunchalar, masalan «paxta», «sanoat», «shahar» kabi tushunchalar kiradi. Bunday tushunchalar maktabdagi har qanday fanda uchrashi mumkin. Maktab geografiyasi ko'pdanko'p umumiy fan tushunchalari bilan ish ko'radi, geografiyaning umumiy ta'lim berishdagi roli ana shunda aks etadi. Ko'pgina umumiy fan tushunchalari geografiya kursida taraqqiy ettiriladi va chuqurlashtiriladi, masalan, «sanoat» tu~shunchasi. Maktab geografiyasi kursida bu. tushunchaning bir tomoni, ya'ni sanoatning tarmoqlar va korxonalar sistemasi ekanligi ochib beriladi; tarix kursida esa bu tushunchaning boshqa tomoni — asosan sanoatning paydo bo'lyshi ko'rib chiqiladi.

Umumiy geografik tushunchalar asosan boshlang'ich geografiya kursida ochib berilad.i.

Bularni ba'zan geografik terminlar ham deyishadi. Masalan, «vodiy», «delta», «vulkan», «zilzila» va boshqalar ana shunday tushunchalardir.

Maktab geografiyasi tushunchalari orasida Erni geografik jihatdan o'rganish metodlari va vositalariga doir umumiy tushunchalar, masalan, ko'z bilan chamalab plan olish, topografik plan to'g'risidagi tushunchalar va boshqalar alohida o'rin tutadi.

Maktab geografiyasidagi ikkinchi tip tushunchalar — xususiy geografik tushunchalardir. Bu tushunchalardan har biri qandaydir faqat bir geografik ob'ektga tegishli bo'ladi va uning o'ziga xos ekanligini ko'rsatadi. Bunday tushunchalar jumlasiga, masalan, «Fransiya», «Volga», «Volga bo'yi», «Kavkaz tog'lari», «Boku shahri» kabi tushunchalarni kiritish mumkin.

Xususiy geografik tushunchalar boshqa erda takrorlanmaydi va bunday tushunchalarning har biri usdan ajratib bo'lmaydigan muayyan geografik nomga bog'lanadi. Ba'zan geografik nomning o'zida uning moddiy mazmuni aks etadi (masalan, «Dog'iston» — tog'lik o'lka, «Aldan» — oltin, daryo).

Xususiy geografik tushunchalarni ham, boshqa xususiy tushunchalar kabi, umumiy tushunchalardan ajratilgan holda tasavvur qilib bo'lmaydi.

Xususiy geografik tushunchalar bironbir geografik ob'ektning o'ziga xos xususiyatini aks ettirish bilan birga ayni vaqtda shu ob'ekt uchun umumiy bo'lgan va umumiy tushuncha o'z: ichiga oladigan boshqa xususiyatlarni ham aks ettiradi. Masalan, «Krasnodar» shaxsiy tushunchasiga boshqa shaharlar uchun ham xos bo'lgan xususiyatlar kiradi: katta oblast shahri va sanoat markazi. SHu bilan birga har bir umumiy tushuncha xususiy geografik ob'ektlarda geografik jihatdan konkretlashtiriladi.

Umumiy tushunchalar eng yaqin xil va turlar bilan aniqlanadi. Masalan, o'zidan suvni yaxshi o'tkazadigan tor jinslari suv o'tkazadigan jinslar deyiladi. Bu ta'rifda «jins» eng yaqin xil hisoblanadi, uning suv o'tkazishi esa suv o'tkazuvchi jinsning suv o'tkazmaydigan jinsdan ajratadigan tur xususiyatidir. Bunday tushunchalardan farq qilib, xususiy geografik tushunchalar xil va tur xususiyati orqali aniqlanmaydi, chunki bu tushunchalarning har biri xususiy tushunchalardir va binobarin, bunday tushunchani tur jihatdan farq qilib bo'lmaydi.

Xususiy geografik tushunchalarni muayyan darajada mufassal tasvirlash yoki ta'riflash, ya'ni eng katta ahamiyatga ega bo'lgan barcha asosiy belgilarini, eng muhim xususiyatlari va xossalarini ko'rsatish mumkin, yoki nihoyat, taqqoslashlar yordamida tushuntirib berish mumkin.

Barcha xususiy geografik tushunchalar birbirlaridan fark qiladi. Bu fark o'sha xususiy geografik tushunchalar uchun muhim hisoblangan xususiyatlarda, bu xususiyatlarning spesifik gruppировkalarida, aloqa va munosabatlarining muayyan sistemasida o'z aksini topadi. Misol uchun, «Ozarbayjon» tushunchasi uni Er sharidagi boshqa territoriyalardan ajratib turadigan o'ziga xos xususiyatlariga ega. Bu farqlar Ozarbayjonning geografik o'rni va tabiatida, aholisining xo'jalik faoliyati xarakterida, uning boshqa territoriyalar bilan aloqalarida va boshqalardadir.

Xususiy geografik tushunchalar orasida mamlakatlar, rayonlar yoki qit'alar to'g'risida tushunchalar ajralib turadi, Territoriyalar to'g'risidagi bu tushunchalar, bir tomondan, kichikroq bo'lgan va ularga bo'ysunadigan xuddi shunday xususiy tushunchalarning birlashmasidir, ikkinchi tomondan esa, bu tushunchalar o'zlaridan kattaroq bulgan boshqa xususiy tushunchalarning tarkibiy qismlari hisoblaganadi va ularga bo'ysunadi.

Masalan, «Ozarbayjon» tushunchasi «Apsheron yarim oroli» tushunchasini o'ziga bo'ysundiradi, ikkinchi tomondan esa, «Zakavkazye» tushunchasiga bo'ysunadi. «Zakavkazye» tushunchasi, o'z navbatida, «Kavkaz» tushunchasiga bo'ysunadi, «Apsheron yarim oroli» tushunchasi esa «Boku» tushunchasini o'ziga bo'ysundiradi.

Har qanday geografik ob'ektning o'ziga xos xususiyatini aks ettiradigan asosiy belgisi uning geografik o'rnidir. Geografik o'rin joyning Er sharida faqat shu joy uchun xos bo'lgan maxsus o'rnini, boshqa geografik ob'ektlariga nisbatan spesifik xrlatini xarakterlab beradi. Joyning geografik o'rnini faqat karta yordamidagina anglab olish mumkin.

Biron territoriyadagi geografik elementlarning o'zaro alokalarini va turli territoriyalar orasidagi alokalarni (masalan, bir oblastdan ikkinchi oblastga boradigan transport yo'llarini va oblastlar orasidagi chegaralarni) ham kartasiz anglab olish mumkin emas. SHuning uchun

ongimizdagi xususiy geografik tushuncha, xususiy geografik tasavvur kabi, har doim kartada aniq ko'rsatilgan, karta bilan bog'langan, kartadan ajratib bo'lmaydi, shuning uchun ham kartani geografiyaning ikkinchi tili deyiladi.

Xususiy geografik tushunchalar xususiy geografik tasavvurlarga juda yaqin va ayni vaqtda ulardan ancha farq qiladi. Xususiy geografik tasavvurlar birbirilari bilan bog'lanmagan va territoriya kartasi to'g'risidagi tasavvurlar bilan birgalikda voqelikning yaqqol obrazlarini aks ettiradi. Xususiy geografik tasavvurlar hiseiy idrok natijasida tiklangan muhim va muhim bo'lmagan belgilardan iborat bo'ladi.

Xususiy geografik tushunchalarni bunday yaqqol tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu tushunchalarda bevosyta hissiy idrok yo'lq bilangina emas, balki bevsita, ya'ni har hodisalarning o'zaro munosabati orqali hosil qilingan muhim belgilargina namoyon bo'ladi.

Xususiy geografik tasavvur territoriya tashqi xususiyatlarini xarakterlaydi; xususiy geografik tushuncha esa territoriya muhim belgilarini aks ettiradi (bu belgilar orasida tashqi xususiyatlar ham bo'lishi mumkin).

Geografik tushunchalar va ularning turlari

Tushunchalarni konkret tushunchalarga va abstrakt tushunchalarga bo'lish mumkin.

Konkret tushunchalar buyumlar gruppasiga, sinflariga kiradi, konkret predmet va hodisalarni aks ettiradi, masalan, «yog'inlar», «vodiy» va boshqa tushunchalar.

Abstrakt tushunchalar — fikrning mustaqil ob'ektlari bo'lgan predmetlar hamda hodisalarning belgilari va xususiyatlari to'g'risidagi tushunchalardir, masalan, «Aholining joylagishi» «Kavkazning iqlimi» kabi tushunchalar. Tushunchalarning abstraktlik darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Biz mavhumlashtirgan xususiy alomatlar qancha ko'p bo'lsa, tushunchalarning abstraktlik darajasi shuncha kuchli bo'ladi. Ilmiy tushuncha o'zaro bog'langan fakt va hodisalarning (bu tushuncha ana shu fakt va hodisalardan tarkib topadi) butun xilmaxilligina emas, balki ularni taqozo qiladigan q6l nuniyatlarni ham, shuningdek, buyumlarning bir tushunchani hosil qiladigan xususiyatlari: orasidagi va turli tushunchalar» o'rtasidagi aloqalarni ham aks ettiradi.

Maktab geografiyasi kursida teografik tushunchalar o'rtasidagi bu barcha aloqa va munosabatlar tabiat hamda jamiyatning umumiy qonunlarini aks ettiradygan va geografiya fani mazmunidan kelib chiqadigan geografik qonuniyatlarda o'z ifodasini topadi. Maktab geografiyasi kursida o'rganiladigan bu geografik aloqalar va qonuniyatlarni ham umumiy abstrakg tushunchalar gruppasiga kiritish mumkin.

12. Geografik ko'nikma va malakalar

Ko'nikma o'quvchilarning o'zlarida bo'lgan bilimlari asosida ongli ravishda bajaradigan amaliy harakatlardir.

Malaka — avtomatlashgan ko'nikma, ya'ni ishdagi shunday priyomlardan iboratki, ular ko'p marta takrorlash va mashq qilish natijasida o'quvchilar uchun odat tusiga kirib qolgan va o'quvchilar uni avtomatik ravishda amalga oshiradilar.

Maktab geografiyasi kursida, maktabning boshqa o'quv predmetlaridagi kabi, bir qancha umumiy ko'nikma va malakalar: kitob, spravochniklar bilan ishlash, dokladlar tuzish, o'z fikrlarini og'zaki va yozma tarzda bayon qilish hamda ma'lumotli har bir kishi uchun zarur bo'lgan boshqa bir q.ancha malakalar hosil bo'ladi.

Barcha fanlar uchun umumiy bo'lgan bu ko'nikma va malakalardan tashqari, geografiya o'qitish prosessida bir qancha spesifik ko'nikma va malakalar taraqqiy etadi.

Bu ko'nikma va malakalar orasida eng muhimi kartani o'qiy olish hamda u bilan ishlay bilishdir, bu ko'nikma kartada yo'nalishlarni, masofalarni, joylarning holatini, geografik ob'ektlarning kattaligi va shaklini aniqlay olish, turli kartalarning shartli belgilaridan foydalana bilish va bu belgilarga qarab biron territoriyani ta'riflab berish, mustaqil ravishda oddiy kartasxema chiza olish va uni bezay bilishni o'z ichiga oladi.

Bir qancha ko'nikmalar topografiyaga doirdir: quyoshga va kompasga qarab joyda orientasiya ola bilish, topografik karta hamda kompasdan foydalanib yo'lni topa olish, qog'ozga

yo'nalishlarni chizish va masshtab asosida masofalarni ko'rsatish, ko'z bilan chamalab plan olish, oddiy topografik kartani o'qiy bilish va bunday karta asosida joyni tasvirlab yozish ana shunday ko'nikmalardir.

Boshqa ko'nikmalardan obhavoni kuzata bilish va meteorologik asboblardan foydalana olish, namunalariga qarab eng sodda tog' jinslarini va foydali qazilmalarni aniqlay bilish, dala sharoitida (ekskursiya vaqtida) ko'rganlarining suratini chiza bilish, diagramma va grafiklar chiza olish va ularni o'qiy bilish, statistik ma'lumotlardan foydalana olish ko'nikmalarini ko'rsatib o'tish mumkin.

Bu ko'nikma hamda malakalarni o'quvchilar birdaniga emas, balki geografiya o'qitishning butun davomida tegishli mashklar qilish yo'li bilan oladilar.

Geografiya o'qitish shakllari

Maktablarda o'quvchilar o'zlashtirishi zarur bo'lgan geografik bilim, ko'nikma va malakalarning hajmi va mazmuni dasturda belgilanadi. Maktab dastursi O'zbekiston va O'zbekiston Maorif ministrligi tomonidan tasdiqlanadi va davlat hujjati hisoblanadi. Maktab geografiya darsliklari dastur asosida yoziladi va Maorif ministrligi tomonidan tasdiqlanadi.

Maktab geografiyasiga qo'yilgan talab ham o'zgaradi. Ilgari geografiya «Qaerda?» degan savolga javob berib kelgan bo'lsa, hozir u «Nima uchun?» va «Qanday qilib?» degan savollarga javob beradigan bo'ldi.

YAngi dasturda tabiatni geografik tadqiq etish metodlari haqida ma'lumot berish nazarda tutilgan. Masalan, territoriyalarni kartaga tushirish va landshaft tiplarini aniqlashda aerofotos'yomkani qo'llash; paleogeografik tadqiqot metodi, okean osti tuzilishi, er qobig'ining geologik tuzilishi, foydali qazilmalarni qidirishda geofizik metodlarni qo'llash haqida bilim beriladi.

Maktab geografiyasi mazmunida fanning bunday murakkab va muhim asoslarini aks ettirishga alohida e'tibor berilgan.

YAngi dastur mazmuni avvalgi dasturdan ilmiy tushunchalarni saralab olinganligi va bu tushunchalarning didaktika talabiga asoslanib taqsimlanishi, tabiat hodisalarining mohiyati yanada chuqurroq izohlanishi, tabiat komponentlari o'rtasidagi o'zaro bog'lanish yanada kengroq ko'rsatilganligi bilan farq qiladi.

YAngi dasturda faktik materiallar va nomenklaturalar kamaytirilgan. Mazkur dasturda o'lka materiallariga, ekskursiyalar o'tkazishga, muntazam ravishda tabiiy hodisalarni kuzatib borishlariga, o'quvchilarning karta bilan olib boradigan mustaqil ishlariga alohida e'tibor berilgan. Geografik ma'lumotlar II sinfdan boshlab o'rganiladi. II va III sinflarda tabiatshunoslik kursida o'qituvchining hikoyasi, izohli o'qish, ekskursiya va kuzatishlar yordamida umumiy er bilimi va o'z joyining tabiati haqida dastlabki ma'lumotlar beriladi.

IV sinf tabiatshunoslik kursida bundan keyingi sinflarda o'rganiladigai tabiiy fanlar tabiiy geografiya, biologiya, fizika, ximiya va astronomiya uchun propedevtik xarakterga ega. U o'quvchilarga jonsiz tabiatning asosiy komponentlari havo, suv, tog' jinslari va ularning xususiyatlari haqida, jonli tabiat, ularning organizmi va yashash sharoitlari, muhiti va jonsiz tabiat komponentlari bilan o'zaro munosabatlari haqida bilim beradi. Er haqida, osmon jismlari haqida dastlabki tushunchalar beriladi. Tabiatshunoslik kurslarida berilgan tushunchalar V sinfda geografiya kursini o'rganishga zamin hozirlaydi. V sinfda tabiiy geografiya boshlang'ich kursi o'rganiladi. Bu kursda o'quvchilarni joyning kartografik tasviri bilan tanishtirishga va u bilan ishlashga ko'proq e'tibor berilgan. IV sinfda olingan tushunchalar V sinfda ancha chuqurlashtiriladi, foydali qazilmalarning paydo bo'lishi va tarqalishi, quruqlik yuzasi hamda dengiz ostining tuzilishi haqida to'laroq bilimlar beriladi. O'quvchilar geosferani o'rganar ekanlar, ular geologiya, geomorfologiya, okeanologiya, meteorologiya va iqlimshunoslik kabi fanlardan xabardor bo'ladilar. Kurs oxirida biosfera va Erning geografik qobig'i, er shari aholisi va dunyoning siyosiy kartasi haqida tushunchalar oladilar.

VI sinf materiklar geografiyasi kursining asosiy mazmuni quruqlik (materik)lar

tabiatini o'rganishdan iborat. Bu kursda tabiat resurslari va aholi yashaydigan tabiiy sharoitni o'rganishga alohida e'tibor beriladi. Aholining soni, etnik tarkibi, zichligi, joylanish xususiyati ta'riflab

beriladi. Mazkur kurs yaxlit quruqliklar bo'yicha osondan murakkabga degan didaktik prinsip asosida (Afrikadan boshlanib so'ng Avstraliya va Okeaniya, Antarktida, Janubiy Amerika, SHimoliy Amerika va Evrosiyo) ko'rib chiqiladi.

Har bir materik quyidagi tartibda: geografik o'rni, kashf etilishi va tekshirish tarixi, reliefi, foydali qazilmalari, iqlimi, daryo va ko'llari, tabiat zonalari, aholisi va siyosiy kartasi o'rganiladi. Materiklarning umumiy obzoridan so'ng tabiiy geografik o'lkalari ko'rib chiqiladi. Materiklar geografiyasi kursida olingan bilimlar «Umumiy geografik konuniyatlar» degan oxirgi temada yakunlanadi. Bu bo'linmada materiklar reliefi va okean ostining genezisi, atmosferaning umumiy sirkulyasiyasi va uning ahamiyati atmosfera bilan dunyo okeanining bir-biriga ta'siri, iqlimni tuproq hamda o'simlikka ta'siri va tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi munosabat bir qadar to'la o'rganiladi. Sinfda o'quvchilarning kartografik bilimlari chuqurlashadi, ular maxsus — geologiya, iqlim, gidrografiya, tuproq, o'simlik, hayvonot, etnografik va siyosiy karta (ayrim mamlakatlarning xo'jaligi o'rganilmaydi) bilan tanishadilar. Sinfda Vatanimiz tabiati o'rganiladi. Bu kursda avval «O'zbekistonning tabiiy geografik obzori» (geografik o'rni, geologik tuzilishi va er yuzasi, dengizlari, iqlimi, ichki suvlari, tuproq qatlami, o'simlik va hayvonot dunyosi) o'rganiladi. Undan so'ng O'zbekiston yirik territoriyalarining tabiiy sharoiti va tabiat resurslari o'rganiladi. O'zbekistonning tabiiy geografiyasi ham O'zbekiston tabiiy geografiyasi kursining bir qismi tarzida VII sinfda o'rganiladi. VIII sinfdagi O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi kursi VII sinfdagi kursning mantiqiy davomi bo'lib o'quvchilarga O'zbekiston ning aholisi va xalq xo'jaligi haqida bilim beradi. Kurs asosan ikki qismdan: O'zbekiston ning umumiy iqtisodiy geografik obzori va O'zbekiston ning ittifoqdosh respublikalari va yirik iqtisodiy rayonlar obzoridan iborat. Umumiy obzorda o'zbekistonning aholisi va muhim resurslari, O'zbekiston xalq xo'jaligining umumiy xususiyatlari (rivojlanishi, strukturasi, joylashtirish prinsiplari), O'zbekiston sanoati, qishloq xo'jaligi va transportning asosiy tarmoklari o'rganiladi. IX sinfda chet mamlakatlar iqtisodiy geografiyasi jahon xo'jaligining umumiy masalalari va ayrim davlatlar iqtisodiy geografiyasini o'z ichiga oladi. Kursda dunyoning hozirgi siyosiy kartasi, dunyo aholisining geografiyasi, jahon xo'jaligi geografiyasi va xalqaro mehnat taqsimoti o'rganiladi. Regional qismida esa Evropa, Osiyo va Amerikadagi socialistik sistemadagi barcha mamlakatlarga, rivojlangan yirik kapitalistik va ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarga xarakteristika beriladi.

Maktab dastursi 1981 —1982 o'quv yilida takomillashtirildi. Dasturni takomillashtirishga sababchi bo'lgan omillar quyidagilar:

1) hukumatning direktiv ko'rsatmalari tomonidan maktabga qo'yilgan talablar;

Dasturda	aks	etishi	va	amaliy	ta'limda	tatbiq
etilishi	lozim	bo'lgan	geografiya	va	pedagogika	fanlari
yutuqlari.						

Maktab geografiyasidagi muhim tarbiyaviy vazifalarni to'la amalga oshirishga xalal beruvchi geografiya ta'limidagi kamchiliklar.

Dasturdagi asosiy masalalarga e'tiborni oshirish, egallangan bilimlarni mustahkamlash maqsadida ayrim materiallar soddalashtirilgan. Murakkab, ikkinchi darajali materiallar chiqarib tashlangan. Yordamchi materiallar esa alohida berilgan.

Takomillashgan dasturda asosiy ilmiy tushunchalar (masalan, «Quyosh radiyasiyasi», «Havo massalari», «Urbanizasiya», «Mehnat resurslari») ga alohida e'tibor berildi. Demak, asosiy ilmiy tushunchalarga qat'iy ta'rif berish va aniq misollar bilan mustahkamlash lozim.

Dasturni soddalashtirish geografik nomenklaturani e'lon olish imkoniyatini berdi. Har bir kurs qat'iy belgilangan geografik nomenklaturalar minimumiga ega bo'ldi. Dasturning «nomenklatura» rubrikasida o'quvchilar tomonidan mustahkam o'zlashtirilishi shart bo'lgan nomlar berildi.

Amaliy ishlar sistemasi sezilarli o'zgardi, muayyan bir tartibga solindi. Takomillashgan dasturda har bir kurs bo'yicha aniq amaliy topshiriqlar o'z ifodasini topdi. Topshiriqlar sistemasini

ishlab chiqishda quyidagilarga e'tibor berildi: 1) kurs mazmunidagi asosiy masalalarni qamrab olish; 2) geografik bilimning barcha manbalari (tekst, kartografik va statistik materiallar, natural ob'ekt va hodisalar) dan foydalanishni nazarda tutish; 3) amaliy topshiriqlarni miqdori va usullariga, hamda ish vositalariga ko'ra sekinasta murakkablashtirib borish. Amaliy ishlarni yangi materialni o'rganish jarayonida, o'quvchilar bilimini aniqlashda, ehtiyoj tug'ilganda esa maxsus darsda o'tkazish mumkin.

Takomillashgan dastur bir necha yangi rubrikalarga ega. «Predmetlararo aloqa» rubrikasi asosan, geografiya o'quv fanini boshqa o'quv fanlari bilan bog'lab o'kitishni nazarda tutadi. Bu tarix, tabiatshunoslik, biologiya kabi fanlarda takrorlanadigan materiallar geografiya dastursidan chiqarib tashlandi.

«YAkuniy takrorlash» rubrikasida takrorlash va yakunlashga tegishli masalalar o'z ifodasini topgan.

Har bir kurs dastursi «O'quvchilarning bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan asosiy talablar» rubrikasi bilan tutallanadi. Mazkur rubrikada o'rganilishi zarur bo'lgan geografik bilim va ko'nikmalar aniq belgilab berilgan. Bu asosiy masalani ikkinchi darajali masalalardan ajratib olishda o'qituvchiga qo'l keladi. Bu rubrika o'quv jarayonini samaraliroq o'tkazishga imkon beradi.

Takomillashtirilgan dasturda, yuqoridagilardan tashqari «O'quvchilarning geografik bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning taxminiy normalari» rubrikasi ham bor. Baho normalari besh balli sistema bo'yicha berilgan. Mazkur rubrika o'quvchilarning kurs materiallarini o'zlashtirish sifatini ob'ektiv kontrol qilish imkoniyatini beradi.

Dastur nihoyasida «O'quv qurollari» ro'yxati berilgan. O'quvko'rsatmali qo'llanmalarining namunaviy ro'yxati o'qituvchiga darsda ko'rsatmali vositalardan ijodiy foydalanish imkoniyatini beradi.

O'zbekiston Pedagogika Fanlari akademiyasi qoshidagi ta'lim mazmuni va metodlari ilmiy tadqiqot instituti maktabni isloh qilishning asosiy yo'nalishlariga muvofiq geografiyadan o'n bir yillik maktab dastursini ishlab chiqdi. Bunda, mavjud dastur va darsliklardagi asosiy masalalarni saqlab qolgan holda, maktab geografiyasining tarbiyaviy imkoniyatlarini, ta'limning amaliy yo'nalishini va o'qitishning ilmiy saviyasini oshirishga harakat qilindi.

Yangi dasturda geografiya kurslarining strukturasi asosan o'zgarishsiz qoldirildi. Faqat ikki kursda juz'iy o'zgarish ro'y berdi. «Materiklar geografiyasi» kursiga «Dunyo okeani» temasi kiritildi, kursning nomi esa «Materiklar va okeanlar geografiyasi» deb o'zgartirildi. «O'zbekiston tabiiy geografiyasi» kursining pirovardiga «Tabiiy geografiya kurslaridagi bilimlarni yakunlash» temasi kiritildi.

O'quv kurslaridagi bilimlar sistemasi qayta ko'rib chiqildi va sistemaga solindi. Asosiy tushuncha va qonuniyatlar, asosiy va yordamchi bilimlar alohida-alohida qayd etildi.

Predmetlararo aloqalarga e'tibor o'rttirildi. Sinf, tabiat va ishlab chiqarishdagi amaliy ishlarda asosiy e'tibor tabiat bilan aholining xo'jalik faoliyati o'rtasidagi aloqalarni aniqlashga, bu aloqalarning tabiat boyliklaridan foydalanish va tabiatni muhofaza qilishdagi mohiyatini tushunib etishga qaratilgan.

Isloh talablari asosida ishlab chiqilgan o'n bir yillik maktab geografiya dastursiga, o'quvchilarning yosh xususiyatlari va geografik bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatlarini nazarda tutgan holda tegishli aniqliklar kiritildi.

Dastur materiallarini osonlashtirish maqsadida: meteor va meteorit, planetalarning yo'ldoshlari, atmosferaning umumiy sirkulyasiyasi, yog'inlarning atmosfera bosimiga bog'liqligi, urbanizatsiya jarayonining boshqarish darajasi kab ma'lumotlar olib tashlandi. SHuningdek, Qutb yulduzi, Qatta Ayiq yulduzlar turkumi, Ptolemey kartasi, al'atimetr, materiklar aholisining milliy va etnik tarkibi, bug'lanish, topografik kartadan magant va haqiqiy azimutlarni aniqlash, turli mamlakatlardagi aholining jinsiy tarkibi haqidagi ma'lumotlar ham tushirib qoldirildi.

Ayrim materiallar kurslar bo'yicha qayta taqsimlandi masalan, urning shakli, globus, materik va okeanlar haqidagi ma'lumotlar V sinf tabiatshunoslik kursiga, «Geografik kartalarda er yuzasining tasvirlanishi» degan tema esa «Materiklar va okeanlar geografiyasi» kursiga kiritildi.

Predmetlar mazmunini tartibga solish maqsadida ayrim aniqliklar kiritildi. Tabiatshunoslik kursidagi «Er—Quyosh sistemasidagi planeta» temasi «Er va boshqa osmon jismlari» deb, «Usimliklar, hayvonlar va tashqi muhit» temasi «Usimliklar, hayvonlar va atrof muhit» deb o'zgartirildi.

Tabiiy geografiya boshlang'ich kursidagi «Erning shakli» temachasi «Erning kosmosdan ko'rinishi» deb, «Quruqlikning ohista tebranishlari» temachasi «Er po'stining harakatlari» deb o'zgartirildi.

Dasturiy pirovardida har bir geografiya kursda o'quvchilar o'zlashtirishi zarur bo'lgan asosiy bilim va ko'nikmalar ro'yxati berilgan.

Maktabii isloh qilishning asosiy yo'nalishlari asosida ishlab chiqilgan o'n bir yillik maktab dastursida geografiya kurslari quyidagicha taqsimlandi:

V	sinf.	Tabiatshunoslik kursi (35 soat, haftada 1 soat).	
VI	sinf.	Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi (68 soat, haftada 2 soat).	
VII	sinf.	Materiklar va okeanlar geografiyasi	(102 soat, haftada 3 soat).
VIII	sinf.	O'zbekiston tabiiy geografiyasi	(68 soat, haftada 2 soat).
IX	sinf.	O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi	(68 soat, haftada 2 soat).
X	sinf.	CHet mamlakatlar iqtisodiy geografiyasi	(51 soat, haftada 1,5 soat).

Geografiya o'qitishning asosiy shakli

Maktabda geografiya o'qitishning asosiy vazifasi o'quvchilarni ilmiy geografik bilimlar sistemasi bilan, ya'ni maktabda o'quv predmeti hisoblangan gyoografiya mazmunini tashkil etuvchi tasavvur hamda tushunchalar sistemasi bilan qurollantirishdan iboratdir.

Maktabda geografiya o'qitishning butun davomida o'quvchilarning bilimlari o'zgarmasdan qolmaydi, balki rivojlana boradi, bunda tafakkur prosessida tasavvur va tushunchalar o'zaro bog'langan, birbirlariga o'tib turadi, bir butunni tashkil etadi. SHu bilan birga tasavvur va tushunchalar o'quvchilarning ongida o'ziga xos yo'l bilan hosil bo'ladi va taraqqiy etadi, ular o'rtasidagi muhim farqlardan biri ana shundadir.

O'quvchilar o'z bilimlaridan foydalana olishlari, ularni amalda ishlata bilishlari lozim. SHu sababli o'quvchilar geografiyani o'rganish davomida geografik bilimlarga ega bo'lishlari lozim.

Bilim, ko'nikma va malakalar birbirlari bilan aloqador, birbirlari bilan bog'liqdir. O'quvchilar geografik bilimlarga suyanagan holda geografik ko'nikma va malakalar oladilar. Ikkinchi tomondan, ko'nikma va malakalar hosil qilish yangi bilimlarni o'zlashtirishda o'quvchilarga yordam beradi.

Geografik bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish prosessida o'quvchilar kommunistik dunyoqarash ruhida tarbiyalanadi va ularning aqliy qobiliyatlari hamda xulqiy sifatleri taraqqiy ettiriladi.

O'quvchilarning maktab geografiyasi kursida qanday tasavvur, tushuncha, ko'nikma va malakalar olishlarini, ularning mohiyati va xususiyatlari qanday ekanligini, o'qitish prosessida ularning qanday rivojlanishini ko'rib chiqamiz.

15. Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni va vazifalari

Maktabdagi o'quv ishlari dastur asosida va cheklangan, belgilagan vaqt doirasida olib boriladi. SHuning uchun o'quvchilarning barcha qiziqish va ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega emas.

Sinfdan tashqari ishlar maktabdagi o'quv-tarbiyaviy ishlarning uzviy davomi bo'lib, o'quvchilarning mustaqillik va aktivligini, siyosiy, o'yaviy va madaniy saviyasini yanada oshirishni, qobiliyatlarining rivojlantirishni bilim qamrovining kengaytirish va chuqurlashtirishni hamda ayrim hayotiy ko'nikma va malakalarni egallashni maqsad qilib ko'yadi. Shuning bilan birga o'suvchilarning bo'sh vaqtlarini oqilona (unumli) va qiziqarli tashkil etish ham sinfdan tashqari ishlarning zimmasiga tushadi.

Geografiya keng ko'lamli va xilmaxil masalalarni qamrab olsada, barcha masalalarni o'quv jarayonida yoritish imkoniyati yo'q, ammo geografiya qamrab olgan masalalarning ko'pchiligi o'quvchilarni qiziqtirib keladi. Geografiya ta'limining atrofdagi tabiat va odamlarning hayoti, tabiat va jamiyatda ro'y berib turgan voqea va hodisalar bilan bevosita aloqadorligi sinfdan tashqari ishlar uchun katta imkoniyatlar vujudga keltiradi.

Sinfdan tashqari olib boriladigan ishlar o'quvchilarni kommunistik r\hda tarbiyalash sohasida olib boriladigan ishlar shug'lanish davomidir. Sinfdan tashqari olib boriladigan ishlar ta'lim-tarbiya maqsadlariga mos kelishi kerak.

Uquvchilar tabiatdagi turli proses va hodisalarni, dunyoda ro'y beradigan voqealarni ko'proq bilishga qiziqadilar, bunday vazifani sinfdan tashqari mashg'ulotlar orqaligina hal qilish mumkin. Sinfdan tashqari ishlar turi, prinsip va usullariga ko'ra sinfda olib boriladigan mashg'ulot — darsdan fark qiladi. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari bor, bu xususiyatlar o'qituvchidan kattagina maxorat talab qiladi.

Sinfdan tashqari ishlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning ixtiyoriy ekanligi bo'lib. o'quvchilarning xohish-taklarini va qobiliyatlarini hisobga olgan holda, ularning tashabbusi bilan olib boriladi. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon berishi, mashg'ulotlarning hajmi, shakli va metodlari esa ularning yoshiga bog'liq bo'lishi maqsadga muvofikdir.

Sinfdan tashqari olib boriladigan ishlarda o'qituvchining vazifasi — o'quvchilarning tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash, yo'lyo'riqlar ko'rsatish va ularning mas'uliyatini oshirishdan iboratdir. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarni ilmiy-tadqiqot ishlarga o'rgatib borish bilan birga, ularni dam olishlariga ham imkon berishi kerak.

Sinfdan tashqari ishlar tematikasida o'lkashunoslik ishlari mohiyati jihatidan asosin o'rnni egallaydi. Sinfdan tashqari ishlardagi «o'lka» tushunchasida bevosita o'rganish mumkin bo'lgan terri toriya (o'z shaxri yoki kishlog'i, yaqin atrof, o'z ma'muriy rayoni, o'z oblasti yoki tabiiy geografik rayoni) nazarda tutiladi.

Sinfdan tashqari ishlarning tematikasida Vatanimizning va uning e'tiborga sazovor bo'lgan joylarini, yirik shaharlari, yangi qurilishlarini o'rganish ham muhim o'rinni egallaydi.

O'quvchilar sayyoramrgzning ayrim e'tnboriga sazovor joylari (g'orlar, yirik sharsharalar, Antarktida tabiati, tabiat yodgorliklari, okeaklardagi ajoyib hayot va h. k.) ga uyushtirilgan eayohatlarga kiziqadilar. Ular xalqaro voqealarni ham odatda qiziqish bilan kuzatadilar. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o'quvchilarning bu qiziqishlarini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

Sinfdan tashqari ishlarda o'quv ko'rsatmali qo'llanmalar tayyorlash va ularni ta'mirlash ishlari alohida o'rin tutadi.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini him hisobga olish lozim. V—VIII sinflardagi ishlarning mazmuni ko'proq tabiatni o'rganishga qaratilmog'i, IX—X sinflarda esa ishlar iqtisodiy-geografik xarakterda bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Sinfdan tashqari ishlarning turlari

Sinfdan tashqari ishlar turli tadbirlar tarzida tashkil etiladi. Ulardan muhimlari — geografik adabiyotlarni o'qish, geografik mazmundagi axborot (doklad tarzida) berish, navbatchi karta tashkil etish, devoriy gazeta chikarish,

I k k i — javob noto'g'ri, asosiy faktik materialni, geografik qonuniyatlarni bilmaydi, tushunchalarni belgilashda qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi; darslik va karta bilan ishlay olmaydi.

B i r — og'zaki javob yoki amaliy ish natijasi yo'q.

O'quvchilarning bilimini baholashda rakamlardagi, dasturdan tashkari geografik nomlardagi arzimagan noaniqliklar uchun baho pasaytirilmaydi. Statistik jadval, kartalardagi zarur ma'lumotlardan foydalana olmaganligi uchun esa baxo pasaytirilishi mumkin.

CHorak bahosi, o'rtacha arifmetik xisob bilan emas, balki barcha baholarning salmog'ini inobatga olib chiqariladi. Bunda o'quvchining og'zaki yoki yozma individual bahosi ahamiyatga ega.

Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni va vazifalari

Maktabdagi o'quv ishlari dastur asosida va cheklangan, belgilangan vaqt doirasida olib boriladi. SHuning uchun o'quvchilarni barcha qiziqish va ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega emas. Sinfdan tashqari ishlar maktabdagi o'quv-tarbiyaviy ishlarning uzviy davomi bo'lib, o'quvchilarning mustaqillik va aktivligini, siyosiy-goyaviy va madaniy saviyasini yanada oshirishni, qobiliyatlarining rivojlantirishni bilim qamrovining kengaytirish va chusurlashtirishni hamda ayrim hayotiy ko'nikma va malakalarni egallashni maqsad qilib ko'yadi. Pluning bilan birga o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini oqilona (unumli) va qiziqarli tashkil etish ham sinfdan tashqari ishlarning zimmasiga tushadi.

Geografiya keng ko'lamli va xilmaxil masalalarni qamrab olsada, barcha masalalarni o'quv jarayonida yoritish imkoniyati yo'q, ammo geografiya kamrab olgan masalalarning ko'pchiligi o'quvchilarni qiziqtirib keladi. Geografiya ta'limining atrofdagi tabiat va odamlarning hayoti, tabiat va jamiyatda ro'y berib turgan voqea va hodisalar bilan bevosita aloqadorligiga sinfdan tashqari ishlar uchun katta imkoniyatlar vujudga keltiradi.

Sinfdan tashqari olib boriladigan ishlar o'quvchilarni tarbiyalash sohasida olib boriladigan ishlar davomidir. Sinfdan tashqari olib boriladigan ishlar ta'lim-tarbiya maqsadlariga mos kelishi kerak.

O'quvchilar tabiatdagi turli proses va hodisalarni, dunyoda ro'y beradigan voqealarni ko'proq bilishga qiziqadilar, bu vazifani sinfdan tashqari mashg'ulotlar orqaligina hal qilish mumkin. Sinfdan tashqari ishlar turi, prinsip va usullariga ko'ra sinfdan olib boriladigan mashg'ulot — darsdan farq qiladi. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari bor, bu xususiyatlar o'quvchidan kattagina maxorat talab qiladi.

Sinfdan tashqari ishlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning ixtiyoriy ekanligi bo'lib, o'quvchilarning xohish-taklarini va qobiliyatlarini hisobga olgan holda, ularning tashabbusi bilan olib boriladi. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chikarishga imkon berishi, mashg'ulotlarning hajmi, shakli va metodlari esa ularning yoshiga bog'liq bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Sinfdan tashkari olib boriladigan ishlarda o'quvchining vazifasi — o'quvchilarning tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash, yo'l-yo'riqlar ko'rsatish va ularning mas'uliyatini oshirishdan iboratdir. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarni ilmiy-tadqiqot ishlarga o'rgatib borish bilan birga, ularni dam olishlariga ham imkon berishi kerak.

Sinfdan tashqari ishlar tematikasida o'lkashunoslik ishlari mohiyati jihatidan asosiy o'rinni egallaydi. Sinfdan tashqari ishlardagi «o'lka» tushunchasida bevosita o'rganish mumkin bo'lgan terri toriya (o'z shaxri yoki kishlog'i, yaqin atrof, o'z ma'muriy rayoni, o'z oblasti yoki tabiiy geografik" rayoni) nazarda tutiladi.

Sinfdan tashqari ishlarning tematikasida Vatanimizning va uning e'tiborga sazovor bo'lgan loyrlarini, yirik shaharlari, yangi qurilishlarini o'rganish ham muhim o'rinni egallaydi.

O'quvchilar sayyoramizning ayrim e'tiborga sazovor joylari (gorlar, yirik sharsharalar, Antarktida tabiati, tabiat yodgorliklari, okeaklardagi ajoyib xayot va h. k.) ga uyushtirilgan sayohatlarga qizikadilar. Ular xalqaro voqealarni xam odatda qiziqish bilan kuzatadilar. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o'quvchilarni bu qiziqishlarini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

Sinfdan tashqari ishlarda o'quv ko'rsatmali qo'llanmalar tayyorlash va ularni ta'mirlash ishlari aloxida o'rin tutadi.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini ham hisobga olish lozim. V—VIII sinflardagi ishlarning mazmuni ko'proq tabiatni o'rganishga qaratilmog'i, IX—X sinflarda esa ishlar iqtisodiy-geografik xarakterda bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Sinfdan tashqari ishlarning turlari

Sinfdan tashqari ishlar turli tadbirlar tarzida tashkil etiladi. Ulardan muhimlari — geografik adabiyotlarni o'qish, geografik mazmundagi axborot (doklad tarzida) berish, navbatchi karta tashkil etish, devoriy gazeta chiqarish, maxsus fotoalbomlar tayyorlash, geografik kecha va konferensiyalar o'tkazish, geografik o'yinlar tashkil etish, kartada tasvirli sayohat qilish, geografik olimpiadalar o'tkazish, ko'rgazmalar tashkil etish, kinolar ko'rsatish, ekskursiya va sayohatlar uyushtirish, ijtimoiy foydali mehnatlarni tashkil etish va h. k.

Sinfdan tashqari vaqtda olib boriladigan tadbirlar mazmuniga, mahalliy sharoitga, o'quvchilarning yosh xususiyati va qiziqishlariga qarab olib boriladi.

Bu sxema sinfdan tashqari vaqtlarda olib boriladigan, amaldagi ish turlarini o'z ichiga oladigan namunadir. Sinfdan tashqari ishlarni sxemada ko'rsatilmagan boshqa turlaridan ham foydalanish, shuningdek bo'limlarni ba'zilarini birlashtirish yoki ba'zilarini alohida bo'limlarga bo'lish ham mumkin. Sinfdan tashqari ishlardagi hamma tadbirlar

Sinfdan geografiya to'garagi yoki o'quvchilarning ilmiy jamiyatida tashkil etiladi.

Geografiya to'garagi. Sinfdan tashkaridagi har qanday ishlarning ko'pchiligi to'garakda olib boriladi.

To'garak ishi odatda sinfdan tashqari bironta ayrim tadbirni amalga oshirish bilan ham vujudga keladi. Masalai, qiziqarli o'tkazilgan xar bir ekskursiya, doklad, geografik adabiyotlardan parcha o'qish va boshqa tadbirlar geografiya to'garagining boshlanishiga asos bo'lishi mumkin.

To'garak ishini xatto 8—10 kishi bilan ham boshlash mumkin. To'garakning raxbari, kotibi bo'ladi. To'garak a'zolari har biri o'z kobiliyatiga yarasha o'zi qiziqqan ish bilan shug'ullanishi kerak. To'garak ishida o'qituvchi asosiy maslahatchidir. U darsni shunday tashkil qilishi kerakki, geografiya to'garagiga qiziqish dars jarayonidayoq boshlanib, keyinchalik o'quvchi o'z xohishi bilan bu to'garakka qatnashadigan bo'lsin.

Geografik yangiliklar va navbatchi karta. Maktab o'quvchilari kundalik xalqaro ahvol masalalariga, dunyoda ro'y berayotgan voqealarga (suv toshqinlari, zilzilalar), kosmosni zabt etishda erishilayotgan muvaffaqiyatlarga va boshqa shu kabi masalalarga juda qiziqib qaraydilar hamda ularni qunt bilan kuzatadilar. Ularning beg'araz yordami bilan xorijiy mamlakatlarda olib borilayotgan kurilishlarni, mamlakatlarning xalq xo'jaligidagi yutuqlarini, O'zbekistonda besh yillik planlarda ko'zda tutilgan ulkan qurilishlarni bilishga ayniqsa qiziqib qaraydilar.

O'quvchilarning bu qiziqishlarini maktabda tashkil etilgan «Olamda nima gap?» va «Navbatchi karta» yordamida qondirish mumkin.

Maktabdagi «Olamda nima gap?» degan suhbat haftada bir marotaba, geografiya o'qituvchisi xabarligida yuqori sinf o'quvchilari ishtirokida o'tkaziladi. Muhim masalalar bo'lsa, o'qituvchining o'zi o'tkazadi, ba'zi bir voqealar bo'lsa, alohida belgilab qo'yilgan o'quvchilar tayyorlanadilar. Masalan, bir o'quvchi xorijiy mamlakatlardagi yangiliklarni, ikkinchi o'quvchi S dagi yangiliklarni gazeta va jurnal materiallaridan foydalanib gapirib beradi.

Geografik yangiliklarni yoritib borishda navbatchi karta ayniqsa katta ahamiyatga ega. O'quvchilar navbatchi kartada kundalik voqea va yangiliklarni belgilab boradilar. Bu dunyoda ro'y berayotgan hodisalarni, yangiliklarni qaysi materikda ekanligini darhol tasavvur qila olishga, kartada belgilangan fakt va hodisalarga geografik nuqtai nazardan yondashishta o'rgatadi.

Bunday ishlar o'quvchilarning geografik bilimlarini kengaytirishda, ularni siyosiyg'oyaviy jihatdan tarbiyalashda katta rol o'ynaydi.

O'lkani o'rganish. Sinfdan tashqari olib boriladigan ishlarda o'z o'lkasini o'rganish muhim o'rin tutadi. Ulkani o'rganishning vazifasi o'z o'lkasining tabiatini, aholining turmushi, madaniyati va faoliyatini o'rganishdir. Maktabda geografiyadan olib boriladigan o'lkashunoslik ishlari o'z o'lkasining boyliklarini aniqlash, tabiat hodisalarini kuzatish, turli ob'ektlarga ekskursiyalar uyushtirish, kolleksiyalar va gerbariylar yig'ishdan iborat bo'ladi. Ulkashunoslik ishlarini bajarishda (masalan, meteorologik asboblardan foydalanishda) o'quvchilarda bir kancha ko'nikma va malakalar hisol bo'ladi.

O'quvchilar keng ko'lamda va sistemali ravishda astronomik, meteorolik va fenologik kuzatishni sinfdan tashqari vaqtdagina olib bora oladilar.

Maktab atrofining rel'efini o'rganish maqsadida V—VIII sinf o'quvchilari bilan ekskursiya uyushtiriladi. Masalan, ekskursiyalarda o'quvchilar jarliklarning hosil bo'lishi, kattaligi, uning kengayishini oldini olishga qaratilgan choralar bilan tanishib chiqishlari mumkin. SHuningdek o'quvchilar maktab atrofidagi oqar suvlar, ularning hosil bo'lishi, suvdan qanday maqsadlar uchun foydalanilishi bilan ham tanishadilar. Ekskursiya vaqtida to'plangan materiallar o'lkashunoslik burchagini tashkil etishga va uni boyitishga yordam beradi.

Geografiyaga doir kerakli o'quv qurollari tayyorlash va ularni remont qilib turish sinfdan tashqari olib boriladigan ishlarda muhim o'rin tutadi. O'quvchilar biroir narsani ijod qilish va buzilgan o'quv qurollarini tuzatish ishlarini yaxshi ko'radilar, shuning uchun o'quv qurollarini yasash o'quvchilarning eng qiziqarli mashg'ulotlaridan biridir. Ukuvchilar to'garakda turli kartasxemalar, modellar va asboblari yasashlari, geografiya maydonchasidagi ba'zi asboblarni tayyorlashlari mumkin. O'quvchilar yasagan turli o'quv qurollaridan dars va darsdan tashqi vaqtlarda foydalaniladi.

Geografiya kechalari o'tkazish. Geografiya kechalari ma'lum dastur asosida o'tkazilishi mumkin. YAxshi o'tkazilgan kecha o'quvchilarning uzoq vaqtgacha xotirasida qoladi. Maktabda o'tkaziladigan kechalar faqat geografiya faniga oid bo'lmay, balki tarix va adabiy kechalar bilan ham birgalikda o'tkazilishi mumkin.

Geografiya kechalarining ahamiyati shundaki, u kechani tashkil etuvchilarining ish natijalarini namoyish qiladi va ko'pchilik o'quvchilarni o'ziga jalb etadi. Geografiya kechalariining mazmuni turlicha: muhim geografik voqealarga, ko'zga ko'ringan geografolimlarga va o'lka tabiatini o'rganishga bag'ishlangan bo'lishi mumkin. Masalan, «O'rta osiyolik sayyohlar», «Geografiya faniga hissa qo'shgan o'zbek geografolimlari», «O'zbekiston shaharlari», «Afrixa uyg'onmoqda», «Bizning Vatakimiz» kabi temalarda o'tkazilishi mumkin.» O'quvchilarning ilmiy jamiyati. O'quvchilarning ilmiy jamiyati (UIJ) geografiya to'garagida vujudga kyoladi. Keyinchalik alohida tashkilot bo'lib ajralib chiqishi mumkin. UIJ bajaradigan ishlari, tadbirlarining saviyasi jihatidan to'garakdan yuqori pog'onaga ko'tarila oladi.

UIJ ga geografiya o'qituvchisidan tashqari aktiv otaonalar, olimlar, oliy o'quv yurtlarining studentlari, boshqa fan o'qituvchilari va yuqori sinf o'quvchilari ham hamkorlik qilishlari mumkin.

UIJ ning asosiy maksadi — a'zolarining fanga va ilmiy tadqiqotlarga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish, er sharidagi ob'ekt va hodisalarni, o'z o'lkasini mukammalroq o'rganish, turli ish usullariga oid tegishli amaliy ko'nikma va malakalar hosil qilishdan iborat.

Jamiyat a'zolarining ishi mazmuniga ko'ra quyidagicha bo'lishi mumkin:

a) jahondagi, O'zbekistondagi muhim voqealar, shuningdek fan, texnika sohasida erishilayotgan yutuqlar bilan o'quvchilarii xabardor qilib borish;

b) ilmiyommabop va badiiy adabiyotlar o'qish, ilmiy ommabop kinofil'mlarni ko'rish, ularning mazmunini tahlil qilishga o'rgatish; v) sayohat, ekskursiyalarga chiqish;

g) o'rta osiyolik sayyoh va geograflar hayoti va geografik faoliyati bilan tanishish;

d) jamiyat a'zolarining tadqiqot va kuzatishlari nati jasiga bag'ishlangan qiziqarli kecha va konferensiyalar o'tkazish. Jamiyatning bo'lim (seksiya)lari bo'ladi, bu bo'limlar o'kuvchilarning kiziqishlari va yosh xususiyatlariga qarab tuziladi,

Maktablarda tashkil etiladigan UIJ ning o'z nomi va shartli belgisi (emblemasi) bo'lishi maksadga muvofikdir. UIJ Beruniy, Ulug'bek yoki Bobur iomlari bilan yuritilishi mumkin.

Xar bir UIJ niig o'z «a'zolik bileti» bo'lishi, buni o'quvchilarning o'zlari tayyorlashlari mumkin.

Jamiyatning umumiy yig'ilishi har chorakda bir marotabag bo'limlarining yig'ilishi esa har oyda bir marotaba tashkil etiladi. Bo'limlarining yigilishida — raisning axboroti, a'zolarining dokladlari, kuzatish, tadkikot va sayohat natijalari tinglanadi.

Geografiya ta'lim suhbat, ma'ruza, o'qib berish

Suhbat metodida o'qituvchining savoli va o'quvchining javobi asosiy o'rin tutadi. Uqituvchi suhbat vaqtida o'quvchilar fikrini o'rganiladigan geografik ob'ekt va hodisalarning asosiy belgilariga yo'naltiradi va ularning birlash faoliyatlarini boshqarib boradi. Uqituvchi darsda o'rganiladigan temani e'lon qiladi, ba'zi zarur savollarni o'rta tashlaydi, suhbatni mantiqiy qismlarga bo'ladi, o'quvchilar javobini tinglaydi, ularning javoblaridagi xatoni tuzatadi va to'ldiradi. SHundan so'ng o'quvchilarni yakun yasashga undaydi.

Uqituvchi suhbat vaqtida karta va turli ko'rsatmali qurollardan, o'lka materiallaridan, shuningdek, o'quvchilarning ilgari olgan bilimlaridan keng foydalanadi. Beriladigan savollar o'quvchilarga geografik qonuniyatlarni tushunib olishga yordam beradi.

Demak, geografiya ta'limining mazkur metodida o'quvchilar dasturda berilgan materiallarni boshka metodlarga nisbatan ancha yaxshiroq o'zlashtiradilar. Suhbat metodi bilan ish olib borilganda yangi materiallarni o'rganish bilan o'quvchilar bilimni aniqlash birga olib boriladi va o'quvchilar bilan yakkamayakka ishlash uchun qulay sharoit vujudga keladi. Uqituvchi «orqada qoluvchi» o'quvchilarni ham darsga faol ishtirok ettira oladi.

Suhbat o'quvchilarni materialni mustaqil o'rganishga jalb eta olganligidan, o'qituvchi suhbatdan bilimni ishonchga aylantiruvchi vosita sifatida ham foydalanadi. Suhbat o'quvchilarning o'z fikrlarini isbotlovchi tarzda ifoda qilishga o'rgatibgina qolmasdan, ularni turli bilim manbalari (karta, globus, kolleksiya, gerbariy va h. k.) bilan mustaqil ishlash olishga o'rgatadi.

SHularga ko'ra «suhbat» ni geografiya ta'limidagi eng etakchi metodlardan biri deb hisoblash mumkin. SHuni xam aytish kerakki, suhbat metodi hamma darslarda qo'llanavermaydi. Masalan, quyosh sistemasidagi sayyoralar, Erning Quyosh atrofidagi harakati, Abu Rayhon Beruniyning geografiya faniga qo'shgan hissasi kabi bilimlarni o'quvchilarga suhbat metodi orqali o'rgatish qiyin. O'quvchilar zarur bilim zapasiga ega bo'lgan taqdirdagina suhbat metodidan foydalanish lozim bo'ladi. Suhbat metodi bir necha usullardan iborat.

Savoljavob (katexizik) suhbat. Bu usulda o'quvchilar o'qituvchi savoliga qisqa javob beradilar, savoljavob orqali fakt va geografik ob'ektlarning joylanishi haqidagi bilimlar aniqlanadi. Masalan, cho'l zonasi Er sharining qayerlarida tarqalgan? Afrika bilan Evrosiyo chegarasi qayerlardan o'tadi. Tog' deb nimaga aytamiz? Geyzer nima?

Savoljavob usulida o'quvchilarning ilgari olgan bilimlari takrorlanadi.

Keng ko'lamdagi (evristik) suhbat. Bu usulda o'qituvchi o'quvchilar oldiga ma'lum bir problematik masala qo'yadi. Keyin o'qituvchi yordamchi savollar va ayrim ma'lumotlarni eslatish yo'li bilan o'quvchilarni ilgari olgan bilimlariga tayanib masalani mustaqil hal etishga undaydi. Savollar berilganda shuni e'tiborga olish kerakki, berilgan javob asosiy fikrni isbotlashi va shu fikrni davom ettirishi lozim. Masalan, materiklar geografiyasi kursida Evrosiyo iqlimini o'rgakishda iqlim kartasida quyidagi savollarga javob berishni talab qilish mumkin: Osiyoning markaziy va sharqiy qismida yozda havo temperaturasi qanday? SHu joyda qishki temperaturalar qanday? Markaziy va SHarqiy Osiyo havo temperaturasining yillik amplitudasi qanday? Markaziy Osiyo bilan SHarqiy Osiyo temperaturasi amplitudasining bunchalik farq qilishiga sabab nima? Markaziy bsiyo bilan SHarkiy Osiyoda yog'in miqdori qanday? YOg'inlarning bunchalik farq qilishiga sabab nima? Sovuq kunlar Markaziy va SHarqii Osiyoda qancha vaqt davom etadi?

Iqlim diagrammasiga qarab SHarqiy Osiyoda yil davomida yog'inning taqsimlanishini aniqlanishicha nima uchun ko'p yog'adi? Qadvaldan foydalanib SHarqish Osiyo iqlim xususiyatini tushuntiring. O'quvchilar Markaziy Osiyoning iqlim xususiyatini aniqlagach, o'qituvchi shu joyda qanday iqlim tiplari borligini aytib beradi. SHarqiy Osiyoning iqlim tipi ham shu tariqa belgilanadi,

Keng ko'lamdagi bu xil suhbat asosan yangi bilimlarni o'rganishda va yakuniy takrorlashda foydalaniladi. Tabiiy geografiya boshlang'ich kursiniig ko'p temalarida, materiklar geografiyasi va tabiiy geografiyasi kurslarida, O'zbekiston tabiiy geografik rayonlarining geografik o'rni, iqlimi, ichki suvlarini o'rganishda evristik suhbat qo'l keladi.

Suhbat metodini didaktik maqsadiga qarab uch xilga bo'lish mumkin:

Kirish suhbat. Bu suhbatning maqsadi yangi bilimni yaxshiroq o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan (ilgari o'zlashtirilgan) bilim va ko'nikmalarni o'quvchilar xotirasida qayta tiklashdan iborat.

Urganish suhbat. Bu suhbatning maqsadi yangi bilimni o'quvchilar olgan bilim asosida o'rganishdan iborat. Bunday darslarda o'rganilgan yangi bilim shu darsda olib boriladigan mustaqil ishlarda tatbiq etib ko'rilishi maqsadga muvofiqdir.

3) YAkunlovchi suhbat. Suhbatning bu turi takrorlash va bilimlarni muayyan bir tartibga tushirish, shuningdek, o'rganilgan narsalarni umumlashtirish va kengaytirishda tatbiq etiladi. Suhbat o'quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab murakkablashib borishi lozim.

17. Geografiya ta'limi metodlari sistemasi

Geografiya asoslarini puxta o'zlashtirish, o'quvchilarning bilim olish qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni hayotga tayyorlash ma'lum darajada ta'lim metodlariga bog'liq.

Ta'lim metodlari o'qituvchi tomonidan o'quvchilar faoliyatini belgilaydigan ish usullaridir. Ta'lim metodlari o'quvchilarga bilim berish, ko'nikma va malakalarni egallash bilangina cheklanib qolmaydi. Ta'lim metodlari deyilganda, o'quvchilarning ijodiy faoliyatlarini rivojlantiradigan, bilimlari mustaqil o'zlashtirishga o'rgatadigan, ularda ilmiy bilimga asoslangan to'g'ri dunyoqarash va e'tiqodni tarbiyalaydigan usullar tushuniladi.

Metodlar o'qituvchining ish usullari bo'lishi bilan birgao'quvchilarning qay tariqa fikrlashlarini belgilashga imkon beradigan yo'l hamdir.

Geografiya o'qitish metodlari haqida so'z borar ekan, «metod», «usul, priyom» degan so'zlar yonmayon uchrab turadi.

Geografiya metodikasi adabiyotlarida «metod» va «usul» so'zlari birbiridan farq qilinmay, ba'zan bir xil ma'noda yuritib kelinadi. Masalan, kartalarni solishtirish usulini ko'pincha «taqqoslash metodi» deb yuritiladi. Kartalarni solishtirish metod emas, solishtirish usulidir. Bunday noaniqliklar ta'lim metodlarini takomillashtirish borasida to'g'ri yo'l tutishni qirshnlashtiradi. O'zbek tilidagi mavjud metodik qo'llanmalarda «taqqoslash» (sравнение) ham, «solishtirish» (сопоставление) ham «taqqoslash» deb ishlatiladi. Bunday chalkashlik va noaniqlikka yo'l qo'ymaslik lozim; taqqoslash — o'rganilayotgan geografik ob'ektni ilgari o'rganilgan ob'ekt bilan taqqoslash tufayli o'ziga xos xususiyatlarni ochib berishdir. Masalan, Janubiy Amerika cho'lini Osiyo cho'li bilan, Turon pasttekisligini G'arbiy Sibir pasttekisligi bilan, Amudaryoni Volga bilan taqqoslab har qaysi ob'ektning o'ziga xos xususiyati aniqlanadi. Taqqoslash og'zaki bayon metodining bir usulidir.

Solishtirish — kartalarni solishtirish va taxlil qilish bilan bir geografik ob'ektga xos bo'lgan ob'ekt va hodisalarning sabablarini aniqlashdan iborat. Masalan, turli mazmundagi kartalar tahlil qilinib va solishtirilib SHimoliy Amerikaning sharqiy qismidagi tabiat zonalarining meridional joylanish sabablari yoki Himolayning shimol tomoni bilan jaiub tomoni tabiati (iqlimi, o'simlik zonolari) o'rtasidagi keskin farqlarning sabablari aniqlanadi. Solishtirish — «Kartografik qo'llanmalar bilan ishlash metodi» ning bir usulidir. Noaniqliklarga yo'l qo'ymaslik uchun ruscha «priyom» degan so'zni «usul» deb ishlatish ma'qul.

Metod — usullar yig'indisidan iborat. Usul esa metodning tarkibiy qismidir. Ayrim hollarda bir usul bir necha xil metod tarkibida ishtirok etishi ham mumkin. Masalan, taqqoslash usuli og'zaki

bayon etish metodida ham, suhbat metridida ham, karta bilan ishlash metodida ham ishtirok etadi. Har bir metod ma'lum bir masalani o'rganishda hal qiluvchi bo'lsa, boshqa bir masalani o'rganishda yordamchi sifatida keladi. Demak, metod bilan usul o'rtasida o'zaro uzviy bog'lanish bor.

Geografiya ta'limi metodlarini klassifikatsiyalash turli adabiyotlarda turlicha berilgan.

Bilim olish manbalari asos qilib olingan metodlar klassifikatsiyasiga geografiya ta'limida amaliy ahamiyatga ega. Bilim olish manbalari asos qilib olingan metodlar klassifikatsiyasi ko'pchilik adabiyotlarda o'z ifodasini topgan. SHunga qaramay, bu klassifikatsiya bundan buyon xam zng makbul va birdanbir klassifikatsiya bo'lib qolaveradi, deb bo'lmaydi.

O'quv prosesining takomillashtirilishi, geografiya darslarida yangi texnika vositalarini joriy etilishi, darsda o'quvchilarning mustaqilligini oshirilishi metodlarning mavjud klassifikatsiyasini o'zgartirishi ham mumkin. Hozir geografiyani o'qitish metodlarini o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining nisbati bo'yicha klassifikatsiya qilishga urinib ko'rilmogda.

Ta'lim metodlari uning maqsad va mazmuniga bog'liq. Ta'limning maqsad va vazifasi ilmiy texnika va sosial taraqqiyot ta'sirida o'zgaradi. SHuning uchun ham turli davrlarda geografiya ta'limi metodlari klassifikatsiyasi o'zgarib borgan.

Eng ko'p tarqalgan va barqaror klassifikatsiya — bilim olish manbalari asos qilib olingan klassifikatsiyadir. U quyidagicha:

Uqituvchining og'zaki bayoni (leksiya, hikoya, tushuntirish, suhbat).

Darslik bilan ishlash.

Kartografik qo'llanmalar (karta, kartaxema, kontur karta) bilan ishlash.

Statistik materiallar (grafik, diagramma, jadvallar) bilan ishlash.

Tasvirli vositalar (sxema, rasm, diapozitiv, kinolav ha, natural ob'ektlar) bilan ishlash.

Mazkur klassifikatsiyaning afzalligi, geografiya darsi jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar nima bilan va kaday ish olib borishlarini aniq ko'rsatib berishi, maxtab ta'limidagi umumiy va maxsus informatsiya manbalarining jalb etilinishi nazarda tutishidir.

YUqoridagi ta'lim metodlari boshqa o'quv fanlarida ham qo'llaniladi. Ta'lim metodlarining geografiyaga xos tomonlari bir necha metod va usulning birbiri bilan uyg'unlashib borishidir. CHunonchi, karta bilan ishlash darslik teksti bilan, o'qituvchining og'zaki bayoni kartada ishlash bilan, karta bilan ishlash rasmlar bilan qo'shib olib borilishi shular jumlasidandir.

Takomillashgan dastur asosida ta'lim berish bir necha metodlardan birgalikda foydalanishni taqozo etadi. Bunda o'quvchilarning mustaqil ishlari ham takomillashib boradi.

SHunga ko'ra o'quvchilarning bilim olish manbalari asos qilib olingan klassifikatsiyadagi ta'lim metodlari asosan uch guruhga bo'linadi:

I. Og'zaki metodlar.

Uqituvchining og'zaki bayoni (leksiya, hikoya, tushuntirish, suhbat), televidenie.

Darslik va boshqa adabiyot (ilmiy ommabop, spravochnik) lar bilan ishlash.

Raqamli materiallar bilan ishlash.

II. Ko'rsatmali metodlar.

1) Kartografik material (karta, kartaxema, kontur karta) lar bilan ishlash.

Statistik material (grafik, diagramma, jadval)lar bilan ishlash.

Tasvirli vosita (rasm, sxema, profil, diafilm, kinofilm) lar, natural ob'ektlar bilan ishlash. Kuzatish.

III. Amaliy metodlar.

Tajribalar.

Joydagi o'lchov ishlari (plan olish, tepalikning balandligini o'lchash, daryoning eni, chuqurlygi va oqimini o'lchash).

Ijtimoiy foydali mehnat.

Geografiya ta'limi prosessida kamdankam hollarda bir metoddan foydalanildi. Uqituvchi bir darsda bir necha xil metod va usullardan foydalanadi. Ba'zi o'qituvchilarda «aktiv metod» va «passiv metod» degan tushunchalar bor. Bu tushunchalar nisbiy tushunchalardir. Agar har bir metod va usullardan to'g'ri foydalanilsa, ular o'quvchilar aktivligini oshiradi.

Metodlarning biri o'quvchi xotirasini, ikkinchisi — tafakkurini, uchinchisi — idrokini, to'rtinchisi — his va tuyg'usini aktivlashtirishi mumkin. Har bir metodning o'ziga xos tomonlari bor, ular ta'limtarbiya masalalarini turlicha hal qiladi. Bir xil metod karta bilan ishlash malakasini hosil qilsa, ikkinchi xili kuzatuvchanlikni, boshqa biri mustaqillikni tarbiyalaydi, yana biri nutqini o'stiradi.

Uqituvchi metod va usullardan mohirlik bilan foydalansagina o'quvchilarga bilim berishda va ularda ko'nikma hamda malakalar hosil qilishda yaxshi natijaga ega bo'lishi mumkin. Geografiyani o'qitishda samarali natijalarga erishishning asosiy yo'li — metod va usullardan ijodiy tarzda foydalanishdir.

Og'zaki bayon

Maktablarda o'quvmoddii bazalar yo'q vaqtlarda og'zaki metod o'qitishning asosiy metodi hisoblangan. Og'zaki bayon metodi turli mazmundagi o'quvko'rsatmali qo'llanmalar bilan birga qo'shib olib borilgandagina yaxshi samara beradi.

Biron temani og'zaki bayon etganda o'quvchilar qunt bilan tinglashlari kerak. Tema va plan tushuntirilgandan so'ng o'qituvchi so'zlab beradigan ma'lumotni shu plan asosida bayon etishi, bayon davomida o'quvchilar faoliyatini oshiruvchi turli ueullar (taqqoslash, nom va joylarni kartadan toptirish, savoljavob) dan foydalanishi, o'rganilgan masalalar yuzasidan xulosalar chiqarishi lozim.

O'quvchilar bilim va ma'lumotlarni yaxshiroq o'zlashtirib olishlari uchun ularning e'tiborini ko'proq asosiy masalalarga jalb qilish, masalaning asosiy va ikkinchi darajali o'rinlarini ajrata olishlariga imkoniyat yaratish zarur.

O'quvchilarning o'qituvchi bayonini diqqat bilan tinglay olish qobiliyatlari turli sinfda turlicha bo'ladi va ko'pincha bunday qobiliyat barqaror bo'lmaydi. SHunday ekan og'zaki bayonga ozroq vaqt ajratish ma'qul. Og'zaki bayon metodi bir necha usuldan iborat.

Tushuntirish. O'quvchilarga geografik qonuniyatlarni, geografik prosesslarni kengroq ochib berish lozim bo'lganda tushuntirish usulidan foydalaniladi. Tushuntirish usuli bilimlarni izchil o'rganish imkoniyatini beradi. Maktab tabiiy geografiya kurslarida urning shakli va kattaligi urning sutkalik va yillik harakati, gradus to'ri, tog'larning paydo bo'lishi, briz, musson, passat, siklon va antisiklonlarning vujudga kelishi va geologik hodisalarni o'rganishda tushuntirish usulidan foydalaniladi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarni fakt va hodisalardan xabardor qiladi, ular o'rtasidagi aloqalarni ochib beradi, xulosalar chiqaradi va yakunlaydi. Tushuntirish vaqtida ko'rsatmalilik va karta bilan ishlashning turli usullaridan foydalanish lozim. U sodda, aniq, ravon bo'lishi kerak.

Hikoya. O'quvchilarga geografik joy (ob'ekt), hodisa va prosesslarni aniq tasvirlab berishda, geografik kashfiyotlar, alohida landshaftlar, turli o'lkalardagi aholining hayoti haqida gapirganda hikoya usuli qo'l keladi. Agar o'qituvchi faktik ma'lomatlarini to'plab, bu ma'lumotlarni va turli xil hodisalarini ustalik bilan o'rnio'rnida so'zlab bersa, buning ustiga bu hikoya jonli, badiiy va hayajonli bo'lsa o'quvchilar maroq bilan tinglaydilar.

Hikoya usulining xam muayyan talablari bor. Hikoya qilish lozim bo'lgan ma'lumotlar, faktlar, tasvirlar, tanlab, olinsa o'quvchilar ongida aniq tasavvur hosil bo'ladi va ukuv materiallari xotirada mustahkam o'rnashib qoladi. Eng, muximi hikoyani ishonchli bo'lishi, asosiy fikrlarni ikkinchi darajali fikrlardan ajralib turilishidir. Uqituvchining o'zi ko'rgan va bevosita kuzatgan joy va hodisalar haqidagi hikoyalari o'quvchilarda chuqur taassurot qoldiradi. Uqituvchi hikoya davomida turli mazmundagi karta va ko'rsatmali qurollardan foydalanadi. SHuningdek, ayrim hollarda o'qituvchi kiska hikoyadan so'ng tushuntirishga o'tishi mumkin. Masalan, er qimirlash prosessini hikoya qilib, keyin uning sababini tushuntiradi.

V—VI sinflarda materialni ko'proq tasviriy tarzda hikoya qilib berish kerak bo'ladi. Masalan,

yirik sharsharalardan Niatar va Viktoriyani yoki Kongo havzasidagi nam ekvatorial o'rmonlarni yoki baland tog' o'lkasi — Tibet manzarasini tasvirlab berish kerak.

VI—VIII sinflarda joy va hodisalarni tasvirlash, tushuntirish, sharhlash va ilmiy dalillar bilan qo'shib olib boriladi. Bir dars davomida, V—VI sinflarda hikoyaga 5—10 minut, VI—VII sinflarda 10—15 minut, VIII—IX sinflarda 15—20. minut vaqt ajratilishi ma'qul. Uqituvchi hikoyasini xrestomatiya ma'lumotlaridan, ilmiyommabop va badiiy adabiyotlardan parcha o'qib berish bilan birga qo'shib olib borishi ham mumkin.

Leksiya. Takomillashgan dasturda umumlashtiruvchi bo'limlar joriy etilishi bilan, iqtisodiy geografiya kurslarida leksiyaning ahamiyati yanada ortdi.

Leksiya o'quvchilardan uzoq muddatgacha tinglashni talab etadi. SHuniig uchun u asosan yuqori sinflarda qo'llaniladi. Leksiya bir darsda 25—30 minut davom etishi mumkin.

Leksiya tasvirlash va tushuntirish elementlarini qamrab oladi. Leksiyaga qo'yiladigan asosiy talab—mazmunan bir butun bo'lishi, u qamragan masalalarning tugal bo'lishidir.

Maktab geografiya kurslarida leksiya kirish va yakunlovchi temalarda, umumiy xarakteristika talab etiladigan temalarda qo'llaniladi. Masalan, «Zakavkazye ittifoqdosh respublikalariga umumiy obzor», «Dunyo siyosiy kartasi» kabi temalarni o'rganishda leksiyadan foydalanish mumkin. Leksiya usulida o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish maqsadida o'rganilayotgan materialning ifoda tartibi, ya'ni leksiya planini sinf doskasiga yozib, tushuntirish jarayonida asosiy o'rinlariga alohida e'tibor berib borish lozim.

Maktab leksiyasi ta'limning boshqa metodlari bilan birgalikda olib boriladi. Leksiyada o'quvchilarning mustaqil ishlashlari uchun odatda vaqt ajratish imkoniyati yo'q. Ammo, leksiya o'quvchilarni nazariy bilimlar bilan qurollantirib, keyingi darslarda olib boriladigan mustaqil ishlar uchun zamin yaratib beradi.

Uqituvchidan leksiya jarayonida vujudga kelgan o'quvchilarning savollariga javob berish, yangi tushunchalarga izoh berish talab etiladi.

Suhbat

Suhbat metodida o'qituvchining savoli va o'quvchining javobi asosiy o'rin tutadi. Uqituvchi suhbat vaqtida o'quvchilar fikrini o'rganiladigan geografik ob'ekt va hodisalarning asosiy belgilariga yo'naltiradi va ularning bilish faoliyatlarini boshqarib boradi. Uqituvchi darsda o'rganiladigan temani e'lon qiladi, ba'zi zarur savollarni o'rta tashlaydi, suhbatni mantiqiy qismlarga bo'ladi, o'quvchilar javobini tinglaydi, ularning javoblaridagi xatoni tuzatadi va to'ldiradi. SHundan so'ng o'quvchilarni yakun yasashga undaydi.

Uqituvchi suhbat vaqtida karta va turli ko'rsatmali qurollardan, o'lka materiallaridan, shuningdek, o'quvchilarning ilgari olgan bilimlaridan keng foydalanadi. Beriladigan savollar o'quvchilarga geografik qonuniyatlarni tushunib olishga yordam beradi.

Demak, geografiya ta'limining mazkur metodida o'quvchilar dasturda berilgan materiallarni boshka metodlarga nisbatan ancha yaxshiroq o'zlashtiradilar. Suhbat metodi bilan ish olib borilganda yangi materiallarni o'rganish bilan o'quvchilar bilimini aniqlash birga olib boriladi va o'quvchilar bilan yakkamayakka ishlash uchun qulay sharoit vujudga keladi. Uqituvchi «orqada qoluvchi» o'quvchilarni ham darsga faol ishtirok ettira oladi.

Suhbat o'quvchilarni materialni mustaqil o'rganishga jalb eta olganligidan, o'qituvchi suhbatdan bilimni ishonchga aylantiruvchi vosita sifatida ham foydalanadi. Suhbat o'quvchilarning o'z fikrlarini isbotlovchi tarzda ifoda qilishga o'rgatibgina qolmasdan, ularni turli bilim manbalari (karta, globus, kolleksiya, gerbariy va h. k.) bilan mustaqil ishlay olishga o'rgatadi.

SHularga ko'ra «suhbat» ni geografiya ta'limidagi eng etakchi metodlardan biri deb hisoblash mumkin. SHuni xam aytish kerakki, suhbat metodi hamma darslarda qo'llanavermaydi. Masalan, quyosh sistemasidagi sayyoralar, Erning Quyosh atrofidagi harakati, Abu Rayhon Beruniyning geografiya faniga qo'shgan hissasi kabi bilimlarni o'quvchilarga suhbat metodi orqali o'rgatish qiyin. O'quvchilar zarur bilim zapasiga ega bo'lgan taqdirdagina suhbat metodidan foydalanish lozim bo'ladi. Suhbat metodi bir necha usullardan iborat.

Savoljavob (katexizik) suhbat. Bu usulda o'quvchilar o'qituvchi savoliga qisqa javob

beradilar, savoljavob orqali fakt va geografik ob'ektlarning joylanishi haqidagi bilimlar aniqlanadi. Masalan, cho'l zonasi Er sharining qaeqlarida tarqalgan? Afrika bilan Evrosiyo chegarasi qaeqlardan o'tadi. Tog' deb nimaga aytamiz? Geyzer nima?

Savoljavob usulida o'quvchilarning ilgari olgan bilimlari takrorlanadi.

Keng ko'lamdagi (evristik) suhbat. Bu usulda o'qituvchi o'quvchilar oldiga ma'lum bir problematik masala qo'yadi. Keyin o'qituvchi yordamchi savollar va ayrim ma'lumotlarni eslatish yo'li bilan o'quvchilarni ilgari olgan bilimlariga tayanib masalani mustaqil hal etishga undaydi. Savollar berilganda shuni e'tiborga olish kerakki, berilgan javob asosiy fikrni isbotlashi va shu fikrni davom ettirishi lozim. Masalan, materiklar geografiyasi kursida Evrosiyo iqlimini o'rgakishda iqlim kartasida quyidagi savollarga javob berishni talab qilish mumkin: Osiyoning markaziy va sharqiy qismida yozda havo temperaturasi qanday? SHu joyda qishki temperaturalar qanday? Markaziy va SHarqiy Osiyo havo temperaturasining yillik amplitudasi qanday? Markaziy Osiyo bilan SHarqiy Osiyo temperaturasi amplitudasining bunchalik farq qilishiga sabab nima? Markaziy bsiyo bilan SHarkiy Osiyoda yog'in miqdori qanday? YOg'inlarning bunchalik farq qilishiga sabab nima? Sovuq kunlar Markaziy va SHarqii Osiyoda qancha vaqt davom etadi?

Iqlim diagrammasiga qarab SHarqiy Osiyoda yil davomida yog'inning taqsimlanishini aniqlanishicha nima uchun ko'p yog'adi? Qadvaldan foydalanib SHarqish Osiyo iqlim xususiyatini tushuntiring. O'quvchilar Markaziy Osiyoning iqlim xususiyatini aniqlagach, o'qituvchi shu joyda qanday iqlim tiplari borligini aytib beradi. SHarqiy Osiyoning iqlim tipi ham shu tariqa belgilanadi,

Keng ko'lamdagi bu xil suxbat asosan yangi bilimlarni o'rganishda va yakuniy takrorlashda foydalaniladi. Tabiiy geografiya boshlang'ich kursiniig ko'p temalarida, materiklar geografiyasi va tabiiy geografiyasi kurslarida, O'zbekiston tabiiy geografik rayonlarining geografik o'rni, iqlimi, ichki suvlarini o'rganishda evristik suhbat qo'l keladi.

Suhbat metodini didaktik maqsadiga qarab uch xilga bo'lish mumkin:

Kirish suhbat. Bu suhbatning maqsadi yangi bilimni yaxshiroq o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan (ilgari o'zlashtirilgan) bilim va ko'nikmalarni o'quvchilar xotirasida qayta tiklashdan iborat.

Urganish suhbat. Bu suhbatning maqsadi yangi bilimni o'quvchilar olgan bilim asosida o'rganishdan iborat. Bunday darslarda o'rganilgan yangi bilim shu darsda olib boriladigan mustaqil ishlarda tatbiq etib ko'rilishi maqsadga muvofiqdir.

3) YAkunlovchi suhbat. Suhbatning bu turi takrorlash va bilimlarni muayyan bir tartibga tushirish, shuningdek, o'rganilgan narsalarni umumlashtirish va kengaytirishda tatbiq etiladi. Suhbat o'quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab murakkablashib borishi lozim.

18. Darslnk va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash

Darslik bilan ishlash. Hozirgi geografiya darsliklaridan foydalanish uchun bir necha ta'lim metodlarini tadbiq etishga to'g'ri keladi. Darsning barcha bosqichlarida darslik bilan muntazam ishlab borish — mustahkam bilim, ko'nikma berishdagi, o'quvchilarning bilish qobiliyatlarini rivojlantirishdagi asosiy yo'nalishdir. O'quvchilarni kitobdan foydalanishga o'rgatish maktab geografiyasi oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan biridir. Darslik o'quvchilar uchun asosiy qo'llanma, ular oladigan bilimlarning eng muxim manbaidir.

Maktabda darsliklarning ta'limtarbiya berishdagi barcha imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmoqda, deyish qiyin. Ko'pchilik maktablarda yangi materialni o'rganishda darslikdan kam foydalaniladi, o'quvchilar bilimini aniqlashda esa mutlaqo foydalanilmaydi. Oqibatda

ko'pchilik o'quvchilar darslik bilan ishlashni bilmaydilar, berilgan topshiriqqa oid javobni darslik tekstidan topishga qiynaladilar, zarur illyustrasiya va jadvallarni uzoq vaqt qidiradilar.

SHuning uchun darslik bilan ishlash eng muhim pedagogik masaladir. O'quvchilar darslik bilan o'qituvchi rahbarligida ishlaydilar. Uqituvchi o'quvchilarni darslik bilai o'quv yilining boshida birinchi darsda tanishtiradi: darslikning titul varag'ini o'quvchilar ochib darslikning nomi va muallifini bilib oladilar, darslikning eng oxirgi varag'ida mundarija bilan tanishadilar. Uqituvchi darslikning kartalari, sxemalari, jadvallari, profillari, rasmlari, ilovalari, savollari, topshiriqlari va ularning ahamiyatini tushuntirib, darslik bilan ishlash yo'llari haqida umumiy ko'rsatma beradi.

Sinfda darslik bilan ishlash usullari turlicha bo'lib, ulardan biri tekst bilan ishlash va yangi bilim olishdir. Darslik teksti bilan ishlashnya izohli o'kishdan boshlash ma'qul izohli o'qish V va VI sinflarda o'quv yilining boshlaridanoq boshlanadi. Tekstning ma'lum qismi o'qilgach, o'quvchi uning mazmunini o'z so'zi bilan ifodalab berishi kerak. O'qituvchi tekstda uchragan qiyin iboralar va yangi terminlarga izoh berib, geografik ob'ektlarni kartadan ko'rsatadi.

Darslik bilan ishlashning yana bir usuli darslikning ayrim temalariga plan tuzishdir. Bunda o'quvchilar tegishli tekstni o'qib chiqqach, uni qismlarga bo'ladilar, eng muhimlarini ajratadilar, ajratilgan qismlarga kichik temalar belgilaydilar. O'quvchilar darslikdagi ayrim temalarga plan tuzib bo'lgach, uning mazmunini punktlar bo'yicha bayon etadilar.

O'quvchilar bunday jadvallarni to'ldirishlari uchun faqat darslik tekstini anglash va tushunishlari kifoya qilmaydi, ular ilgari olgan bilimlarni esga olishlari kerak.

Darslikdagi rasmlar bilan ishlashning ahamiyati katta. Ba'zi rasmlar o'qituvchi tomonidan oldindan tuzilgan savollar asosida tahlil qilinadi. Masalan, «Evrosiyoning ekvatorial o'rmoni» rasmini analiz qilinayotganda quyidagi savollar berilishi mumkin: ekvatorial o'rmonlari o'simliklarining xususiyatlari nimalardan iborat? Urmonlar nima uchun bunchalik quyuq va xilmaxil Ekvatorial o'rmonlar o'rtacha mintaqaning qaysi tabiat zonasiga o'xshaydi? Bu rasmda yil ning qaysi fasli tasvirlangan?

Darslikdagi topshiriqlarni bajarishga alohida e'tibor berish zarur. O'quvchilarning mustaqilligini orttirish uchun o'qituvchi topshiriqlarni o'qitmay, «birinchi topshiriq»qa yoki «uchinchi topshiriq»qa javob talab qilishi mumkin. Buning uchun o'quvchilar har bir topshiriq mazmunini darslikdan o'qib olib, javob tayyorlaydilar.

Uqituvchi o'quvchilarni darslikda berilgan raqamli ma'lumotlar bilan ishlashga o'rgatishi lozim. Bu ma'lumotlardan geografik ob'ektlar, o'lkalar va tabiiy geografik rayonlarni ta'riflashda foydalaniladi. Masalan, VI sinfda o'quvchilarga er sharidagi yirik daryolar uzunligini ko'rsatuvchi diagramma, VII sinfda materiklar kattaligini tasvirlovchi diagramma va VIII sinfda yil davomida biron joyning yog'in miqdorining o'zgarishini ko'rsatuvchi diagramma yoki havo temperaturasini ko'rsatuvchi grafik chizishni topshiriq tariqasida berish mumkin.

YAngi materialki darslikdan mustaqil o'rganish ham mumkin. Tanlangan temani mustaqil o'rganishdan avval o'qituvchi o'zining kirish so'zida dars temasining mazmuni bilan qisqacha tashitiradi va tegishli paragrafni mustaqil o'rganish uchun o'quvchilarga topshiradi. Tanlangan tema aniq, o'quvchilarga tushunarli bo'lishi kerak. Uqituvchi o'quvchilarning javob tayyorlashi lozim bo'lgan savollarni sinf doskasiga yozib qo'yadi. O'quvchilar taxminan 15 minut davomida darslik tekstini o'qib savollarga javob tayyorlaydilar. Uqituvchi o'quvchilarning javobini qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'ldiradi, oxirida o'qituvchi javoblarni umumlashtirib tegishli xulosalar chiqaradi.

Materiklar geografiyasi kursidan Janubiy Amerikaning daryolari va ko'llari temasini darslikdan mustaqil ravishda o'rganishga tavsiya etish mumkin. Materialni mustaqil o'rganish uchun tegishli ko'rsatmalar berar ekan, o'qituvchi Amazonka daryosk, sharshara va ko'llarning xususiyatiga e'tibor berish zarurligini uqtiradi, so'ngra u sinf doskasiga quyidagi: Janubiy Amerikani daryolari okean havzalari bo'yicha qanday taqsimlangan? Amazonka daryosining asosiy xususiyati nimadan iborat? Amazonkaniig sersuvligi, uzunligi va kattaligi jihatidan Kongo, Nil daryolari bilai taqqoslang. Parana daryosi suv rejimini Amazonka suv rejimi bilan taqqoslang. Orinoko daryosini ta'riflab bering. Janubiy Amerikadagi sharsharalar qanday xususiyatga ega? Janubiy Amerika ko'llarini ta'riflang, degan savollarni yozib qo'yadi. Bu savollar yordamida

o'quvchilar o'zlashtirgan bilim aniqlanadi. O'quvchilarning javobi baholanadi.

Darslikdan yangi bilim va ma'lumotlarni o'rganishning bu usuli o'quvchilarning mustaqil ishlari sifatida ham katta ahamiyatga ega. O'quvchilarning javob berishi uchun darslikning har qaysi paragrafi oxirida berilgan savol, mashq va toishiriqlardan foydalanish mumkin. Darslik bilan ishlanganda o'quvchilarning bergan javoblari ular bilimini baholashda hisobga olinadi.

Qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash Darslik bilan ishlashdan tashqari, o'quvchilarni qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlashga qiziqtirish, undan zarur geografik ma'lumotlarni topa olishga o'rgatish lozim. O'quvchilarni qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlashga qiziqtirish uchun o'qituvchi ilmiyommabop va badiiy adabiyotlardan qiziq faktlar, ajoyib o'simliklar yoki hayvonlar haqida, aholining urfodatlari haqida so'zlab berishi kerak. Qo'shimcha adabiyotlar yuzasidan beriladigan topshiriq bir yoki bir necha o'quvchiga topshirilishi mumkin. Topshiriq bajarilgach, sinfda yoki sinfdan tashkari vaktida kishqacha axborot beriladi.

Qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlashda ko'proq o'z respublikaskning tabiati va aholisining mehnat faoliyatini yorituvchi ilmiyommabop va badiiy adabiyotlarni tavsiya etish alohida ahamiyatga egadir. Qo'shimcha adabiyot bilan ishlash geografiya fanining asoslarini o'rganish va o'quvchilarning bilim doiralarini kengaytirishda katta ahamiyatga ega.

19. Geografik kartalar bilan ishlash

Geografiyani kartasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Karta geografiya o'rganadigan barcha predmet va hodisalar haqida hikoya qila oladi, karta tez, aniq va lo'nda qilib hikoya qilishda kitobdan ham afzallik qilishi mumkin. Maktabdz geografiya o'rganilar ekan, u bilan birga karta ham o'rganiladi. Geografkya sohasida olib boriladigan har qanday tadqiqot ishlari kartasiz bajarilmaydi. Karta — geografiya darslarida bilim olishning asosiy manbaidir. SHunday ekav har bir o'quvchi kartaii o'qiy olishi lozim. Agar o'quvchi kartaga qarab hali o'rganilmagan dengiz yoki daryo haqida gapira olsa, tog'larning balandligi va yo'nalishini aniqlay olsa, ma'lum bir joyning er yuzasini yoki iqlimini ta'riflay olsa, bu o'quvchi kartani biladi, deyish mumkin.

Qartadan to'g'ri foydalana olishni o'rganish uchun geografiya o'qituvchisi o'quvchilarni har qaysi yangi karta bilan mana bunday tartibda tanishtirib borishi lozim: kartaning turi, undan qanday maqsadda foydalanish va uning shartli belgilarini tushuntirishi; o'quvchilar e'tiborini karta masshtabiga jalb etishi; kartadagi joyni ko'z bilan chamalab o'lchay olishlari uchun «o'lchov» sifatida xizmat qiladigan «mo'ljal»larni ko'rsatib o'tishi (masalan, Qora dengiz, Qaspiy dengizi va Saxalin orolining bo'yi 1000 km. Baykal va Tangańika ko'llarining bo'yy 600 km); karta proeksiyasining xususiyatini ko'rsatib o'tishi lozim.

Bundan tashqari, o'qituvchi o'quvchilar e'tiborini gradus to'ring holati, meridian va parallellarining qanday o'tkazilganligiga, kenglik va uzunlikni belgilangan o'rniga, ekvator, bosh meridian, qutbiy va tropik doiralarga jalb qilishi lozim. Globusdagi joy kartada boshqacha tasvirlanganligini ko'rsatib o'tishi kerak.

Qarta bilan ishlash. Geografiya o'qituvchisining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarga kartani tushunish va o'qiy olishni o'rgatishdir. Kartani bilishning ma'nosi shuki, o'quvchilar undagi shartli belgilarga tushunishlari va shu shartli belgilar orqali ko'rsatilgan predmet va hodisalarning obrazlarini ko'z oldilariga keltira olishlari, kartaga qaraganlarida ular ongida daryolar, tog' tizmalari va muzliklarning manzaralari hosil bo'lishi kerak.

Qartani bilish uchun joyda orientirlashni, gorizont tomonlari yo'nalishlarini qogozda tasvirlashni, masshtab bilan ishlashni, joy planini o'qishni va chizishni bilish kerak. Undan keyin esa o'quvchilar globus va kartalarda geografik kenglik va uzunliklarni aniqlash, turli mazmundagi (tabiiy, iqlim, tuproq, o'simlik, aholi va boshka) kartalarni o'qishni, kartaning asosiy afzal va kamchilik tomonlarini aniqlashni bilishi lozim. O'quvchilar kartani bilsalar shartli belgilar va yozuvlar asosida territoriyani tasvirlashga o'rganadilar. SHu bilan birga o'quvchilar kartani sharhlashga hamda o'zaro aloqa va munosabatlarni ochib berishga hamda kartada bevosita ko'rsatilmagan narsalarni ham aytib bera olishga o'rganadilar.

Kartani o'qish. Qartani o'qish ko'nikmasi geografiyaning barcha kurslari davomida geografik

materiallarni o'rganish bilan birga shakllanadi. Kartani maxsus mashqlar yordamida ham, geografik materialni o'rganish prosessida ham o'qishga o'rgatib boriladi.

Kartani o'qishdan avval kartani tushunish kerak. Kartani tushunish uchun esa kartaning «alifbesi»ni bilish zarur. Ammo o'quvchiga karta alifbesi o'rgatilsayu, kartani o'qishga oid mashqlar o'tkazilmasa, u samarali natija bermaydi.

O'zbek tilida o'qitiladigan maktablardagi asosiy o'quv kartalari rus tilidadir. Binobarin, kartada ko'p uchraydigan geografik termin va iboralarning ma'nosini — tarjimasini o'quvchilarga aytib tushuntirib berish kerak. O'quvchilarga geografik terminlariing ruscha o'zbekcha lug'atini tuzdirib borish maqsadga muvofiqdir. Bunday ishlar uchun darsda sarf etilgan 2—3 minut vaqt, o'quvchilarning 10—15 minut vaqtini tejaydi.

Kartani o'qish malakasini egallash uchun avvalo uning shartli belgilarini bilish zarur. O'quvchilar joydagi predmetlari planda tasavvur qila olishlari kerak. Agar o'quvchilar ko'z bilan chamalab plan olishda bevosita ishtirok etgan va uni tushunib etgan bo'lsalargina topografik kartaning shartli belgilarini, qolaversa, boshqa geografik kartalarni yaxshi tasavvur eta oladilar.

Kartani o'qiy olish avvalo oddiy tarzda bo'lib, borabora murakkablashtirilib boriladi. VI sinf o'quvchilari oddiy savollarga javob berishlari mumkin. Masalan, O'zbekistonda rel'efning qanday shakllari uchraydi, degan savolga, o'quvchilar kartaga qarab, O'zbekistondagi muhim tor va pasttekisliklarni ko'rsatib berish bilan kifoyalanadilar. Bunday ish VII sinfda ancha murakkablasha boradi. Kartani o'qish murakkablashgan sayin o'quvchilarning bilimi ham chuqurlashib boradi. Masalan, Markaziy Osiyo er yuzasini qanday tasvirlash mumkin? Markaziy Osiyoning g'arbida rel'efning qanday shaklini ko'rish mumkin? Pomirdan shimol va sharqda qanday tog' tizmalari joylashgan? Pomirdan sharqda, u bilan deyarli bir kenglikda qanday tog' joylashgan, uning nomi nima? Tibetni janubdan kanday tog'lar o'rab turadi? Uning balandligini aniqlang. Himolay tog'lari qaysi yo'nalishda joylashgan va uning uzunligini aniqlang va h. k.

O'quvchilar keyinchalik kartada berilmagan ayrim ma'lumotlarni ham bilib olishga intiladilar. Kartani o'qish asosida tegishli xulosa va yakunlar chiqara olishlari uchun o'quvchilarga beriladigan savollar nazariy bilimlarga asoslanuvchi, hodisa sabablarini aniklovchi savollar bo'lishi kerak. Masalan, mana bunday: Ximolay tog'larining janubkda yogin nima uchun juda ko'pu, shimolida kam? Qoraqum bilan Qizilqumning cho'l bo'lishiga sabab nima? degan savollar.

O'quvchilarniig kartadan oladigan bilimlari ma'lum bir tartib, plan asosida (masalan, joyning geografik o'rni quyidagi tartibda: joyning nomi, u joylashgan materik, uning geografik kengligi va uzunligi, dengiz va quruqlikdagi chegaralari, geografik o'rnining qulay va noqulayligi) bo'lishi kerak.

Kartani o'qish ko'nikmalarini takomillashtirishda karta bo'ylab «sayohat» ning ahamiyati katta. O'quvchilarni «sayohat» marshrutlari bilan tanishtirish kerak. Kartada qilinadigan «sayohat» bklan o'quvchilar kartani jonlantiradilar, kartadagi ob'ektlarni o'zlari o'sha joylarda bo'lgandek hikoya qilib beradilar.

Evrosiyo temasiga oid bir necha «sayohat» marshrutlarini ko'rib chiqaylik.

1 marshrut. Londondan Evrosiyoning janubiy qirg'oqlark bo'ylab kemada Vladivostokkacha sayoxat.

2marshrut. Toshkent — Kobul — Dexdi (avtomashinada) — Kal'kutta (poezdga) — Jakarta (kemada) sayohati.

3 marshrut. Toshkent kengligi bo'ylab Evrosiyoning g'arbiy chekkasndan sharqiy chekkasigacha samolyotda sayohat.

Bu sayoxatlarda o'quvchilar Evrosiyoning turli mazmundagi kartalari, rasmlar, gerbariylardan foydalanadilar. Birinchi marshrutda o'quvchilar kanday okean, dengiz, bo'g'oz orqali, qaysi yarimorol va orollar yonidan o'tganliklari haqida dengizlarning muzlash yoki muzlamaslik sabablari haqida so'zlab beradilar. Ikkinchi va uchinchi marshrutlarda yo'lda uchragan har bir joyning er yuzasi, dengizlar, iqlimning o'ziga xos xususiyati, daryo va ularning xususiyati, o'simligi va hayvonoti, aholisi haqida, shuningdek sayohat uchun qulay vaqt va yo'lda uchraydigan qiyinchiliklar haqida gapirib beradilar. «Sayohat» vaktida xar bir joyning tabiiy sharoitini o'z o'lkasining tabiiy sharoiti bilan taqqoslab boradilar. Bir marshrutga 2—3 o'quvchi (marshrutni bir

necha qismga bo'lib) javob berishi mumkin. Qarta bo'ylab qilingan sayohat o'rganilgan materialni mustahkamlash va takrorlash maqsadida tashkil etilishi mumkin.

Kartalarni solishtirish. O'quvchilar ongida geografik tasavvur va tushunchalar hosil qilishda solishtirish usuli katta ahamiyat kasb etadi. Turli mazmundagi kartalarni solishtirish bilan o'quvchilar biron joyning geografik xususiyatini aniqlaydilar, tabiatning o'ziga xos xususiyatlari haqida tegishli xulosalar chiqaradilar va birbiriga bog'liq bo'lgan oddiy geografik qonuniyatlarni aniqlaydilar.

Kartalarning birbiriga solishtirish usuli o'quvchilarning kartalarni qunt bilan o'qishlariga, ulardan ko'prok ma'lumot olishlariga yordam beradi.

Avstraliya, Janubiy Amerika, SHimoliy Amerika va Evrosiyoning tabiiy geografik sharoitlarini o'rganishda o'quvchilar meridional yo'nalishda joylashgan tabiat zonalariga duch keladilar. Masalan, o'quvchilarga SHimoliy Amerikadagi zonalarining joylashish xususiyatlarini va uning sabablarini aniqlash uchun umumgeografik, iqlim va o'simlik kartalarini birbiriga solishtirish vazifasi topshiriladi. O'quvchilar kartalarni tahlil qilib okean va dengiz oqimlari hamda reliefning iqlim sharoitiga ta'sirini va shunga muvofiq holda zonalarining joylashishini aniqlaydilar. SHunday qilib, turli mazmundagi kartalarni solishtirish o'quvchilarga SHimoliy Amerikaning geografik o'rni va er yuzasining xususiyati tabiat zonalarining meridional holda joylanishiga sababchi bo'lgan, degan xulosa chiqarishga imkon beradi.

Solishtirish usulida kartani tahlil qilishga o'rgatish muayyan bir tartib bilan olib boriladi.

O'quvchilarga ikkita kartani birbiri bilan solishtirish va tabiat elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarini aniqlash tavsiya etiladi. Masalan, Afrikaning (VII sinf) umumiy obzorida umumgeografik va iqlim kartalaridan iqlim bilan relief o'rtasidagi, iqlim sharoiti bilan daryo rejimi o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni aniqlash vazifasi topshiriladi. Evrosiyoning tabiiy geografik o'lkalariga geografik xarakteristika berishda o'quvchilar bir qancha kartani masalan, umumgeografik, iqlim, tabiat zonolari, aholi va siyosiy kartalarni solishtiradilar, ular tabiatning asosiy elementlari, aholi faoliyatining ayrim tomonlari o'rtasidagi bog'lanishlarini aniqlaydilar.

Kartalarni odatda suhbat yo'li bilan solishtiriladi, masalan, o'qituvchi o'quvchilarga savol beradi, o'quvchilar savollarga kartalar asosida javob berish bilan faktik ma'lumotlarni aniqlaydilar va bu kartalarni birbiriga solishtirib tegishli xulosalar chiqaradilar.

O'Xuvchilarda karta haqidagi tasavvurlarni shakllantirish. Bunday tasavvurlar kartadan geografik ob'ektlarni ko'rsatish, bu ob'ektlarning nomini yozdirish, muhim faktlar keltirish, ko'rsatmali qurollar ko'rsatish, didaktik materiallardan foydalanish, geografik diktant olish, sxema va kartasxemalar chizdirish, kontur kartalar bilan ishlash yo'li bilan hosil qildiriladi.

O'quvchilar geografik nomlar va ob'ektlarning er sharida tutgan o'rnini bilmay turib, ular haqidagi ma'lumotlarni ongli holda o'zlashtira olmaydilar. Uqituvchi o'quvchilarni yangi geografik ob'ektlar bilan taniqtirar ekan, ularni avval devoriy kartadan ko'rsatib, so'ngra bu ob'ektlarni atlas yoki darslik kartasidan topishni va ularning joylashgan o'rni haqida gapirib berishni taklif qiladi.

O'quvchilar ayrim geografik nomlarni (masalan, Skandinaviya, Kordilera, Atlantika, Antarktida, GOLFstrim, Klimanjaro, Nyufauldlend, SixoteAlin va x. k.) hamma vakt to'g'ri tallafuz etavermaydilar. SHuning uchun joylarning nomlarini to'g'ri talaffuz etish va to'g'ri yozishga o'rgatish lozim. Qiyin geografik nomlarni urg'usi bilan sinf doskasiga yozib qo'yilsa va o'qitib ko'rilsa yaxshi natija beradi.

O'quvchilar geografik ob'ektlarni yaxshiroq eslab qolishlari uchun, ularning manzarasi, fotosurati yoki rasmini ko'rsatish zarur. Ayrim hollarda nomlarning qaerdan kelib chiqqanini o'rganilayotgan joy bilan bog'liq bo'lgan voqealarni aytib berish lozim.

Atoqli sayyoh va tadqiqotchi nomi bilan bog'liq bo'lgan geografik nomlarni o'rganishda, mazkur joyga qachon va nima uchun shu nom berilganligini o'qituvchi izohlab o'tadi. SHu zaylda o'rganilgan nomlar uzoq vaqt xotiralaridan ko'tarilmaydi. u

O'quvchilar xotirasida kartadagi ma'lumotlarni mustahkamlashda qo'lda ishlangan didaktik materiallardan (shartli belgilar, doirachalar, «o'q»lar, turli shakllchalardan) foydalaiish ham yaxshi

natija beradi.

Didaktik materiallardan biri bo'lgan doirachalar karta bilan mustaqil ish olib borishda ham zarurdir. Doirachalar bilan ishlash VI, VII va VIII sinflarda olib borilishi mumkin. O'quvchilar kartondai diametri taxminan 1,5 sm keladigan doirachalarni qirqib oladilar. Doirachalar qizil, yashil, sariq, zangori, jigar rangda bo'ladi. Tayyorlangan doirachalar kichik paketcha yoki konvertida saqlanadi. Doirachalarning miqdori 25—30 ta bo'lishi mumkin.

O'quvchilar doirachalar bilan ishlaganda ma'lum rangdagi doirachalarni bir xil ob'ektga qo'yib chiqadilar. Bu ishning afzalligi shundaki, o'qituvchi har bir o'quvchining ishini yaxshi kuzatib boradi. O'quvchilar bu ishni qiziqib bajaradilar. Masalan, materiklar geografiyasi kursidan Evrosiyoning Tinch okean dengizlarini o'rganishda, atlasdan tegishli karta varag'i ochtirilib shunday deyiladi:

Tinch okean dengizlariga yashil doirachalar, yarim orollariga qizil doirachalar, orollariga sariq doirachalar qo'yib chiqing.

O'quvchilar bunday ishlarni qiziqish bilan bajaradilar. Har bir doiracha tegishli geografik ob'ektga qo'yilayotgan vaqtda shu joyning nomini ham bilib oladilar.

VIII sinfda «O'zbekistonning geografik o'rnini va chegaralari» temasi o'rganilayotganda ham doirachalardan foydalanish mumkin: qo'shni mamlakatlarga qizil, kapitalistik mamlakatlarga oq doirachalar qo'yib chiqiladi. Bu ish bajarilib bo'lgandan keyin mamlakatlar ham, kapitalistik mamlakatlar ham yaqqol ko'rinib qoladi. Bunday ishni oldindan tayyorlab qo'yilgan kizil va oq bayroqchalar bilan ham bajarish mumkin.

O'zbekistonning foydali qazilmalarini o'rganishda dastur talab etgan foydali qazilmalarni aytib, kartada foydali qazilmalar chiqadigan joyiga ularning belgilari qadab chiqiladi. Izoterma chiziqlari va tabiat zonalarishshng chegaralariiii kartada rangli iplar bilan belgilab qo'yiladi, shamolning esish tomonlari «o'q» bilan ko'rsatiladi.

Ba'zan kartalarga belgilar o'rniga «jadvalcha»lar ham qadash mumkin. Masalan, O'zbekiston kartasiga iqlim ko'rsatkichli quyidagi «jadvalcha»lar qadaladi:

Belgilar kartaga qadalganda sinfnng orqa partalarida o'tirgan o'quvchilarga yaxshi ko'rinadigan bo'lishi kerak.

Bayroqcha, foydali qazilmalar belgilari, iqlim jadvalchalari plastilin yoki to'g'nag'ich bilan, rangli iplar, «o'q» ko'rsatkichlari plastilin bilan kartaga qadab qo'yiladi.

Globus bilan ishlash. Globus geografiya uchun eng zarur qo'llaemadir. Er sharining modeli — globusning qimmatli va o'ziga xos xususiyati uning teng masshtabligidir. Globus — Er haqida to'g'ri tasavvur beradigan, maydon va eng qiska oraliqlarni (ortodromiya) to'g'ri ko'rsatadigan va ifodalaydigan asosiy o'quv kurolidir. Globus o'quvchilarga bir kancha noaniq narsalarni bilib olishga imkon beradi.

Globus bilan asosan V sinfdai boshlab ishlanadi. Tabiatshunoslik kursida erning sharsimonligi, qutb, meridian, parallel va ekvator hakidagi tushunchalar, erning sutkalik va yillik xarakati, erning «usti» va «osti» yo'qligi kabi bir qancha masalalarni faqat globus yordamida o'rganish mumkin.

Yirik geografik ob'ektlar (materiklar, okeanlar, mamlakatlar) ning shakli, joylanishini globussiz to'g'ri tasavvur qilib bo'lmaydi. Ularning yarimsharlardagi tasviri globusdagi haqiqiy tasvirdan farq qiladi, ba'zilar ega yarimsharlar va dunyo kartalarida bo'lib ko'rsatiladi. CHunonchi, Atlantika, Tinch, SHimoliy Muz okeanlari va Antarktida materigi yarimsharlar va dunyo kartalarida ikki bo'lak holda tasvirlanadi.

Er sharining tabiati Quyoshdan tushadigan nurning tik yoki qiyaligiga bog'liq ekanligi xam globusdan o'rganiladi.

YArimsharlar va kartalari bilan ishlaganda o'quvchilarga globusdagi qavariq yuza kartada tekis yuza holda tasvnrlnishini tushuntirish kerak.

Kartada meridianlarning shimoliy va janubiy yo'nalishlarini, parallellarining sharqiy va g'arbiy yo'nalishlarini ham globusda mashq qilib, keyin kartalardan aniqlansa to'g'ri tushuncha hosil bo'ladi; geografik kenglik va uzunliklarni topishga, aniqlashga oid ko'nikmalar xosil qilish uchun ham globusda mashq bajarish kerak.

Ba'zi o'qituvchilar VI sinfdan keyin globusdan foydalanmay qo'yadilar. Bu to'g'ri emas. Globusdan butun geografiya ta'limi davomida foydalanish lozim.

Havo transporti va raketa texnikasi rivojlangan hozirgi davrda globus ayniqsa katta amaliy ahamiyatga ega. Hozir globus aeronavigasiya va kosmik, uchishlarda ham qo'llanilmoqda.

Globus barcha tabiiy geografiya kurslarida, xususan quyidagi masalalarni xal etishda: erning umumiy ko'rinishini tasavvur etishda; erning sharsimonligini isbotlashda; er yuzasidan ko'tarilgan sari gorizontning kengayib borishini tushuntirishda; materiklar bilan okeanlarning o'zaro xolati, kattaligi, shakllarini o'rganishda; qutb nuqtasining xususiyati va qutbdagi yo'nalishlarni o'rgaiishda; qutb, ekvator, meridian, parallellarni o'rganishda; yarimshar tushunchalarini egallashda; erning o'z o'qi atrofidagi harakatini, kun va tunning hosil bo'lishini tushuntirishda; Erning Quyosh atrofidagi yillik harakatini tasavvur etishda; Er o'qining orbita yuzasiga nisbatan og'ganligini tushuntirishda; yil fasllarini o'rganishda; oyning er atrofidagi harakatini o'rganishda; oy fazalarining vujudga kelishini tushuntirishda; quyosh va oy tutilishini o'rganishda; er sharidagi «yuqori» va «kuyi» tushunchalarini hal etishda; erning kattaligi va ellipsligini tushuntirishda; er sharining kattaligiga nisbatan tog' tizmalarining balandligini tasavvur etishda; gradus to'rini o'rganishda; kenglik va uzunlikni tasavvur etishda; geografik koordinatalarni belgilashda; Quyosh nurini er sharining turli kengliklarida turli burchak bilan tushishini ko'rsatishda; tropiklar va qutbni, doiralarni tushuntirishda; er sharining issiqlik mintaqalarini o'rganishda; ortodromiya va loksodromiyani tushuntirishda; atmosferaning umumiy sirkulyasiyasini o'rganishda; passatlarni o'rganishda; dengiz oqimlarini tushuntirishda; ekspedisiya, sayoxat va uchish yo'llarini ko'rsatishda; joyning geografik o'rnini aniqlashda; havo va suv yo'llarining uzunligini ko'rsatishda; Arktika va Antarktida tushunchalarini bilib olishda; O'zbekistonning er sharidagi o'rnini tasavvur etishda; er sharidagi ayrim nuqtalari (masalan, Toshkent bilan Moskva, N'yuYork, Tokio) o'rtasidagi eng qisqa masofani aniklashda qo'llaniladi. Globusdan, odatda, karta bilan birga foydalaniladi. Ba'zi masalalar avval globusdan, keyin. kartadan o'rganiladi.

Umumiy va hususiy geografik xaritalar

Geografiya ta'limida karta bilan ishlash metodlari boshqa metodlar bilan ayniqsa, suhbat metodi bilan bog'langan.

Karta bilan ishlash mana bunday tartibda olib boriladi:

a) er yuzasi elementlari, relief shakllari, vulkanlar, dengiz, qo'ltiq, buloqlar, daryolar, ko'llar bilan o'quvchilarni bevosita tanishtirish;

b) kartani joy bilan solishtirganda topografik kartalardagi belgi (simvol) lar bilan tanishtirish;

v) ob'ekt kattaligini ko'z bilan chamalashga o'rgatish;

g) o'quvchilarga kartografik belgilarni o'rgatish maqsadida topografik va geografik kartalarni solishtirishga o'rgatish;

d) gradus to'rini yaxshi bilib olishlari uchun geografik koordinatalarni topishni mashq qilishga o'rgatish;

e) turli masshtabli kartalardan ayrim geografik ob'ektlarni topishga o'rgatish.

Kartani tushunish. Joy planidan kartaga o'tish kartans tushunishning to'g'ri yo'lidir.

Avval maktab va maktab atrofida orientirlash o'rganilgach (orientirlay olish, yo'nalishini chizmaga chiza olish, joyda masofalarni o'lchab va masshtab asosida qog'ozga chiza olish), plan olishga (avval sinf va maktab planini, so'ngra kattaroq maydon planini chizish va shu asosda topografik plan bilan ishlash), so'ngra esa kartani (topografik plandan yirik masshtabli kartaga o'tish, undan keyin esa, mayda masshtabli kartani) tushunishga o'tiladi.

SHunday qilib, o'z joyining manzarasi va plani asosida yirik masshtabli va mayda masshtabli geografik kartalarni yaxshiroq bilib oladilar.

Ulkashunoslikka amal qilingan holda quyidagi tartibda kartani tushunish mumkin:

1) o'quvchilarda gorizont va uning tomonlari haqidagi tasavvur shakllangandan keyin ular gorizont tomonlarini qog'ozga tushira oladilar;

2) gorizont tomonlarini joyda orientirlashni yaxshi bilib olganlaridan keyin uni chizmada

orientiray oladilar;

joyda masofani aniq o'lchay olishni bilib olgach, masshtab yordamida chizmada masofani o'lchashga o'rganadilar; plan haqidagi tasavvur va oddiy plan olishni bilgandan (topografik belgilardan foydalangan holda) keyin topografik plan va topografik karta haqida muayyan tushunchaga ega bo'lish mumkin; o'quvchilar joyni topografik plan va topografik kartada tasavvur qila olgach, o'z shahar (qishloq) atrofi, o'z o'lkasi va Vatanining kartadagi tasvirini tushunib eta oladilar.

Qartani tushunish uchun gradus to'ri bilan ishlab borishga e'tibor berish kerak. Gradus to'ri ahamiyatini bilishlari va undan foydalanish uchun punkt koordinatalarini topish ustida o'quvchilarni muntazam ravishda mashq qildirib borish zarur. Mashqlarni hayotiy misollar bilan bog'lab borilsa, yaxshiroq tushuniladi. Masalan, o'quvchilarga o'z shahrida qurilgan GES lar, kanallarning boshlanish, sodir bo'lgan voqealarning o'rnini koordinatalar bilan toptirish ma'qul. O'quvchilar gradus to'ri va unga bog'liq bo'lgan mashqlarni bajarish orqali gorizont tomonlarini, ob'ektning geografik o'rnini va oraliqlarini bilib oladilar.

Qartani tushunish uchun masshtab bilan tanishish kerak. O'quvchilar kartaning qancha kichraytirilganligini bilishlari kerak. Qartadagi ayrim ob'ektlar birbiridan qancha masofada ekanligini yoki kartada ikki nuqta oralig'ini o'lchash kabi ishlarni bajarishlari lozim.

Gradus to'ridan oraliqlarni o'lchash maqsadida foydalanish va mashq qilish maqsadga muvofiqdir. Masalan, materiklar geografiyasi kursidan Evrosiyoning geografik o'rni va kattaligi o'rganilganda berilgan savollarga mana bunday javob olish mumkin: Evrosiyoning shimoliy chekka nuqtasi qaysi kenglikda joylashgan? (CHelyuskin burni, 78° sh. k. da.) SHimoliy qutbdan CHelyuskin burnigacha bo'lgan oraliqni o'lchang ($90^\circ - 78^\circ = 12^\circ$; $111 \text{ km} \times 12 = 1332 \text{ km}$). Evrosiyoning janubiy chekka nuqtasi qaysi kenglikda joylashgan? (Piay burni, 1° sh. k. da) Evrosiyo shimoldan janubga (kmometr hisobida) qancha masofaga cho'zilgan? ($78^\circ - 1^\circ = 77^\circ$; $111 \text{ km} \times 77 = 8547 \text{ km}$.)

Bunday mashqlarni boshqa temalarda ham bajarish mumkin.

Devoriy va individual xaritalar, yozuvsiz xaritalar

Devoriy kartada ishlayotgan o'qituvchi ham, o'quvchilar ham geografik ob'ektlarni ko'rsatish qoidasiga, ya'ni daryoni boshlanishidan quyilish joyigacha, shaharlar yozuvini emas, belgi — punsonni, okean, dengiz, materik, mamlakatlarni ko'rsatishga ko'rsatkichni ob'ektning o'rtasiga qo'yib, keyin uning konturini aylantirib chiqishga, yarimorollarni ko'rsatishda konturini aylantirib chiqishga, shuningdek karta oldida to'g'ri turishga rioya qilishlari zarur.

Kontur karta bilan ishlash. Kontur karta bilan ishlash geografik ob'ektlarning nomlarini, ularning kartalardagi o'rinlarini o'quvchilar xotirasida mustahkamlaydi. O'quvchilarda geografik byumlarni to'g'ri yozishga va to'g'ri talaffuz qilish, materiallarni mukammal o'rganish imkoniyati vujudga keladi. Kontur karta bilan ishlash o'quvchilarni oddiy kartasxemalar tuzishga o'rgatadi.

Maktablarda kontur kartalarni ko'pincha dars oxirida to'ldiradilar hamda ularga uyga topshiriq tariqasida beriladi. Uida bajarilgan kontur kartalar aniq, chiroyli bo'lsa ham biroq ko'chirib olingan yoki boshqa bir kishi ishlab bergan bo'lishi mumkin, bu ish o'quvchiga etarli bilim bermaydi.

Kontur kartalarni sinfda ishlash yaxshi natija beradi, bunda o'quvchilar yangi materialni o'rganadilar, bilimlari mustahkamlanadi.

Kontur karta bilan olib boriladigan ishdai oldin o'qituvchi uni bajarishga doir ko'rsatmalar berishi kerak.

Ob'ekt kontur kartaga tushirilgach, o'quvchidan bu ob'ekt haqida qisqacha ma'lumot berishni talab qilish mumkin. Kontur kartani izox bilan to'ldirish usulidan kengroq foydalanish kerak. Kontur kartaga tushiriladigan geografik nomlarning miqdori juda ko'p bo'lmasligi kerak.

Kontur kartada bajariladigan ishlar ijodiy xarakterga ega bo'lishi, o'quvchilar bu ishlarni ongli va mustaqil bajarishlari kerak. Bir xil turdagi ishlar o'quvchilarni zeriktirib qo'yadi, shu sababdan kontur kartada bajariladigan ishlar xilmaxil bo'lishi kerak.

Kontur kartada quyidagi ishlarni bajarish mumkin:

Geografik ob'ektlarni tushirish. Bunda yangi materialni o'rganishda o'qituvchi tomonidan aytilgan geografik nomlar yoki darslik teksti mustaqil o'qib o'rganilayotganda uchragan geografik nomlar kontur kartaga tushiriladi.

Uqituvchi biron o'lka konturini sinf doskasiga chizib unga geografik ob'ektlarni tushiradi. O'quvchilar doskada ifoda qilingan ob'ektlarni andaza yordamida daftariga chizgan konturga tushirib oladilar, Masalan, O'zbekistonning reliefi o'rganilayotganda muhim tog' tizmalari doskadagi O'zbekiston konturida belgilanadi, o'quvchilar esa uni daftardagi konturga tushiradilar va nomlarini yozib qo'yadilar. Keyingi darsda O'zbekistonning foydali qazilmalari kartasini chizish ham mumkin.

Kontur kartalarga shartli belgilar tushirish. O'quvchilar mustaqil ish bajarayotganlarida tog'lar, vulkanlar, foydali qazilmalar, ostonalar, sharsharalar, daryo va ko'llar, yirik elektrostansiyalar kabi ob'ektlarni tegishli belgilar bilan kontur kartaga tushiradilar.

Kartaxema va kartadiagramma chizish. Kontur kartaga tog' tizmalari, ko'p esuvchi shamollar, dengiz oqimlari, yillik yog'in miqdori tushiriladi. Ularning kattakichikligi masshtabli figuralar bilan ko'rsatiladi.

Kontur kartada kontrol ish olish. Bu usul o'quvchilarning kartani qanchalik o'zlashtirganligini aniqlashda qo'l keladi. Kontrol ish diktant xarakterida bo'lishi mumkin.

Geografik diktant avval o'rganilgan materiallar asosida o'tkaziladi. Bunda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan diktovka qilingan nomlarni kontur kartada tegishli o'ringa yozib boradilar. Diktantda geografik nomlarni o'z o'rniga yozishdan tashqari, tabiat zonalarini ajratib yozish, tog' tizmalarining yo'nalishlarini chizib, nomini yozish yoki foydali qazilmalarni tegishli belgilar bilan aniqlash kabi ishlarni bajaradilar.

Kontur karta bilan ishlashda quyidagilarga amal qilish shart: karta nomi yuqoriga, o'quvchining ismi, familiyasi va sinfi pastda, o'ng tomonga yozib qo'yiladi. Geografik ob'ektlarning nomlari bosma harf bilan yoziladi. Daryo, tog' tizmalarining nomi ularning yo'nalishiga moslab, shahar, orol, ko'llarni nomlari parallel chiziklarga parallel qilib yoziladi. YO'zuvlar siyox yoki tush bilan yoziladi. Kontur kartada bajarilishi kerak bo'lgan ishning mazmuni avval shu karta orqasiga yozib qo'yiladi, so'ngra tartib bilan bajariladi. Bu ishning aniq bajarilishini ta'minlaydi.

Kontur kartada olib boriladigan ish o'z vaqtida tekshirilib, baxolanib va tegishli ko'rsatmalar berilib turilishi lozim. Kontur kartalarni tekshirgandan so'ng ijobiy va kamchilik tomonlarini sinfda muhokama qilish kerak. O'quv yilining oxirida yaxshi ishlangan kontur kartalar ko'rgazmaga qo'yiladi.

22. Sinf doskasidan foydalanish

Geografiya ta'limi vositalaridan biri — sinf doskasidan foydalanishdir. Sinf doskasidan foydalanish geografiya ta'limida alohida o'ri tutadi. SHunday ekan sinf doskasidan imkoniyati boricha foydalanish zarur.

YAngi temani o'rganish prosessida o'qituvchi sinf doskasiga shu temani, uning planini yoki ayrim geografik ob'ektlar (masalan, dengiz, biron tabiiy geografik o'lka)ni ta'riflash planini yozib qo'yadi. O'quvchilar talaffuz qilishi qiyin bo'lgan termin va nomlarni sinf doskasiga tegishli urg'usi bilan yozib qo'yadi. O'quvchilarga beriladigan topshiriqlar, amaliy ishlar va grafiksxemalar ham doskaga yozib qo'yiladi. Sinf doskasiga chizilgan chizma va rasmlar o'quvchilar tomonidan ma'lumotni puxta o'zlashtirishga, ularning faoliyatini oshirishga, geografik ob'ektlar va hodisalarni aniq ko'rsatishga yordam beradi.

Sinf doskasiga chiziladigan chizma va rasmlar o'qituvchining ifodasini mazmunan boyitadi. Darslikda berilgan rasm va diagrammalarni sinf doskasiga chizib ko'rsatish shart emas.

Kartani o'zlashtirishga yordam beradigan usullardan biri sinf doskasiga kartaxema chizishdir.

Ta'lim jihatidan kartasxema chizish tayyor kartani ko'rsatishdan afzaldir. Sinf doskasiga chizilgan kartasxemadagi ma'lumotlarni o'quvchilar kontur kartaga tushirishlari, ba'zan (chizma murakkab bo'lmaganda) ularni o'z daftarlariga ko'chirib olishlari ham mumkin. Sinf doskasiga chizib ko'rsatiladigan kartasxemalar yaxshi chiqishi uchun o'qituvchi doimo mashk qilishi kerak. Murakkab konturli materiklar (masalan, Evrosiyo) ning kartasxemasini sinf doskasiga chizish ancha qiyin. Bu holda ularning andazasini qalin karton yoki fanerdan tayyorlab, uning konturini sinf doskasiga bo'r bilan chiziladi. Vaqtini tejash maqsadida oldindan ko'chma doska yoki sinf doskasiga ularni chizib, ustiga parda tashlab qo'yish ham mumkin.

Kartasxema chizilganda rangli bo'rdan foydalanish ma'qul, bu holda bir kartasxemada bir necha ma'lumotni ifoda qilish imkoniyati turiladi. Masalan, tog' yo'nalishlarni — jigar rang, yanvar izotermasi — zangori, iyul izotermasi — qizil bo'r bilan, dengiz — zangori, pasttekislik — yashil va qir — sariq bo'r bilan yoziladi.

Sinf doskasiga tushirilgan kartasxemadagi ob'ektlarni o'qituvchi devoriy o'quv kartadan ko'rsatib borsa, o'quvchilar ularni o'z atlaslaridan topib borsalar, karta bilan kartasxema birbiriga bog'lanadi.

Sinf doskasiga doimiy kartasxema — kontur karta xam chizib qo'yish mumkin. Masalan, sinfkabinet doskasiga chizib qo'yilgan. Sinf doskasiga chizilgan doimiy kartasxemaning yozuvi doimiy bo'lmaydi. Bu kartasxemalardan kartani o'rganishda yo bo'lmasa o'quvchilar bilimini sinab ko'rishda xam foydalanish mumkin.

YOzuvsiz kartaning yozuvli kartadan farqi shundaki, geografik ob'ektlar aniq ajralib turadi. Kartada yozuvlarning yo'qligi o'quvchilar diqqatini geografik ob'ektlarga jalb etadi va ularning joylarini xotirada saqlab qolishga imkon beradi. Bunday kartasxema o'quvchilarning geografik nomlarni bilishga doir turli mazmundagi o'yinlar o'tkazish uchun xam qo'l keladi. Doimiy kartasxema o'qituvchini xar darsda sinf doskasiga kartasxema chizishdan ozod qiladi. Sinf doskasidan to'liq foydalanish maqsadida karta iladigan maxsus moslama, shuningdek kartasxema, rasm, jadval, diagrammalarni saqlash uchun maxsus yashiklar yasab, sinf doskasi yoniga o'rnatish mumkin.

Geografiya daftari.

O'zbek tilida darsliklar vujudga kelgunga (1936 yilga) qadar geografiya daftari faqat zarur geografik ma'lumotlarni yozish maqsadida tutib kelingan. Stabil geografiya darsliklari vujudga kelgandan so'ng geografik materiallarni daftarga yozishga ehtiyoj qolmadi. Geografiya daftari geografik materiallar konspektini yozish uchun kerak, deb tushunuvchilar bunday daftarni tutish shart emas, degan fikrga kelgailar. Bunday fikr, geografiya daftarining ahamiyatiga tor nazar bilan qarashdan, uning geografiya ta'limidagi roliga etarli e'tibor bermaslikdan kelib chiqqan edi. Daftar bilan ishlash geografiya ta'limi metodlaridan hisoblamasa ham, geografiyadagi beriladigan bilim asoslarini o'zlashtirishda ahamiyati katta.

O'quvchilar geografik qonuniyatlar, termin, nomi va raqamlarni daftarlariga yozib borar ekanlar, bu ularning xotiralarida mustaxkam o'rnashib qoladi. O'quvchilar geografiya daftarlariga tabiatdagi kuzatish natijalarini, chikarilgan xulosalarni yozib boradilar, sxema va jadvallar, kartasxemalar, diagramma va grafiklarni chizib boradilar.

Geografiya daftari: o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni mustaxkamlaydi; darslikdan olingan bilimlarni kengaytiradi, chuqurlashtiradi va yanada aniqlashtiradi; o'quvchilarda maxsus geografik ko'nikma va malakalar hosil qilishga yordam beradi; ta'limning ko'rgazmali va qiziqarli bo'lishiga imkon beradi; o'qituvchi tomonidan berilgan vazifa va topshiriqlarni sinfda va uyda bajarishni osonlashtiradi, o'quvchilarning geografik savodxonligini oshiradi; o'quvchilarni o'z ishlariga muhabbat va mas'uliyat bilan qarashga o'rgatadi. O'quvchilar aniq, uzoq vaqt esda qolishi zarur bo'lgan ma'lumotlarni, raqamlarni daftarlariga yozib oladilar.

Fan yangiliklari va ayrim o'zgarishlarni darslikda o'z vaqtida aks ettirish imkoniyati yo'q. Binobarin, o'quvchilar darslikda berilmagan va o'qituvchi tomonidan qo'shimcha kilinadigan ma'lumotlarni daftarlariga yozib borishlari kerak. Ulkashunoslikka doir ayrim ma'lumotlarni daftarga yozib ko'yish bilan o'quvchilar o'z respublikasi geografiyasini puxtarok o'rganish va uni

boshqa territoriyalar bilan tavsiflash olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'quvchilar darslik teksti bilan mustaqil ish olib borganlarida o'sha tekstni o'rganish yuzasidan tuziladigan planni ham daftarga yozib qo'yadilar. Masalan, o'qituvchi o'quvchilarga materiklar geografiyasi darsligidan Afrika «sahra zonasi»ni o'rganish planini chiqishni tavsiya etadi. Plan taxminan quyidagicha tuzilishi mumkin: savannalarning tarqalgan joylari; o'simliklari; hayvonot dunyosi;

Ba'zan	darslik	tekstlari	beriladigan	mashq	va
topshiriqlarga	yozma	javob	berishga	to'g'ri	keladi.
holda	savol	yoki	topshirilgan	daftarga	ko'chiriladi
					va
					ularga

yozma javob beriladi.

O'quvchilarga qiziqarli hodisa va ob'ektlar haqida qo'shimcha adabiyotlar o'qishni tavsiya etilganda, ular adabiyotning va muallifning nomini geografik daftarga yozib qo'yadilar.

Geografiya	daftariga	ayrim	yangi	termin	va	nomlarga	izoh
berib	yozib	boriladi.	Masalai,	atmosfera	—	er	yuzini
turgan	havo	qatlami.	Qo'ltiq	—	okean	va dengizlarning	quruqlik
						ichiga	yorib kirgan
							qismi.
YArimorol							quruqlikning

suv ichiga yorib kirgan qismi.

Raqlar hisoblash, tahlil qilish va xulosalar chiqarish maqsadida daftarga yozdirib boriladi. Masalan, VI sinfdagi sutkaning o'rtacha temperaturasini topish uchun quyidalar raqlar berilishi mumkin: soat 1 da +10°, soat 12 da 48°, soat 13 da +24° va soat 19 da +14°. Sutkaning o'rtacha temperaturasini hisoblang. O'quvchilar bu raqlarni daftarlariga yozib olib o'rtacha hisobini chiqaradilar: $10 + 4 + 8 + 24 + 4 + 14 = 56$; $56 : 4 = 14$. Sutkaning o'rtacha temperaturasi +14° bo'lgan.

O'quvchilar geografiya daftarlariga har qaysi tema yuzasidan kartasxemalar, masalan, O'zbekistonning geografik o'rni, tektonikasi, er yuzasi, foydali qazilmalari, izoterma va yorinlari, daryo va ko'llari, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosiga doir kartasxemalar ishlab borsalar, bunday daftarlar ajoyib qo'llanmaga aylanishi mumkin.

Daftarga chizilgan kartasxemalar oddiy usullarda. Toshkentning yil fasllarini tasvirllovchi sektorli diagramma sxematik tarzda bajariladigan bo'lgani uchun o'quvchilar qiynalmaydilar. Aksincha, ularni havas va qiziqish bilan bajaradilar, hatto o'quvchilar xuddi shu usulda o'zlarining tabiiy geografik rayonlariga doir kartasxemalar, kartadiagrammalar ishlaydilar.

O'quvchilar kuzatish yakunlarini ham tegishli belgilar bilan daftarlariga qayd qilib boradilar. Masalan, obhavo kuzatish natijalarini daftar varag'ining bir tomoniga yozib, ikkinchi tomoni obhavo yakunlarini ishlab chiqish uchun ochiq qoldiriladi. Obhavo kuzatish yakuni, havo temperaturasi, bosim, bulutli kunlar va yog'in miqdori grafik va diagrammalarda aks ettiriladi.

Bulardan tashqari, daftarga yil fasllariga doir sektori diagramma ham chizdirish mumkin. Fasllarning boshlanishi va tugash vaqti doiraga raqlar bilan belgilab qo'yiladi.

Har oyda kuzatilgan ma'lumotlar asosida o'quvchi o'zi yashab turgan joyda Quyoshning yil davomida gorizontdan balandligini (oylar bo'yicha) quyidagi grafik bilan belgilashi mumkin.

Geografiya daftariga tekstlar qisqa va tushunarli qilib yozilishi, grafik va sxemalar esa aniq hamda to'g'ri ishlanishi kerak. Qatakli qog'ozga rasm solish, jadval va grafiklar chizish oson bo'lganligidan geografiya daftari katakli bo'lgani ma'qul. O'quvchilarning geografiya daftarlarini oy sayin tekshirib, baho qo'yib borish kerak. Namunali tutilgan geografiya Daftarlari o'quv yili oxirida ko'rgazmaga qo'yilishi mumkin.

23. Geografiya ta'limida ko'rgazmalilik

Geografiya ta'limida o'quvchilarni har tomonlama etuk bilimdon bo'lib etishishida, ta'limni hayot bilan chambarchas bog'lab borishda o'quv qurollarining roli katta.

Uqitishdagi ko'rsatmalilik o'quvchilarning geografik tasavvur doiralarining kengayishiga, temaning tushunarli bo'lishiga va puxta o'zlashtirilishiga imkon beradi. Turli o'quv ko'rsatmalari, asboblari geografik bilimlar yaxshi o'zlashtirilishiga va xotirada uzoq saqlanishiga sababchi bo'ladi. Bu haqda K. D. Ushinskiy bunday degan edi: «Biz ravshan taassurotlarni ko'rish orqali hosil

qilamiz, chunki biz o'zimiz eshitgan narsalardan ko'ra, ko'zimiz bilan ko'rgan narsalarni osonroq tasavvur qilamiz. Ayni bir vaqtda ham ko'rish, ham eshitish, ham muskul harakati yordami bilan hosil qilingan taassurot esa... ayniqsa, ravshan tasavvur hosil qiladi va xotirada uzoq saqlanadi».

Ko'rsatmali qo'llanmalar, xususan tasvirli qo'llanmalar ayrim tabiiy geografik hodisalar o'rtasidagi bog'lanrtshni, insonning tabiatga ta'sirini va uning turli sharoitdagi faoliyatini aks ettirib, o'quvchilarning dialektikmaterialistik dunyoqarashini shakllantirishga va ularni sovet vatanparvarligi ruhida tarbiyalashga yordam beradi.

Maktablarda geografiyani o'rganishda, xilmaxil metod va usullardan foydalanishda, dars sifatini yaxshilashda, uni mazmunli o'tishda hamda o'quvchrlarning fanga bo'lgan qiziqishnni yanada oshirishda o'quv qurollarining roli kattadir. Darsni ko'rsatmali qurollardan foydalanib tashkil etish ayrim geografik tushunchalar mazmunini juda aniq tushunib olishga yordam beradi.

Geografiyani o'qitish metodikasiga doir mavjud qo'llanmalarda o'quv qurollari tushunchasi turlicha ifodalanadi.

O'quv qurollari deganda nimani tushunmok kerak? U nimalarni o'z ichiga oladi? Ta'limtarbiya saviyasini yanada yuqori ko'tarish maqsadida maxsus tayyorlangan va darsda bevosita tatbiq etiladigan, qo'llaniladigan, foydalaniladigan barcha qo'llanmalar o'quv qurollari tushunchasiga mansubdir.

Geografiya ta'limida qo'llaniladigan o'quv qurollari xilmaxil bo'lganligidan ulardan to'liqroq va samarali foydalanish uchun uni gruppalariga bo'lib xarakterlash maqsadga muvofiqdir. O'quv qurollarini to'rt gruppaga bo'lish mumkin.

Birinchi gruppaga — darsliklar va o'quv qo'llanmalari.

Ikkinchi gruppaga — o'quvko'rsatmali qo'llanmalar.

Uchinchi gruppaga — asboblar.

To'rtinchi gruppaga — moslamalar.

Har bir gruppaga o'z navbatida yana bir necha turlarga bo'linadi,

Darsliklar va o'quv qo'llanmalari. Bu gruppadagi o'quv qurollari o'qituvchining bayonidan keyinda turadigan bilim manbaidir. Darslik o'quvchilar uchun asosiy qo'llanma, shuningdek, mustaqil bilim olish manbaidir. Darslik bo'lmasa, ta'lim aniq va mukammal bo'lmaydi. O'quvchidan talab qilinadigan bilimlar minimumi ham darslikdir. O'quv ko'llanmalari o'quvchilar bilimini kengaytirish maqsadida qo'llaniladigan xrestomatiya, spravochniklardan iboratdir.

O'quvko'rsatmali qo'llanmalar. O'quvko'rsatmali qo'llanmalardan o'rganiladigan hodisa va ob'ektlar haqida aniq tasavvur hosil qilish maqsadida asosiy bilim manbalaridan biri sifatida foydalaniladi. Bu o'quvchilarning geografik qonuniyatlarni yaxshi tushunishiga va kuzatish qobiliyatining o'sishiga yordam beradi.

O'quvko'rsatmali qo'llanmalar xususiyatiga ko'ra yana 4 ga bo'linadi:

kartografik qo'llanmalar,

tasvirli qo'llanmalar,

sxematik ko'llanmalar,

natural qo'llanmalar.

Kartografik qo'llanmalar Erning tasvirini (tabiiy geografik ob'ekt va hodisalar, ularning joylanishini) shartli kichraytirilgan xolda va muayyan kartografik proeksiyada ifodalaydi. Kartografik qo'llanmalar topografik, umumgeografik, maxsus kartalarni, geografik atlaslarni, blankali va kontur kartalarni, globusni o'z ichiga oladi.

Tasvirli qo'llanmalar geografik ob'ekt va hodisalarning x.aqiqiy ko'rinishini tasvirlaydi. Tasvirli qo'llanmalar bilimlarni o'rganishda aniq taassurot qoldirishi tufayli bilimlar puxta o'zlashtiriladi. Tasvirli qo'llanmalar turli rasmlarni, fotosurat, ekranli qo'llanma (diapozitiv, diafilm, kinofilm), diorama, panorama, model va maketlarni o'z ichiga oladi.

Sxematik qo'llanmalar geografik ob'ekt va hodisalarni shar.tli holda tasvirlaydi. Sxematik qo'llanmalar kartasxema, grafik, diagramma va jadvallardan iboratdir.

Natural qo'llanmalar o'rganiladigan geografik ob'ekt va hodisalarning aslidan iboratligi uchun ham alohida ahamiyatga ega. O'quvchilar turli sezgi a'zolari yordamida narsalar haqida aniq tasavvur hosil qiladilar. Natural qo'llanmalar turli kolleksiya, gerbariy, tuproq namunalarini

to'plashdan iboratdir.

Asboblarning turli mazmundagi amaliy ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan o'quv qurollarini o'z ichiga oladi. Maktabda geografiyani o'qitishda tatbiq etiladigan asboblarning quyidagilardan iborat:

1) kuzatish asboblari: termometr (maksimal, minimal), termograf, flyuger, anemometr, barometr, barograf, gigrometr, gigrograf, eg'in o'lchagich, qor qalinligini o'lchaydigan reyka, qalqitma, burchak o'lchagich, skafis;

2) joyda orientirovka olish va gorizont tomonlarini aniqlash uchun ishlatiladigan asboblarning kompas, gnomon, qutb yulduzi, kursatkichi va rumbli halqa;

3) masofalarni o'lchash asboblari: er o'lchaydigan snrkul' ruletkasi, metr o'lchagich, reyka, eklimetr, planshet, vizir chizg'ichi,

4) tajriba o'tkazish uchun ishlatiladigan asboblarning stakan, probirka, kolba va har xil shisha idishlar, voronka, shtativ, spirt lampasi.

Moslamalar. Bu moslamalar ko'rsatmali qo'llanmalarni kursatish, saklash va ixcham qilib joylash maqsadida foydalaniladigan erdamchi qurollardir. Moslamalar geografiya ta'limida bevosita ishtirok etmasada, kartalar, jadvallar, sxemalar, ekranli qo'llanmalarni ko'rsatishga yordam beradi. Ular karta iladigan va saqlaydigan maxsus moslamalar karta, rasmlar, jadvallar iladigan tagliklar, rasmlar iladigan maxsus tutqichlar, ko'rsatmali qo'llanmalar saqlaydigan maxsus moslama va javonlar, shuningdek, proeksion apparatlar va maxsus ko'rsatkichlardan iboratdir. Ko'rsatmali qo'llanmalarni tayyorlash uchun zarur bo'lgan asbob va buyumlar ham mazkur gruppaga mansubdir.

24. Geografik rasmlar va ular bilan ishlash

Geografiya o'qituvchisi qanchalik tajribali, nutqi chiyaroyli ravon va sodda bo'lmasin, u darsda quruq so'zlar bilan o'tmasligi kerak.

O'quvchilarga o'zi tug'ilib o'sgan joylarning tabiatidan keskin farq qiluvchi landshaftlar haqida bilim berilganda uning tasvirini ko'rsatib, tushuntirib berish lozim. Tasvirli o'quv qurollaridan foydalanish — geografik tasavvurning shakllanishiga, tushunchalarning aniq o'zlashtirilishiga yordam beradi. O'qituvchi tasvirli materiallardan foydalanayotganda o'quvchilarning diqqatini o'rganilayotgan ob'ekt tasvirini kuzatishga, uning o'ziga xos belgilarini aniqlashga va umumiy xulosalar chiqarishga jalb etishi va tasvirga izoh berib boshlash kerak.

Tasvirli qo'llanmalarining asosiy turlariga to'xtab o'tamiz.

Rasmlar. Rasm darsda bilim manbalaridan biri bo'lib xizmat qiladi, shu sababdan o'rganiladigan ob'ekt va hodisalarni ko'rib tasavvur qilishda rasmlarning ahamiyati kattadir. Rasmlar joyning asosiy xususiyatini ochiq va ravshan kursatib beradi. Rasmda tasvirlangan tabiiy geografik ob'ekt va proseslar (vulkan otilishi, tabiat zonasining landshafti) mushohada qilinadi. Bunda o'qituvchi bir necha savollar berib o'quvchilarning e'tiborini rasmning asosiy qismiga tortadi. Rasmni karta bilan bog'liq holda o'rganish va undagi tasvirni kartadan topish o'quvchilarni rasm bilan kartani birga qo'shib o'rganishlariga yordam beradi. Rasmda ko'rilgan hamma narsa umumlashtiriladi. Bundan tashqari, rasm yangi bilimlarni o'rganishda, bu bilimlarni mustahkamlash va takrorlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Darsni yangi materialga tegishli rasmlarni tahlil qilishdan boshlash ham mumkin.

Tasvirli ko'rsatmalardan biri fotosuratlar bo'lib, ular landshaftning aslini ko'rsatadi. Jurnal, kitob, gazetalardan to'plangan illyustratsiyalar va fotosuratlarni epidiaskop orqali ko'rsatish ham mumkin.

Ekranli qo'llanmalar. Ekranli qo'llanmalar ikki xil bo'ladi: proeksion apparatlar va televidenie.

Proeksion apparatlarning o'zi 3 xil (episkop, epidiaskop va diaskop apparatlari)ga ajratiladi.

Tabiiy ko'rgazmali vositalar

Bu qo'llanmalar o'rganiladigan ob'ekt va narsalarning shakli, rangi, ba'zan kattaligi haqida to'g'ri va aniq tasavvur hosil qiladi. Ayrim holda karta, surat, sxema kabi qo'llanmalar ham ularning o'rniga o'tmaydi.

O'quvchilar natural qo'llanmalar yordamida o'rganiladigan materiallarni puxta o'zlashtirib oladilar. Gerbariylar. Materiklar va ayrim o'lkalarning tabiat zonalarini o'rganishda o'simliklardan yig'ilgan gerbariylardan foydalaniladi. Gerbariy yig'ganda o'tlarning namunalari shikastlanmagan ildizi va mevasi (yoki urug'i), daraxtlarning namunalari esa bargi, guli, mevasi va novdasining bir bo'lagi bilan olinishi lozim.

Maktab atrofidagi o'simlik namunalaridan ham gerbariylar to'plash mumkin. Gerbariylardan foydalanib dars o'tilganda o'simliklarning xo'jalik ahamiyatiga ham to'xtab o'tish maqsadga muvofiqdir.

Kolleksiyalar. Tabiiy geografiya kurslarida tog' jinslari, ayrim territoriyadagi foydali qazilmalar va ularning ahamiyatini o'rganishda turli kolleksiyalardan foydalaniladi. Qolleksiyalar — tog' jinslari (granit, bazalt, qumtosh...), foydali qazilmalar (ko'mir, torf, temir va mis rudalari...) va qurilish materiallari (shag'al, qum, gil) dan iborat bo'ladi.

Maktabda kolleksiyalarni ekskursiya vaqtida olingan tor jinslari namunalaridan to'plash mumkin.

O'qituvchi natural qo'llanmalar miqdori etarli bo'lsa, mustakil o'rganish uchun uni barcha o'quvchilarga berib, oz mikdorda bo'lsa, namunalarni ko'rsatib tushuntiradi.

Tuproq namunalari. Tabiatshunoslik (V sinf) kursidagi «Tuproq», materiklar geografiyasi va S geografiyai kurslaridagi «Tabiat zonolari» temalarida tuproq namunalarni ko'rsatib o'rganish darsni yaxshiroq o'zlashtirishga imkon beradi.

Maket va modellar bilan ishlash.

M o d e l l a r. Modellarning afzalligi shundaki, ular o'rganiladigan geografik ob'ektni anik tasvirlab boradi. Modellar morfologik ob'ektlar (tog'lar, daryovodiysi, qirgok tiplari, g'orlar, jarlar) bilan tanishtirishda qo'llaniladi.

Bulardan tashqari, murakkab tabiiy geografik proesslarni tushuntirishda ham modellardan foydalaniladi. Masalan, telluriy yordamida Erning Quyosh atrofidagi harakati va yil fasllarining hosil bo'lishi tushuntiriladi.

Tabiat zonalarini, o'simlik va hayvonot dunyosini aks ettirishda odatda diorama va panoramalardan foydalaniladi.

27. Texnikaviy vositalardan foydalanish

Episkop. Bu apparat turli xil fotorasmlar, suratlar, yozuv va buyumlarni ekranda ko'rsatadi. Episkop yoritgich manbaidan tushgan nurni, nur qaytargich, ko'zgu orqali ob'ekt tasvirini ekranga tushiradi.

Diaskop. Oyna, plyonkadagi shaffof diapozitivlarning tasvirini ekranga tushiradi. Epidiaskop esa episkopning ham, proeksion fonarning ham xizmatini bajara oladi.

Sxemada ko'rsatilgandek diaskop apparatlari: proeksion fonar, fil'moskop, diaproeektor va kinoapparatdan iborat.

1)	Proeksion	fonar	bilan	ishlash.	Kichikroq
shishaga,	kinoplyonkaga	va	boshqa	shaffof	plastinkaga
gan rasmlar	— diapozitivlar	proeksion		fonar	tushiril
					yordamida

kattalashtirilib zkranga tushiriladi.

Yorug'lik vositasida kattalashtirib ko'rsatilgan rasmlar o'quvchilar uchun oddiy rasmlarga qaraganda qiziqarli va ta'sirli bo'ladi.

Diapozitivlarni maktabda tayyorlash ham mumkin. O'quvchilar o'zlari tayyorlagan diapozitivlarni maroq bilan tomosha kiladilar va ko'rgan narsalari uzoq vaqt esdan chiqmaydi. Diapozitiv ko'rsatish uchun fonarning diapozitivi o'rnatiladigan ramkasini bir tomonga surish kerak, ramkaning kassetkasiga diapozitivning teskari tomoni qo'yiladi, shuyada fonar proekti tushiriladigan rasmning tasviri ekranda to'g'ri ko'rinadi. Bir dars davomida ko'rsatiladigan diapozitivlar soni 10—12 donadan ortiq bo'lmasligi kerak.

2)	Fil'moskop	bilan	ishlash.	Fil'moskop	dia
fil'mlar	ko'rsatadi.	Diafil'mlar	bir	temaga	doir
diapozitivning	plyonkaga	tushirilganidir.		Diafil'm	bir
boshlash	oldidan,	yangi	materialni	o'rganish,	temani
					dars
					takror

lash yoki mustahkamlash vaqtida, shuningdek darsdan tashqi vaqtlarda ko'rsatilishi mumkin.

Diafilm ko'rsatib bo'lingandan so'ng, o'quvchilar bilan qisqacha yakunlovchi suhbat o'tkazish lozim.

Filmoskopdan foydalanish uchun diafilm ko'rsatiladigan xonaga ekran o'rnatiladi va qorong'ilatiladi. Ko'rsatishdan bir kun oldin o'quvchilarni ogohlantirib qo'yish ham mumkin. Ko'rsatishdan avval temaga tegishli va ta'limtarbiya talablariga javob beradigan diafilm tanlanadi.

Uqituvchi diafilmni ko'rsatish vaqtida savollar berish va tushuntirish bilan birga, muhim joylariga o'quvchilar diqqatini jalb etishi, diafilm kadrlarini kisha, aniq va ravshan so'zlar bilan izohlab berishi lozim. Diafilm o'quvchilarning charchab qolishini xisobga olib, 10—15 minut mobaynida ko'rsatilishi mumkin.

Tajribalardan shular ma'lum bo'ldiki, diafilm ko'rsatishni karta bilan bog'lav borish yaxshi natija beradi. Diafilmning bir necha kadrlari ko'rsatilgach, xona yoritilib yoki maxsus ishlangan «elektr ko'rsatkich» bilan geografik ob'ektlarni kartadan ko'rsatib borish kerak. Diafilmni kartasiz ko'rsatish uning qimmatini pasaytirishi ham mumkin.

Maktablarda diafilmdan foydalanish kinofilimga nisbatan qulaydir. Diafilm ko'rsatishda kadrlarni kerakli o'rinda xohlagancha tutib (ko'rsatib) turish mumkin. Shuningdek ekran oldida kadrlarga izoh berayotganda filmoskopni o'quvchilardan birontasi ko'rsatib turishi ham mumkin. Temani diafilm ko'rsatib o'rganilsa, hatto uy vazifasiga ehtiyoj qolmaydi.

r) Diaproektor bilan ishlash. Diaproektor bilan diafilmlar ko'rsatiladi. Diaproektor (LETI60) mavjud boshqa proeksiyalı apparatlarga, chunki epidnaskop va filmoskop (alloskop)ga nisbatan bir necha afzalliklarga ega: 1) avvalo diaproektorni ma'lum bir masofadan turib boshqarish mumkin; 2) diafilm plyonkasidagi kadrlarni gorizontal va vertikal holda ko'rsatish mumkin; 3) sinfni sorong'ilatmasdan ham tasvirni ekranda ko'rsatish mumkin; 4) diaproektorni yoqib o'chirish va boshqarish nuqtasi (pultı) ko'rsatkichning dastasiga o'rnatilgan. Ko'rsatkichni maxsus teleskopik trubkasi bor.

Diaproektorni 10 metrgacha bo'lgan oraliqda boshqarilishi, o'qituvchiga yordamchi kishisiz tegishli vaqtda apparatni ishga tushira olish, bir kadrda ikkinchi kadr (diafilm lentasini joylanishiga qarab oldingi kadr (keyingi kadr) ham) o'tkaza olish va ayrim kadrlarni ko'rsatayotganda uni xohlagan vaqtgacha to'xtatib turish imkoniyatini beradi.

4) Kinoapparat bilan ishlash. Kino — o'zbek maktablarida yangi o'qitish vositalaridan biridir.

Kino vositasida o'quvchilar bevosita ko'rish va kuzatish Qiyir bo'lgan hodisa va o'zgarishlarni ko'ra oladilar. Shuningdek, ular qiyin va noaniq ob'ektlarni yaxshiroq tasavvur qilishga o'rganadilar. Geografik o'quv kinofilmlari o'quvchilar faoldyatini aktivlashtiradi, dars temalarini yaxshi o'rganıyga yordam beradi.

O'quvchilar kinofilmi ko'rayotgan vaqtda faqat temaga doir nazariy bilimlarnigina o'rganmasdan, balki bir qancha amaliy ko'nikmalar ham hosil kiladilar. Masalan, kinofilm vositasida o'quvchilar havo temperaturasi, shamolning yo'nalishi va kuchi, yog'inlarning miqdorini o'lchash kabi bir qator ishlar bilan ham tanisha oladilar. O'quv kinofilmlaridan dars jarayonida ham, sinfdan tashqari vaqtda ham foydalanish mumkin.

Darsda kinodan foydalanish turlari:

1. Kinofilm o'qituvchining qisqacha kirish so'zi bilan boshlanadi.

2. Kinofilm ko'rsatilayotgan vaqtda o'qituvchi tushuntirib boradi va kerakli joylariga, o'quvchilarning e'tibor berishini uqtirib o'tadi hamda ko'rib bo'linganidan so'ng uni yakun laydi.

O'qituvchining kino darsiga tayyorgarligi film tanlashidir. Buning uchun filmoteka bilan yaxshi tanish bo'lishi kerak.

Kino ko'rsatilayotganda o'qituvchi har bir kadr (qisqacha tushuncha beradi. Izoh kadr bilan sinxronlikda borishi kerak, Kino jarayonida qisqa luqmalar va savollar bilan o'quvchilarning fikrlarini kerakli joylariga jalb etib borish lozim. Kinofilm ko'rsatilayotganda uzoq tushuntirishlar

foйда bermaydi.

Kinodan keyingi yakunlovchi suxbat karta bilan bog'lab olib boriladi.

5) K o d o s k o p b i l a n i s h l a s h. Kodoskop («kod» frans. — ayrim so'z, raqam, harflar tarzidagi shartli belgilar Sistemasi va «skop» grek. — ko'rish, kuzatish ma'nosini bildiradi) — maxsus shaffof plyonka yoki shishaga tushirilgan yozuv, rasm, sxema, chizmalar, shuningdek maxsus yirik o'lchamli diapozitivlarni ekranda ko'rsatadigan asbob.

Kodoskopda ko'rsatishga mo'ljallangan tekst yoki rasmlarni o'qituvchi darsgacha, shuningdek dars jarayonida xam tayyorlashi mumkin. Yozuvlar yoki rasmlar sellofan lentaga avtoruchka, siyoh, flomaster va tush bilan yoziladi. Ko'rsatilgan lentalar esa maxsus g'altakka o'ralaveradi. Dars tamom bo'lgach, yozuvlar o'chirib tashlanishi yoki qayta ko'rsatish uchun saqlab qo'yilishi mumkin.

Kodoskopning boshqa ekranli qo'llanmalardan afzalligi shundaki, o'qituvchi sinfdagi o'quvchilarga qarab turgai holda xoxlagan yozuv, sxema, eskizlarni ekranda aniq tasvirini bera oladi.

Kodoskopda, mazkur apparat uchun tayyorlangan yirik o'lchamdagi diapozitiv — transporantlar ko'rsatish ayniqsa qiziqarli. Odatda bir temaga oid bir necha transporantlar navbat bilan birining ustiga ikkinchisi qo'yib ko'rsatiladi, bu esa biron prosess yoki hodisaning izchilligini kuzatish imkoniyatini vujudga keltiradi.

Kodoskop, odatda sinfda o'qituvchi stoli ustiga o'rnatiladi. Tasvirni katta o'lchamda ko'rsatish ehtiyoji tug'ilganda kodoskop sinf o'rtasiga (ekrandan bir oz uzoqroqqa) o'rnatiladi.

Kodoskop uchun tayyorlangan maxsus diapozitiv — transporantlarning o'lchami 144 x 104 mm bo'lib apparatga o'rnatish uchun chekka tomonida ikkita teshigi bo'ladi.

Transporantlarni sinfni qorong'ilatmasdan ham ko'rsatish (demonstrasiya qilish) mumkin. Bu qulaylik ekrandagi zarur tasvirlarni daftarga tushirish, tasvirni darslik teksti va karta bilan borlab o'rganish imkoniyatini beradi. Transporantlarni ko'rsatish vaqtida ob'ektlarning murakkab formalari va elementlarini izohlash, ob'ekt va hodisalarning o'zgarishini bosqichlar bilan ko'rsatish mumkin.

Transporantlar geografiya darslarida turli didaktik vazifalarni, avvalo o'qituvchi bayonini illyustrasiya bilan boyitish vazifasini xal etish imkoniyatini beradi. Transporantlardan faktlarni to'plash, ularni astasekin umumlashtirishda ham foydalanish mumkin. Masalan, «Tabiiy kompleks haqida tushuncha» degan transporantlar seriyasini ko'rsatishda, transporantlarning birini ustiga ikkinchisini tartib bilan qo'yib, daryo vodiysi tabiiy kompleksi va uning tarkibidagi 1 koponentyaarning sxematik tasvirini ekranda ko'rsatish imkoniyati vujudga keladi. Ayni vaqtda tabiat komponentlari rrasidagi o'zaro aloqadorligi ham namoyon bo'ladi.

Transporantlar yordamida mashqlar ham o'tkazish mumkin. Masalan, «Geografik kenglik va uzunliklarni aniqlash» degan transporantlar seriyasini ko'rsatish bilan o'quvchilar bilimi mustahkamlanadi va ularning fikrlash qobiliyatlari aktivlashadi.

Transporantlar karta bilan ishlashni ancha osonlashtiradi. Xususan kartalarni solishtirishda katta ahamiyatga ega.

Transporantlar vositasida o'quvchilarga turli mazmundagi topshiriqlarni xam berish mumkin.

Televidenie. Bu ta'limtarbiyadagi eng yangi vosita. Televizor ekrani ob'ekt, hodisa, voqealarni, ayni vaqtda ro'y berayotgan va o'zgarayotgan hayotni ko'rsatuvchi ko'zgudir. Bu o'quvchilarga geografik landshaft, geografik voqelikning ichiga bevosita kirib borishiga yordam beradi. Televidenie katta emosional ta'sir kuchiga ega. U o'quvchilarni o'ziga jalb etuvchi, bitmastuganmas bilim manbaidir.

Televideniedan ta'limtarbiya ishlarida bilimning qo'shimcha manbai va yordamchi vosita sifatida foydalaniladi.

Televideniedan maktab o'quvchilarga mo'ljallangan bir necha ilmiyommabop suhbat, leksiya, filmlar, shuningdek olamga sayohat, kinosayohatchilar klubi, fan olamida kabi eshittirishlar beriladi. Bu eshittirishlar o'zining mazmuni jixatidan geografiya faniga tegishlidir. Bunday eshittirishlarning asosiy maqsadi o'quvchilarning bilim doiralarini kengaytirish, ularning turli sohadagi qiziqishlarini ma'lum darajada qondirishdan iboratdir.

Geografiya o'qituvchisi yuqorida aytib o'tilgan eshittirishlardan ta'limtarbiya prosesslarida foydalanishi lozim. Har bir o'qituvchi haftalik teleeshittirish dastursini ko'rар ekan, ularning qaysi

birini o'z o'quvchilariga tavsiya etishi, bu bilan birga ularga qanday ko'rsatmalar berishi kerakligi xakida o'ylab ko'rishi zarur. O'quvchilarda ko'rgan eshittirishlaridan ba'zi bir savollar tug'ilishi mumkin, bu savollarga o'qituvchi hozir javoblik bilan javob qaytaryshy kerak.

Toshkent telestudiyasi o'quv kinofilmlari bilan birga o'quv dasturlari asosida maxsus o'quv eshittirishlar uyushtirib turadi. «Teledarslar» sinfda, o'quv soatlarida ko'rishga mo'ljallaigan.

«Teledars» boshlashdan ilgari telestudiyaga taklif etilgan o'qituvchi mazkur darsning maqsadi va mazmuni, nimalarga e'tibor berilishi zarurligi xaqida axborot beradi. Keyin dars boshlanadi. Uqituvchy tegishli o'quv qurollari va vositalardan foydalanib dars o'tadi.

Teledars tugagach, maktab o'qituvchisi o'rganilgan material yuzasidan suhbat o'tkazadi. O'quvchilar esa tegishli mustaqil va amaliy ishlarni bajaradilar. Televideniedan temaga doir maxsus eshittirish (teledars) berilganda o'qituvchi o'quvchilar bilan doimo kontaktda bo'lib turishi, o'quvchilar esa zarur yozuvchizuvlarni bajarib borishlari lozim.)

Maktabda televizorning bo'lishi, o'rganiladigan temalarga oid muntazam ravishda teleeshittirish berib borishi ko'pgina darslarda kinodan keng foydalanish imkonini beradi. Demak, televideniedan dastur asosida o'quv fanlari, jumladan geografiyadan temalar bo'yicha dars berish ta'limtarbiyaviy ahamiyatga egadir.

28. Kuzatish va tajriba

Tabiatni kuzatish, shuningdek, tabiiy geografiyadan o'tkaziladigan tajribalar muhim bilim manbalaridan hisoblanadi. Kuzatish va tajriba materiallariga asoslangan ta'limning ahamiyati katta.

Kuzatish. Kuzatish — xodisa va ob'ekt (joy)larni tabiiy holatda idrok etish maqsadida o'tkaziladi. O'quvchilar kuzatish tufayli geografik hodisa va joylar bilan bevosita tanishadilar. Uqituvchi kuzatish natijalari va o'quvchilarning xayot tajribalariga tayanib geografik tushunchalarni to'g'ri tushuntira oladi.

Kuzatish o'quvchilarning bilish qobiliyatlarini rivojlantiradi, muntazam kuzatish natijasida ular mustaqil xulosa chiqarishga o'rganadilar.

Kuzatish — atrofimizni o'rab turgan tabiat xodisalarining birbiriga bog'liq ekanligini tushunishga imkon beradi. Kuzatish o'quvchilarda materialistik dunyoqarashni shakllantiradi.

Geografik xodisa va joylarni sinfda, geografiya maydonchasida, o'z shahari yoki qishlog'i chekkasida, nihryat, o'z oblasti va respublikasi doirasida kuzatish mumkin. Ba'zi bir hodisaning, masalan, obhavoni uzoq vaqt kuzatishga to'g'ri kelsa, boshqa birini, masalan, daryo va ko'llarning muzlashi, Quyoshning gorizontdan balandligini muayyan vaqt ichida, yana boshqa birini masalan, bo'ron, chaqmok, qyunlarni ro'y bergan vaqtdagina kuzatishga to'g'ri keladi. Geografiya asoslarini o'rganishda eng zarur astronomik, meteorologik, gidrologik, geomorfologik, fenologik va kompleks kuzatishlariga katta e'tibor berish lozim.

Kuzatishni muvaffaqiyatli o'tishi uchun o'quvchilarga kuzatishning maqsadi va mazmunini tushuntirish, kuzatish ob'ektlarini ko'rsatish va kuzatish olib borish yo'llari xaqida tegishli ko'rsatmalar berish lozim. Kuzatish ishlari dastur asosida olib boriladi.

Uqituvchi kuzatish olib borish uchun zarur bo'lgan asboblardan masalan, kompas, termometr, flyuger, skafis va boshqalardan qanday foydalanish kerakligini tushuntiradi. O'quvchilar kuzatish natijalarini hisobga olib borish yo'llarini bilishlari kerak. Kuzatish o'quvchilarga geografik hodisalar o'rtasidagi aloqalarni (masadan, daryo suvining ko'payishi yog'in va qorning erishiga bog'liqligi) aniqlashga imkon beradi. O'quvchilar kuzatuvini doimo nazorat qilib borish kerak. Kuzatish yakunlarini o'quvchilarning o'zlari ishlab chiqishlariga erishish muxim ahamiyatga ega. Agar o'quvchnlar o'z kuzatish natijalarining amaliy mohiyatini tushunib olsalar, ularning kuzatishga bo'lgan qiziqishlari yanada ortadi.

Geografik kuzatish mazmuniga ko'ra bir necha xil bo'lishi mumkin: astronomik, meteorologik va fenologik kuzatishlar.

Astronomik kuzatish Quyoshning chiqishi va botishi, gorizontga nisbatan Quyosh balandligining o'zgarishi, yulduzlar, sayyoralar, Oy faealarining o'zgarishi kabi kuzatishlarni o'z ichiga oladi. Bunday kuzatishlar geografik qonuniyatlarning tarkib topishida katta ahamiyatga ega. CHunonchi, Quyoshning gorizontdan balandliginn kuzatishda:

Quyoshning ko'ri.nma xarakati Erning Quyosh atrofidagi yillik va sutkalik harakati okibati ekanligi;

Quyoshning tush vaqtidagi balandligi yil davomida o'zgarib turishi; xavo temperaturasi sutka davomidagi o'zgarishi
Quyoshning gorizontdan balandligiga bog'liqligi; Quyoshning gorizontdan balandligiga bog'liq holda havo temperaturasi yil davomida o'zgarib borishi kabi tushuncha va bilimlarning shakllanib borishiga imkon beradi.

Ob-havoni, quyoshni kuzatish. Fenologik kuzatish.

Meteorologik kuzatishda obhavoni kuzatish alohida o'rin egallaydi.

Obhavoni kuzatish ishlari III sinfdan boshlanib, VIII sinflarda xam davom ettiriladi.

O'qituvchi o'quvchilarning obhavoni kuzatishni tashkil etish va kuzatish usullari bilan o'quv yili boshida maxsus darsda tanishtiradi.

Obhavoni kuzatish va uni ta'riflash meteorologik asboblari bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilishda katta ahamiyatga ega. Bunday kuzatish o'quvchilarning atmosfera hodisalari haqidagi tasavvurlarini va obhavo haqidagi bilimlarini aniklash vositalaridan biridir. Obhavoni V sinfdan, shuningdek, VI sinfdan «Atmosfera» temasini o'rgangunga qadar oddiy (havo temperaturasi, shamolning yo'nalishi, bulutlilik va yog'inlarni) kuzatish kifoya qiladi. Keyinchalik havo bosimi, shamol kuchi, quyoshning gorizontdan balandligi kabi murakkab kuzatishlar olib boriladi. Havo temperaturasi va shamol yo'nalishini dastlab bir kunda bir marotaba (1-smena o'quvchilari darsdan so'ng, 2-smena o'quvchilari darsdan oldin) kuzatadilar. Bulutlilik va yog'inlar kun davomida kuzatilib, so'ng belgilanadi. Quyoshning gorizontdan balandligi oyda bir marta (oyning 20—24 kushlarida) soat 13 da kuzatiladi.

Shamolning yo'nalishi va kuchi quyidagicha belgilanib hisobga olinadi:

Bu ishlar kurs materiallarini yaxshi o'zlashtirishni ta'minlaydi. Raqamli ma'lumotlar bilan ishlash tabiatshunoslik kursidan boshlanadi. Materiklar geografiyasini o'rganilayotganda esa o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida tabiat (iqlim va gidrografik ma'lumotlar) haqidagi raqamli ma'lumotlarni va maydon kattaligini jadval tarzida daftarlariga chizib boradilar.

O'quvchilarga materiklar geografiyasidan quyida berilgan jadvaldan raqamli ma'lumotlar asosida xavo temperaturasi yillik amplitudasi va iqlim tipini aniqlashni, shu iqlimli joyni kartadan ko'rsatishni, turli iqlim tipidagi temperatura amplitudasi, yog'in rejimini o'z joyi iqlimi bilan taqqoslash vazifasini topshirish mumkin.

Bunday jadval bilan ishlash iqlim tiplarini aniq ravishda o'zlashtirishga yordam beradi. Raqamli ma'lumotlarni grafik tarzda ifodalash va uni o'qishni birinchi darsdan o'rgatish zarur. Keyingi sinflarda bu ish asta-sekin takomillashtirilib boriladi.

Sinfdan tashqari o'tkaziladigan amaliy ishlar — plan olish, turli o'lchov ishlarini bajarish, tabiat elementlarini kuzatib borish, er qatlamlarining tuzilishini dalada ko'rish va boshqa bir qancha ishlarni bajarishdan iborat.

Kuzatish va joyda olib boriladigan amaliy ishlarga oid ko'pgina ko'nikma va malakalar, asosan, tabiatshunoslik va tabiiy geografiya boshlang'ich kursida shakllana boshlaydi. Tabiiy geografiya kurslaridagi sinfdan tashqari o'tkaziladigan amaliy ishlarda kuzatish alohida o'rin tugadi. Kuzatish yuzasidan olib boriladigan amaliy ish V sinfdan boshlanib, VI sinfdan «Atmosfera» temasida takomillashadi. Bu ish IX sinfdan O'zbekiston tabiiy geografiyasi o'rganilayotganda keng ko'lamda olib boriladi, ayrim bilimlar kuzatish ma'lumotlariga asoslanib o'rganiladi.

Geografiyani o'rganishda olib boriladigan amaliy ishlarning ko'lami juda keng, masalan, joyda orientirlash, plan olish, obhavo va tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlarni kuzatish, osmon jismlarini kuzatish, raqamlar bilan ishlash. Amaliy ishni boshlashdan oldin o'qituvchi o'quvchilarga uning bajarilishi haqida tegishli maslahatlar berishi, ish usullari va bajarish tartibi haqida so'zlab berishi, so'ngra ishning bajarilishini kuzatib borishi kerak. O'quvchilar amaliy ishlarning bajarish usullarini bilib olganlaridan keyin, ularni o'zlari mustaqil bajara oladigan bo'ladilar.

O'quvchilarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish geografik bilim olish va uni kengaytirish uchun yangi imkoniyat yaratadi. Bu hol geografiyani xayot bilan yanada yaxshiroq bog'laydi, mehnatga kommunistik munosabatda bo'lishga undaydi.

30. Ekskursiya

Ekskursiya ta'limtarbiya berish shakllaridan biri bo'lib, unda o'rganilayotgan ob'ekt va hodisaning bo'lgan va ro'y berayotgan joyida kuzatiladi.

Ekskursiyada o'quvchilar o'rganayotgan ob'ekt yoki hodisani bevosita o'z ko'zlari bilan ko'rib o'rganish, shuningdek o'rganilayotgan ob'ekt va hodisani asli holida, o'z o'rnida kuzatish, tekshirish imkoniyatlari tug'iladi.

Urganiladigan ob'ektlarning ko'pligi, ko'lamining kengligi va xilmaxilligi jihatidan geografiya fanining ekskursiya bazasi juda katta. Ekskursiya o'quvchilarda geografik tasavvur va aniq tushunchalar hosil qiladi.

Ekskursiya o'quvchilarga shuncha kuchli ta'sir etadiki; pedagogning ta'siri shunchalik kuchli bo'lolmaydi. O'quvchinning dalada, qirda va tog'da o'tkazgan bir kuni maktabda o'tkazgan bir necha kundan ko'ra samaraliroq bo'lishi mumkin. Ekskursiya o'quvchilarni tetiklashtiradi, ularning kuzatuvchanlik va sinchkovlik kobiliyatlarini, hayotiy faoliyatlarini oshiradi. O'quvchilar ekskursiya vaqtida ma'lum darajada mehnat qiladilar, tabiat va atrof bilan tanishadilar, o'z o'lkalarini yaxshiroq o'rganadilar, ekskursiya tufayli ularning o'z Vataniga bo'lgan muhabbati ortadi. Ekskursiya ukituvchi bilan o'quvchilarni birbiriga yaqinlashtiruvchi vositadir.

O'quv ekskursiyalari. O'quv ekskursiyalarining maksadi o'quvchilarni dastur talab etgan geografik ob'ekt va ayrim tabiat hodisalari, shuningdek axolining xo'jalik faoliyati bilan tanishtirishdan iborat. Ekskursiya tabiatni ongli va to'liq bilib olishga imkon beradi. Biron ko'rsatmali qo'llanma, biron badiiy tasvir o'rganiladigan ob'ekt va xodisa haqida ekskursiyadagidek to'liq tasavvur berishi qiyin.

Tabiatga uyushtiriladigan ekskursiyalarda ko'rilgaya ob'ekt yoki hodisa shuning uchun ham ongli o'zlashtiriladiki, ular tamg'a bosgandek bolalar miyasidan kattiq o'rin olib qoladi. VI sinfda er yuzasi shakllari va ularni tashkil etuvchi jinslar hamda mahalliy suvlarni o'rganish maqsadida o'quv yili boshlarida ekskursiya o'tkazish mumkin. CHunki keyingi tegishli temalarni o'rganishda mazkur ekskursiyadan olingan tushuncha va ma'lumotlarga tayaniladi. Agar o'quv yili boshida ekskursiya tashkil qilinsa, bu ekskursiya o'quvchilarni fanga qiziqtirib yuboradi.

Korxonalarga uyushtirilgan ekskursiyalarda o'quvchilar mazkur rayon xalq xo'jaligining bir qismi sifatida korxonaning ekonomikasi, korxonaning kshlab chiqarishdagi mavqei, shuningdek xo'jalikning muayyan sohadagi ishlab chiqarishning xususiyatlari bilan tanishtiriladi,

Muzeyda o'rganiladigan buyumlar tabiiy holatda emas, balki sun'iy sharoitda, ko'rgazmalarga to'plangan eksponatlar shaklida bo'ladi. Muzeyda juda ko'p material to'planganligidan faqat dars temasiga taalluqli ko'rgazmalargina o'rganiladi. Ulkani o'rganish muzeylari o'z o'lkasini o'rganish uchun muhim ahamiyatga ega.

Ekskursiyalar joy sharoitiga qarab turlicha bo'lishi mumkin: qishloq maktablarida tabiatga, yirik shaxarlarda ko'proq korxonalarga uyushtiriladi. Maktab joylashgan territoriyaning rel'ef xususiyatiga bog'liq xolda ham ekskursiya mazmunining o'zgarishi mumkin. Masalan, bir maktab voxada, ikkinchi maktab tekislikda, uchinchi maktab esa tog'da joylashgan bo'lishi mumkin.

O'quv ekskursiyalari o'tkazish uchun kamida ikki soat vaqt ajratilishi lozim.

Ekskursiya samarali o'tishi uchun o'qituvchi: a) ekskursiyaga tegishli asbobuskunalarining tayyor ekanligi ko'zdan kechirishi; b) ekskursiya uyushtiriladigan joyni oldindan bilib qo'yishi; v) ekskursiyaning maqsadi, mazmuni va o'tkazishlini aniqlab qo'yishi; g) ekskursiya o'tkazish planini ishlab chikkan bo'lishi lozim.

Uqituvchi ekskursiyaga tayyorlanar ekan, tegishli adabiyotlar bnlan tanishib chiqqan bo'lishi lozim. Tabiatga uyushtiriladigan ekskursiyaning taxminiy plani quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Sinfi, oy va kun.
2. Ekskursiya temasi.
3. Ekskursiyaning maqsadi.
4. Ekskursiya uyushtiriladigan joy, marshruti va kuzatish ob'ektlari.
5. Ekskursiya uchun tegishli o'quv qurollari.
6. Ekskursiyaning o'tkazilishi: a) o'qituvchining axboroti;

b) o'quvchilar olib boradigan kuzatishlar, tadqiqatlar va o'rganadigan qonuniyatlar; v) tog' jinsi, tuproq, o'simlik va mayda hayvonlar namunalari to'plash; g) rasm va sxemalar chizish.

7. Ekskursiya materiallarini ishlab chiqish: a) ekskursiya marshrutini chizish; b) chizma va fotorasmlarni tayyorlash; v) o'lkani o'rganish muzeyi (yoki burchagi) ga material tayyorlash; g) devoriy gazeta uchun maqola yozish.

O'tkazish va yakunlash.

O'qituvchi ekskursiyaga chikishdan avval o'quvchilarning qaerga, qachon yig'ilishlari haqida, ekskursiya vaqtida ular qanday ishlar bajarishlari, ekskursiya uchun zarur o'quv qurollari va ularni ishlatish yo'llari haqida tushuntiradi. O'quvchilarni gruppalar bo'ladi. Agar ekskursiya marshruti va ko'lam kichik bo'lsa, barcha gruppalar o'zlari uchun ajratilgan maydonlarga bo'linib, o'qituvchining ko'rsatmasiga muvofiq o'zlariga topshirilgan topshiriqlarni bajaradilar. Ekskursiyada mo'ljallangan ishlar bajarilib bo'lingach, o'qituvchi o'quvchilarni marshrut bo'ylab, olib o'tadi. Agar ekskursiya marshruti va ko'lam katta bo'lsa, barcha o'quvchilar bir marshrut bo'ylab boradilar.

Ekskursiya so'ngida yakunlovchi yig'ilish yoki konferensiya o'tkaziladi, bunda o'quvchilar kilingan ishlar haqida axborot beradilar, to'plagan materiallarini ko'rsatadilar. Ekskursiyada to'plagan materiallar — kolleksiyalar, gerbariyar maktab laboratoriyasini, tegishli kabinetlarni boyitadi.

O'lkashunoslik ekskursiyalari. O'lkashunoslik ekskursiyasining maqsadi maktab atrofiga (ma'muriy rayon doirasida) yaqin joyning tabiati, xususiyati va aholisining xo'jalik faoliyatini o'rganish va tadqiq qilishdan iboratdir. O'lkashunoslik ekskursiyalari mazmuni, tabiatni chuqur sinfdan tashqari vaqtda o'tkazilishi va ixtiyoriyligi bilan o'quv ekskursiyalaridan farq qiladi. O'lkashunoslik ekskursiyalari o'z rayoni tabiatini har tomonlama o'rganish maqsadida ham, yoki uning biron elementini o'rganish maqsadida ham uyushtirilishi mumkin. Ta'lim ishlarida o'quv ekskursiya materiallaridan qanday foydalanilgan bo'lsa, o'lkashunoslik ekskursiya materiallaridan xam shunday foydalaniladi. Bu ekskursiya vaqtida to'plagan materiallar asosida maktab o'lkashunoslik muzeyini tashkil etish mumkin.

Yangi bilimlarni o'rganishda ekskursiya materiallaridan foydalanib borish maqsadga muvofiqdir.

Mundarija

- 1. Geografiya ta'limi metodikasining shakllanishi, rivojlanishi. Geografiya ta'limi metodikasining maqsadi va vazifalari.**
- 2. Geografiya o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi.**
- 3. Turkiston Rossiyaga qo'shib olingandan keyin o'zbek maktablarida geografiya ta'limi. Rus tuzumi maktablari.**
- 4. Fotix Karimning geografiya kitobi .Mustaqillik yillarida geografiya o'qitish metodikasi.**
- 5. Geografiya ta'limi ilmiy-tadqiqot usullari.**
- 6. Geografiya ta'limining hayot bilan bog'lanishi**
- 7. Geografiya o'qitishda ta'lim-tarbiyaning birligi.**
- 8. Geografiya ta'limida ilmiy dunyoqarash ma'naviy ahloqiy mehnat va estetik tarbiya**
- 9. Maktab geografiya ta'limi ta'rifi**
- 10. Geografik tushunchalar va ularning turlari**
- 11. Geografik ko'nikma va malakalar**
- 12. Geografiya o'qitish shakllari**
- 13. Geografiya o'qitishning asosiy shakli**
- 14. Sinf dan tashqari ishlarning mazmuni va vazifalari**
- 15. Geografiya ta'lim suhbat, ma'ruza, o'qib berish**
- 16. Geografiya ta'limi metodlari sistemasi**
- 17. Darslik va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash**
- 18. Geografik kartalar bilan ishlash**
- 19. Umumiy va hususiy geografik xaritalar**
- 20. Devoriy va individual xaritalar, yozuvsiz xaritalar**
- 21. Sinf doskasidan foydalanish**
- 22. Geografiya ta'limida ko'rgazmalilik**
- 23. Geografik rasmlar va ular bilan ishlash**
- 24. Maket va modellar bilan ishlash.**
- 25. Texnikaviy vositalardan foydalanish**
- 26. Kuzatish va tajriba**
- 27. Ekskursiya**
- 28. O'tkazish va yakunlash.**

